Klaraxon Mavlonova, Nasiba Saydaliyeva,
Orif Tolib, Jamshid Tolliboyev

Ona tili

11-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O‘zbya72
O-58

Ona tili 11-sinf [Matn]: darslik / K. Mavlonova, N. Saydaliyeva, O. Tolib, J. Tolliboyev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026. – 240 b.

Mas’ul muharrir:

Valijon Qodirov, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Munira Shodmonova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Nargiza Ergasheva – Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Nilufar Hakimova – Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi “I know school” xususiy maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Bahodirxon Jo‘rayev – Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 19-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Dilfuza O‘rmonova – Andijon viloyati Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Ushbu darslik Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Shartli belgilar


Guruhda ishlash


Lug‘at


Yozma topshiriq


O‘qish


Og‘zaki topshiriq


Qoidalar


Tinglash


Savollar


Uyga vazifa

ISBN 978-9910-247-28-6

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

MUNDARIJA

I BOB. O‘ZBEKISTON – VATANIM 6

1-dars 6
2-dars 9
3-dars 10
4-dars 13
5-dars 14
6-dars 17
7-dars 18
8-dars 19

II BOB. FAZILATLAR 20

1-dars 20
2-dars 23
3-dars 26
4-dars 30
5-dars 34
6-dars 38
7-dars 41

III BOB. SAN’AT 45

1-dars 45
2-dars 50
3-dars 51
4-dars 53
5-dars 56
6-dars 60

IV BOB. TIL VA TEXNOLOGIYA 62

1-dars 62
2-dars 65
3-dars 66
4-dars 70
5-dars 71
6-dars 73

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

V BOB. MATN VA TAHRIR 75

1-dars 75
2-dars 78
3-dars 80
4-dars 83
5-dars 85
6-dars 86
7-dars 88
8-dars 91

VI BOB. TABIAT VA BIZ 93

1-dars 93
2-dars 97
3-dars 100
4-dars 104
5-dars 106
6-dars 110
7-dars 112
8-dars 116

VII BOB. SOG‘LOM HAYOT 119

1-dars 119
2-dars 122
3-dars 123
4-dars 126
5-dars 129
6-dars 131

VIII BOB. MAQSAD VA HARAKAT 132

1-dars 132
2-dars 135
3-dars 136
4-dars 139
5-dars 140
6-dars 144

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



I BOB. O‘ZBEKISTON – VATANIM

Qanday vaziyatlarda vatan bag‘rida ulg‘ayayotganingizdan shukronalik hissini tuyasiz?

O‘LSAM AYRILMASMAN QUCHOQLARINGDAN

Sehrli musiqaday jaranglovchi bu ajib so‘zlarni ilk bor bolaligimda – urush boshlangan yili eshitgandim. Yosh tomoshabinlar teatrining Eski Jo‘vadagi **almisoq**dan qolgan torgina zali. Odam tirband. Sahnada past bo‘yli, kulcha yuzli, istarasi issiq artist ko‘zlari chaqnab, ovozini bir ko‘tarib, bir pasaytirib hayajon bilan she’r o‘qimoqda.

Vatan – ona so‘zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo‘tabar, aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o‘g‘il-qiz,
Muqaddas, mo‘tabar, ulug‘ Vatanim,
O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Ko‘p o‘tmay teatr zali ichida o‘tirgan ham, she’rni sahnada o‘qiyotgan artist ham unut bo‘ldi. She’r misralari va ayniqsa, har band oxirida takrorlanayotgan “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” degan ibora go‘yo yuragimda tug‘ilib, ichimdan jo‘shib chiqayotganday. Uchta oddiy so‘zdan tarkib topgan bu otashin xitob she’r emas, butun umr bo‘yi amal qiladigan tantanavor qasamday jaranglardi. Keyin chindan-da shunday bo‘ldi – Uyg‘un qalamiga mansub bu misra butun umrim mobaynida menga hamroh bo‘lib kelmoqda. Qalamim yetib borgan turli makonlarda, turli sharoitlarda bu misra mendan so‘rab ham o‘tirmay, birdan qalbimda jaranglab ketadi. Shunda yurtimizning saxiy quyoshidan bahramand bo‘lgan yam-yashil dalalarday ko‘nglim yorishib ketadi. Tomirlarimda yangi kuch yugurayotganday o‘zimni bardam seza boshlayman.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Vatan. Vatan tuyg‘usi. Vatan muhabbati. Nimadir bular? Bular qanday sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyo ko‘rmagan, turmushning past-balandlaridan bexabar, o‘yin-u sho‘xliklardan o‘zga dardi yo‘q bir o‘smirning yuragiga jo bo‘lib olib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini boshqarib turadi? Bu tuyg‘u inson farzandida tug‘ma bo‘larmikan? Yoki go‘dak tamshana-tamshana onasini emganida ona suti bilan birga bu tuyg‘u ham uning tomirlariga yugurarmikan? Umuman, “Vatan” deganining o‘zi nadir? Tug‘ilib o‘sgan uyingmi? Beshikda qulog‘ingga kirgan mungli va ayni chog‘da, nurli allami? Buvingning ertaklarimi? Maktabmi?.. Albatta, bularning hammasi va yana allaqancha narsalar birlashib, “Vatan” degan narsaning so‘nmas timsolini yaratsa kerak. Va yana o‘ylaymanki, bolaning murg‘ak qalbida ilk bor paydo bo‘lgan Vatan timsoli, har qancha yorqin bo‘lmasin, hali o‘zining **shakl-u shamoyil**ini to‘la topib ulgurmagan bo‘ladi. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan. Tajribangiz ortgani sari, hayot doshqozonida qaynab pisha borganingiz sari Vatan degan narsani chuqurroq qadrlaydigan bo‘lib qolasiz, Vatan haqidagi tasavvuringiz to‘lishib, kengayib, boyib boradi. Vatan tuyg‘usi butun vujudingizni qamrab oladi, har bir hujayrangizga tomir yozadi. Siz endi anglay boshlaysizki, Vatan faqatgina jo‘shqin yoshlik damlari bilan bog‘liq so‘lim maskan emas. Inson ham niholday gap – uni undirib-o‘stiradigan ona zamin bor, quyosh, suv, havo uni o‘z ne’matlaridan bahramand qiladi. Shuning uchun bularning bari inson uchun aziz va ardoqli. Lekin bular hali tugal Vatan emas.

Odamzod shunday yaratilganki, u boshqalardan ajralgan holda, yakka-yolg‘iz, so‘p-payib **umrguzaronlik** qilolmaydi. To‘g‘ri, odamlar orasida **tarkidunyo** qiladiganlari, tanholikni yoqtiradiganlari, hech kimni jini suymaydiganlari ham bor. Ammo ular har qancha tanho bo‘lmasin, el-u yurtdan yuz o‘girib, har qancha g‘orlar ichini makon qilmasin, baribir minglab rishtalar orqali odamlar bilan, dunyo bilan bog‘liq bo‘ladi. Hatto umrining yarmini xumni vatan qilib o‘tkazgan qadimgi yunon faylasufi Diogen ham baribir shogirdlari bilan, boshqa faylasuflar bilan aloqada yashagan. Shuning uchun “Vatan” tushunchasi muayyan jug‘rofiy hududnigina qamrab olmaydi, balki uning tarkibiga butun jamiyat, uning kechagi kuni, buguni va ertasi ham kiradi. Men “o‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan”, deya bot-bot takrorlaganimda, bilamanki, men vatanimga kerakman. Kimligimdan, yosh-u qariligimdan, kasb-u korimdan qat’i nazar. Bilamanki, mensiz Vatanimning nimasidir kemtik, noto‘kis bo‘lib qoladi. Ayni chog‘da shuni ham bilamanki, Vatanim menga ko‘proq kerak. Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men vatansiz yashay olmayman...

Ozod Sharafiddinov

1.1. Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning matndagi ma’nosini aniqlab, izohiga moslashtiring va har birini qatnashtirib gaplar tuzing.

almisoq	siyqasi chiqqan, chaynalgan
	ahd, qasam, shartnoma

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

shakl-u shamoyil	yuz tuzilishi, vajohat
	qiyofa, ko‘rinish
umrguzaronlik	hayot kechirmoq, yashamoq
	turmush tarzi, hayot
tarkidunyo	tark qilmoq, inkor qilmoq
	dunyo tashvishlaridan voz kechmoq, uzlatga chekinmoq

1. “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” iborasini muallif “tantanavor qasam” deb atashiga sabab nima?
2. Sizningcha, “Vatan” so‘zi qanday ma’nolarni anglatadi? U faqat jug‘rofiy tushunchami?
3. Diogen haqidagi misol orqali muallif nima demoqchi?
4. Matndagi “Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men vatansiz yashay olmayman” jumlasi faqat muallifga xosmi? Javobingizni izohlang.

1.2. Matndan olingan quyidagi gaplarni iqtibos, fakt yoki dalilga ajrating.

1. “Vatan – ona so‘zi naqadar laziz,
   Sensan har narsadan mo‘tabar, aziz…”
   Uyg‘un
2. Odamzod shunday yaratilganki, u boshqalardan ajralgan holda, yakka-yolg‘iz, so‘ppayib umrguzaronlik qilolmaydi.
3. Hatto umrining yarmini xumni vatan qilib o‘tkazgan qadimgi yunon faylasufi Diogen ham baribir shogirdlari bilan, boshqa faylasuflar bilan aloqada yashagan.

Matn shunchaki fikrlar yig‘indisi emas, o‘quvchini ishontirish, uni matndagi fikrga jalb etish, muallif nuqtayi nazarini asoslash vositasi hamdir. Shu sababli matndagi fikrlar iqtibos, fakt va dalillar orqali mustahkamlanadi. Bu matnni haqiqatga yaqinlashtiradi va o‘quvchini unga ishontiradi.

1.3. Iqtibos, fakt va dalilga mos xususiyatlarni birlashtirib, daftaringizga ko‘chiring. Diqqat, har bir tushunchaga ikkita ta’rif mos keladi.

Iqtibos	A) Fikrni mavhumlikdan chiqaradi.
	B) Fikrni kuchaytiradi.
Fakt	D) Fikrga asos, manba bo‘ladi.
	E) Fikrning ishonchliligini oshiradi.
Dalil	F) Fikrni hikmatlar yoki voqealar bilan asoslaydi.
	G) Fikrning yagona emasligini ko‘rsatadi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1.4. Quyidagi vaziyatlarga mos iqtiboslar keltiring. Iqtibosingiz hikoya, rivoyat yoki she’r ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

1. Vatanni qo‘riqlash maqsadida harbiylar bor kuchini tun-u kun safarbar qiladilar.
2. Qo‘shni Muhammadali bir parcha yerining qadrini uni sotib yuborgach tushunib yetdi.
3. Ulkan tog‘lar, zilol chashmalar, gul qirliklar – hamma-hammasi boshdan oxir tarovatga burkangan edi.
4. Abdulazizning o‘ychan nigohlari har qanday so‘zdan ko‘ra rostgo‘yroq edi: ular egasining asl maqsadi va ichki olamini ortiqcha izohlarsiz ham oshkor etib turardi.

1.5. “Adabiyot” yoki boshqa darsliklardagi matnlardan iqtibos, fakt va dalillarga 2 tadan misol topib, yozing.

1.6. Muallifning matnda ajratib ko‘rsatilgan birikmalardan foydalanish maqsadini qavs ichida berilgan izohlar bilan moslashtiring.

1. Sehrli musiqaday jaranglovchi bu ajib so‘zlarni **ilk bor bolaligimda** – urush boshlangan yili eshitgandim.
2. **Inson ham niholday** gap – uni undirib-o‘stiradigan ona zamin bor, quyosh, suv, havo uni o‘z ne’matlaridan bahramand qiladi.
3. Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men **vatansiz yashay olmayman.**
4. Yoki go‘dak tamshana-tamshana onasini emganida **ona suti bilan** birga bu tuyg‘u ham uning **tomirlariga yugurarmikan?**
5. **… hayot doshqozonida qaynab pisha borganingiz** sari Vatan degan narsani chuqurroq qadrlaydigan bo‘lib qolasiz.

(obrazli ko‘rsatish, hayotiy misol, muallif fikrining cho‘qqisi, vatan tuyg‘usining yetilishi, ramziy misol)

Quyidagi gaplarni solishtiring, uslubiy jihatdan farqi nimada?

– Mana, keldik, – dedi u hayajon bilan.

– Mana, keldim, – dedi u hayajon bilan.

Shaxs-son qo‘shimchalari ish-harakatning shaxsi va sonini bildirishdan tashqari, **hurmat, kamtarlik, samimiyat, yaqinlik, umumlashtirish** yoki **kesatiq** kabi uslubiy ma’nolarni ham anglatadi. Bunda shaxs-son qo‘shimchalari bir-biri bilan almashgan holda qo‘llanib, grammatik jihatdan bir shaxsni bildirsa ham, mazmundan boshqa shaxs yoki munosabat anglashiladi.

Misol uchun, *“Bu xabarni biz ham eshitdik”, – dedi Jo‘ra aka* gapi grammatik jihatdan ko‘plik (biz)ni bildirsa ham, mazmunan birlik (Men eshitdi**m**)ni anglatadi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1.7. Berilgan gaplarni quyidagi tartibda tahlil qiling.

Shaxs-son qo‘shimchasi: _____
Grammatik shaxs va son: _____
Uslubiy ma’no (kamtarlik, hurmat, umumlashtirish, masofa…): _____

1. – A’lo she’r! – dedim. – Shunaqa. Bo‘sh vaqtda yozamiz, – dedi u. (Sh. Xolmirzayev)
2. Ishga borib kutasan o‘sha narsani, uyga borib kutasan – behuda. Goho boshingni devorga urging keladi – shoyad biror yangilik ro‘y bersa!.. (E. A’zam)
3. Shunaqa narsa bilan hazil qiladimi? (O‘. Hoshimov)
4. Eee… kelsinlar, kelsinlar. Qadamlariga hasanot! (O. Yoqubov)
5. – Xush ko‘rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O‘rmonjon! – dedi Botir cho‘pon. (Sh. Xolmirzayev)
6. U bilan do‘st bo‘lishni ham, bo‘lmaslikni ham bilmay gangib yurasan. Niyoz xuddi shu toifadan. (T. Malik)

1.8. “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” matnidan 4–5 ta gapni ajratib oling. Ulardagi fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalarini o‘zgartirish orqali hurmat, kamtarlik, samimiyat, yaqinlik, umumlashtirish yoki masofa ma’nolarini hosil qiling.

Namuna: *“O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan”, deya bot-bot takrorlaganimda, bila**man**ki, men vatanimga kerak**man** (ta’kid) – “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan”, deya bot-bot takrorlagan**imiz**da, bila**miz**ki, biz vatanimizga kerak**miz** (umumlashtirish).*

1.9. Quyidagi shartlarga rioya qilgan holda “Men uchun vatan degani...” mavzusida matn tuzing.

a) kamida 5 ta fe’l shaxs-son qo‘shimchasi bilan ifodalansin;
b) fe’llar **hurmat, kamtarlik, samimiyat, yaqinlik, umumlashtirish** ma’nolarini anglatsin;
d) har bir fe’ldagi shaxs-son qo‘shimchasidan keyin shaxsi va ma’nosi qavs ichida berilsin.

Viktor aka (Uni ko‘pchilik shunday ataydi)ning qoniga o‘zbek tili ona suti bilan singgan. U O‘zbekistonsiz o‘zini, shu xalqsiz hayotini tasavvur eta olmaydi. Shu yerni yerim deb, shu elni elim deb, shu tilni tilim deb yashaydi.

Viktor Pak: – Bir tadbirda hurmatli bir inson menga: “Viktor Nikolayevich, sizga rahmat, bizning davlatimizni hurmat qilasiz”, – dedi. Biroz og‘ir botdi. “Shoshmay turing, aka, nega siz “bizning” deyapsiz? Men ham O‘zbekiston fuqarosiman, bu mening ham davlatim!” – dedim. Quloqqa yomon eshitildi-da. Xuddi men boshqa davlatdan kelib qolgan begonaday...

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



O‘zbekiston – mening Vatanim, Bekobodda tug‘ilganman. Tuproq yo‘llarda ko‘cha changitib katta bo‘ldim.

Do‘stlarimning deyarli hammasi – o‘zbeklar. Ikki oylik chaqaloqligimda koreys ota-onam boshqa-boshqa turmush qurib, meni tashlab ketishgan. Buvim nima berib boqishni bilmay qiynalganida o‘zbek onam – To‘xtaxon aya chirqillab yotgan men go‘dakni chaqalog‘iga qo‘shib emizib boqqan. Keyinchalik ham To‘xtaxon onam tandirga bug‘doy unidan yopgan kulchanonlarni yeb ulg‘aydim. Qanday qilib o‘zbek tilini bilmasligim mumkin edi axir? Butun hayotim shu yerda o‘tdi. O‘zbek onadan sut emdim, o‘zbek urf-odatlari ichida ulg‘aydim. Eng yaqin og‘aynilarim o‘zbek yigitlari. Bilmadim, negadir koreys markaziga rahbar bo‘lsam-da, ko‘proq o‘zbeklarga yaqinroqdekman.

Mahallada ko‘rib o‘sganimday katta oilamni bitta uyga jamlaganman. O‘zbeklarning bir dasturxon atrofida o‘tirishlariga havas qilar edim. Hozir uyimda xuddi shunday odatni joriy qilganman. Har hafta o‘z qo‘llarim bilan osh pishiraman. Ba’zilar: “Viktor aka, qanday qilib ikki kelinni bir uyda olib o‘tiribsiz?” deb so‘rashadi. Ularga shunday deyman: “Men Oliy Majlis deputatiman, uyda ham deputatlik qildim. Birinchi kelinimni tushirib kelishdan oldin oilamiz uchun qonun ishlab chiqdim. Bu qonun uch bobdan iborat: 1. Bu uyda ota har doim haq! 2. Mabodo ota nohaq bo‘lsa, birinchi bobga qaralsin! 3. Bu qonun muhokama qilinmaydi!”

Bu, albatta, hazilnamo gap. Lekin ikki o‘g‘il, ikki kelin, besh nabiram bilan bir uyda ahil-inoq yashayotganimiz rost. Janjal, kelishmovchilik yo‘q. Axir shunday yashayman deb, “Seni olib qolamiz”, deyishganiga ko‘nmay, harbiy xizmatdan O‘zbekistonimga qaytganman-da. Bo‘lmasa, meni kutgan ota-onam, opa-ukalarim ham yo‘q emas edi. To‘xtaxon onam yopib yedirgan bug‘doy nonning ta’mini hech nimaga alisholmadim. Shu non haqqi, o‘g‘li Mamasoli bilan qaynoq sutga botirib, kallaqand qo‘shib yegan kulchalarimizning mazasi uchun qaytdim.

Namanganda zavodda ishlagan kezlarim o‘zbek onamni ko‘rgani keldim. Uning eri urush ko‘rgan, juda yaxshi inson edi. Onam bilan so‘rashib turgan joyimizda etigining qo‘njidan pichog‘ini chiqarib yugurib ketyapti. Oldidan to‘sib chiqdim. Bildimki, o‘zi ikki boshgina qo‘yining birini so‘ymoqchi. “Ada-chi, ada, besh kilo go‘sht olib kelganman, yomon bo‘lib qoladi”, deb zo‘rg‘a to‘xtatdim. O‘rtaholgina, lekin ana shunday bag‘ri keng odamlar edi ular. Axir shunday insonlar bilan yashab o‘zbek tilini o‘rganmay bo‘ladimi? Qanday qilib men ular bilan koreyscha yo ruscha gaplashaman? Axir bu odamlar mening yaqinlarim, ularning tili mening ham tilim-ku. Toki O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan, o‘qigan, oilali bo‘lgan ekansan, bu el tilini bilishing shart! Axir bu bizning yurtimiz. Mana shu mamlakatning fuqaroligini olib, Vatanim degan har qanday millat vakili uning tilini o‘rganishi kerak, menimcha.

Hayotim haqida “Taqdir ufqlari” nomli kitob yozdim. Adabiy tilda yozolmasligim mumkin deb o‘zbekchaga badiiy tarjima qildirdim. Kitob ikki marta nashr etildi. Koreys yo rus

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

tilida emas, aynan o‘zbekchada chop ettirganimning sababi, bu kitobni o‘zbeklar o‘qisin dedim. Qishloqdoshlarim qo‘liga yetib borishini, o‘zbek do‘stlarimga taqdim qilishni xohladim. Kitobim asosida “Qizg‘aldoqlar qachon ochiladi?” nomli badiiy film ham tasvirga olindi. “Taqdir ufqlari” o‘z yurtimga arzimas armug‘onim bo‘ldi. Ko‘nglimda esa Vatanimga nisbatan hech qachon tugamaydigan mehrim bor, muhabbatim bor.

“Jadid” gazetasidan

1.10. Berilgan ta’riflarga mos so‘zlarni matndan topib, yozing.

1. Kimgadir berilgan sovg‘a, tuhfa, tortiq – …
2. Biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo‘lgan) aholisi – …
3. Etik, mahsi kabi oyoq kiyimlarining boldirni o‘rab turadigan yuqori qismi – …
4. Tandirda yopilgan kichkina, dumaloq, yog‘li non – …
5. Qandning har xil yirik-yirik turi – …

1. Viktor Pak o‘zini O‘zbekiston fuqarosi deb bilishiga sabab nima?
2. Matndagi To‘xtaxon ona obrazini qanday inson sifatida tasavvur qildingiz? U qahramonimiz hayotida qanday o‘rin tutadi?
3. Muallifning “Toki O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan, yashagan, oilali bo‘lgan ekansan, bu el tilini bilishing shart!” degan fikridan qanday xulosa chiqardingiz? Ushbu fikrning bugungi kundagi ahamiyati haqida gapiring.

1.11. Matn asosida ma’lumotlar to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki matnda berilmaganini aniqlang.

1. “Vatan” tushunchasi huquqiy fuqarolikdan ko‘ra ko‘proq ma’naviy va hissiy bog‘liqlik orqali talqin qilingan.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

2. Matnda milliy o‘zlik masalasi qarama-qarshilik va ichki ziddiyat asosida yoritilgan.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

3. Muallif o‘z hayoti haqida “Taqdir ufqlari” nomli kitob yozgan.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

4. Muallif bolaligida koreys tilida ta’lim olgani va keyinchalik o‘zbek tilini mustaqil o‘rganganini aytadi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

5. Muallif kitobni koreys yoki rus tilida emas, aynan o‘zbek tilida chop ettirish orqali o‘zbek o‘quvchisiga nisbatan madaniy hurmatini ifodalaydi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6. Viktor Pak “deputatlik qonuni” haqidagi gapni jiddiy oilaviy tartib-intizom qoidasi sifatida keltiradi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

1.12. Matn mazmuniga mos sarlavhalarni belgilang, sababini izohlang. O‘z variantingizni taklif etishingiz ham mumkin.

T/r	Sarlavhalar	Mos/Mos emas	Izoh
1	O‘zbek onaning o‘g‘li	* * *	* * *
2	Vatanim – O‘zbekiston	* * *	* * *
3	Millat emas, mehr birlashtiradi	* * *	* * *
4	Ona suti bilan singgan til	* * *	* * *
5	**Mening taklifim**	–	* * *

1.13. Tasavvur qiling, Viktor Pak bilan suhbatlashmoqchisiz. Suhbatga mos 4–5 ta savol tuzing, ularga partadoshingiz taxminiy javoblarini yozsin.

1.14. Quyidagi gaplarni matn mazmuniga mos holda davom ettiring. Mazmun o‘zgarishidagi farqni tushunishga urining.

1. Viktor tuproq ko‘chalarni changitib katta bo‘ldi, chunki…
2. To‘xtaxon aya chirqillab yotgan go‘dakni chaqalog‘iga qo‘shib emizib boqqan, negaki…
3. Viktorning oilasi o‘rtahol edi, ammo…
4. Pak o‘zbek onadan sut emdi,…
5. Qahramonimiz To‘xtaxon ona tandirga bug‘doy unidan yopgan kulchanonlarni yeb ulg‘aydi, shu sababli…

Sodda gap – bir hukmni ifodalovchi, bir grammatik asosga ega bo‘lgan gap. Sodda gaplar bayon etilayotgan fikrni *aniq, ixcham* va *ravon* tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu gap turidan fikrni to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda hissiyot bilan ifodalashda, tinglovchiga tez ta’sir o‘tkazishda foydalaniladi.

Qo‘shma gap – ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan murakkab gaplar bo‘lib, ular ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Ushbu gap turi jumlani *keng, izchil, mantiqan bog‘liq* tarzda ifodalab, fikrni murakkab holatlarda *aniq bildirish, sabab-oqibat, shart, maqsad, natija* kabi munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Solishtiring: *Kuz keldi (**sodda gap, fikr aniq va ixcham**) – Kuz keldi, daraxtlar bargi sarg‘aydi **(qo‘shma gap, ikki gap mantiqan bog‘lanib, fikr izchil davom etgan va kuz kelgani natijasi sifatida** daraxtlar bargi sarg‘aygani ko‘rsatilgan).*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1.15. Vatan haqidagi hikmatlarni sodda va qo‘shma gaplarga ajrating. Qo‘shma gaplar qanday mazmun munosabatini ifodalayotganini yozing.

1. Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo‘lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan aniq ruhiy qudratdir. (L. Tolstoy)
2. Vatanga bo‘lgan muhabbatim meni boshqa xalqlar yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, uni jahondagi g‘aznalar bilan shunchalik boyitgim keladi. (Volter)
3. Vatan tarkin bir nafas aylama, Yana ranji g‘urbat havas aylama. (A. Navoiy)
4. O‘z vatani nomiga dog‘ tushirish uni sotish bilan teng. (V. Gyugo)
5. Vatanini sevgan inson hech qachon yovga bosh egmaydi, negaki u yuragida or va g‘urur bilan yashaydi.
6. El boshiga ish tushsa, El yaratgan er kelar. (Maqol)

1.16. Berilgan bog‘lovchilarning mosidan foydalanib, qoliplar asosida qo‘shma gaplar tuzing.

…, *natija*…
…, *shart*…
…, *zidlik*…
…, *sabab*…
…, *maqsad*…

va, lekin, shu sababli,
deb, agar ...sa, chunki,
shuning uchun, biroq,
toki, oqibatda


1.17. Viktor Pak hikoyasiga mos 3–4 ta iqtibos toping. Ular:
a) millatlararo do‘stlikka chorlovchi;
b) muallifi yoki manbasi aniq bo‘lishi;
d) o‘zlashtirma gap shaklida ifodalanishi lozim.

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

(qisqartirib olindi)

Tarixan O‘zbekiston boy madaniyati, insonparvarlik an’analari va qadimiy sivilizatsiyalari bilan mashhur bo‘lgan. U azaldan bilimga asoslangan jamiyat, mantiqqa tayangan fikrlash, ulkan ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat manbayi sifatida donishmandlik, tarixiy shaxslar va buyuk tafakkur egalari markazi bo‘lib kelgan. Bu qadriyatlar yashash, barqarorlik, taraqqiyot va zamonaviy, ongli hayotni targ‘ib etuvchi ruhni yoygan. Ayni paytda O‘zbekiston yana bir bor Markaziy Osiyoning diqqat markazida turish arafasida. Bunga asosiy sabab – yaqinda barpo etilgan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi bo‘lib, bu maskan madaniy va ilmiy ahamiyatga ega yangi yodgorlik sifatida e’tirof etilmoqda. U Toshkentdagi tarixiy “Hazrati Imom” majmuasi hududida joylashgan bo‘lib, multikulturalizm, etnik xilma-xillik, bag‘rikenglik, dinlararo hamjihatlik hamda ilm-fan uchun eng qulay maskan bo‘ladi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



Ushbu markazning barpo etilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi jahonning eng yirik madaniy muassasalari – Parijdagi Luvr muzeyi, Vashingtondagi Smitson instituti va Parijdagi Arab dunyosi instituti qatoridan joy oldi. Markaz nafaqat muzey, balki yirik ilmiy kompleks, islom sivilizatsiyasining yaratuvchanlik va madaniyatlararo ochiq muloqot kuchini namoyon etuvchi, zamonaviy texnologiyalar, kutubxona va ta’lim markazlarini o‘zida jamlagan muhim makon bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa islom dunyosining yuragida yangi avlod olimlari, tadqiqotchilari va mutafakkirlarini ilhomlantiradi…

Mashhur me’mor Abduqahhor Turdiyev ishlab chiqqan loyiha 7,5 gektar maydonni egallaydi va an’anaviy o‘zbek me’morchiligini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan. Uch qavatli, 42 ming kvadrat metr maydonni egallagan bino 65 metrli gumbazi bilan Toshkent osmonini bezaydi. Bu inshoot o‘zida o‘tmish va hozirgi zamonni mujassam etgan holda insoniyat birodarligi, madaniyatlararo muloqot, tinchliksevarlik va islomiy merosning tiklanishini ifodalaydi.

Markazdagi asarlarni tarixchilar, me’morlar va hunarmandlardan iborat jamoa puxta ishlab chiqqan. Bu yurt tarixiga chuqur kirib borish imkonini yaratadi va islom tarixidagi buyuk olimlar, faylasuflarning ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohasidagi ulkan hissalarini yoritib beradi. Bundan tashqari, bu markaz yoshlar orasida insonparvarlik, tarixga hurmat va bag‘rikenglikni targ‘ib etadi, tinchlik va hamjihatlikka yo‘l ochadi.

UNESCO va ISESCO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish orqali markaz turli madaniyatlar va dinlar o‘rtasida muloqotni kuchaytiradi. U ekstremizmga qarshi kurashishda, islomning tinchlikparvar g‘oyalarini va bag‘rikenglik, taraqqiyot, uyg‘unlik kabi qadriyatlarini targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi.

Markaz beshta asosiy bo‘limdan iborat: Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar, Birinchi renessans davri, Ikkinchi renessans va xonliklar davri, XX asrdagi O‘zbekiston, Yangi Renessans – Yangi O‘zbekiston.

Ushbu bo‘limlar sivilizatsiyalar, madaniyat va bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, o‘zaro tushunish, insonparvarlik, qadr-qimmat va taraqqiyot ruhini targ‘ib etadi. Bundan tashqari, markaz madaniy va ilmiy tadbirlar uchun imkoniyatlar yaratadi: restavratsiya laboratoriyasi, konferensiya zallari, UNESCO, ISESCO va Oksforddagi Islomshunoslik markazi kabi tashkilotlarning ofislari bo‘ladi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5 O‘ZBEKISTON – VATANIM

Turkiya, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlaridagi 100 dan ortiq ilmiy institutlar, muzeylar va kutubxonalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boriladi. Islomiy madaniyat merosining global markazi sifatida Malayziyadagi Islom san’ati muzeyi, Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasi, Qozog‘istondagi Azret-Sulton majmuasi va Italiyadagi Bolonya universiteti kutubxonasi kolleksiyalaridan ko‘rgazmalar o‘tkaziladi.

Dunyodagi eng qadimiy Qur’on nusxalaridan biri – Usmon mus’hafining saqlanishi ushbu markazni nafaqat muzey, balki Islom sivilizatsiyasining ma’naviy merosi ramziga aylantiradi. Bu O‘zbekistonning dunyoga yo‘llagan aniq xabaridir: Markaziy Osiyo – nafaqat islomiy merosni asrovchi hudud, balki intellektual uyg‘onish va global madaniyatning harakatlantiruvchi kuchi hamdir…

Mahmud al-Hasanxon,
xalqaro ekspert

1.18. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan olingan so‘zlarni lug‘at yordamida ta’riflari bilan moslashtiring.

yodgorlik	multikulturalizm	kompleks
sivilizatsiya	konferensiya	intellektual

a	muayyan masalaning muhokamasi va yechimiga bag‘ishlangan majlis
b	bir butunni tashkil qiluvchi narsa, hodisa, belgi-xususiyatlar yig‘indisi
d	esdalik sifatida saqlanadigan narsa, me’moriy obida
e	bir jamiyatda turli madaniyatlar, millatlar, tillar, dinlar va urf-odatlarning birgalikda yashashi va o‘zaro hurmatda bo‘lishi
f	aql-idrokli, ma’naviy
g	madaniy, ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotning yuksak darajasi

2. Savollarga javob bering.

1. Xalqaro ekspert fikriga ko‘ra, O‘zbekiston yana bir bor Markaziy Osiyoning diqqat markazida bo‘lish arafasida turgani sababi nima?
2. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faqatgina muzeymi? Undan yana qanday muassasalar o‘rin olgan?
3. Markaz O‘zbekistonning dunyoga nisbatan qanday ezgu g‘oyalarini ifodalaydi?
4. Matnda markazning maydoni va ko‘rinishi yuzasidan qanday ma’lumotlar berilgan? Ulardan kelib chiqib ayting-chi, siz shunga o‘xshash yana qanday majmualarni bilasiz?

3. O‘ng ustundagi so‘zlarni chap ustundagi so‘zlarga moslab, birikma tuzing. Bu birikmalarning matnda fikrni aniqlashtirishga qo‘shayotgan hissasini ayting.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

kompleks, muloqot, g‘oyasi, me’morchiligi, Renessansi

yangi, madaniyatlararo, tinchliksevarlik, ilmiy, o‘zbek

4. Guruh bo‘lib ishlang va quyidagi vazifalarni bajaring.

1-guruh Viktor Pakning Vatan haqidagi fikrlarini ajratib, ularning hissiy, madaniy, ijtimoiy jihatlarini tahlil qilsin va matndan aniq misollar keltirsin.

2-guruh muallifning o‘zbek jamiyatiga va tiliga bo‘lgan munosabatini o‘rgansin. U qanday qilib o‘zini shu jamiyatning bir qismi sifatida his qilganini tushuntirsin.

3-guruh matnda mehr-oqibat va bag‘rikenglik qadriyatlari qanday ifodalangani, bu qadriyatlar hozirgi jamiyat uchun qanday ahamiyatga egaligi haqida fikr bildirsin.

5. Quyidagi mavzulardan birida 5–7 gapdan iborat kichik matn tuzing.

“Islom sivilizatsiyasi markazi – milliy g‘ururimiz timsoli”

“O‘zbekiston – madaniyatlar chorrahasi”

“Ilm va madaniyat uyg‘unligi – kelajak poydevori”

1.19. Internet manbalari yoki kutubxonalardan Markazda saqlanayotgan Usmon mus’hafi haqida ma’lumot toping va 15–20 gapli axborot matni yozing.

1.20. Audiomatnni tinglang va topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning. 1

1.21. Audiomatndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslang. Diqqat, ta’riflardan bittasi ortiqcha.

mukammal	odamlar, tashkilot yoki korxonalarni urush, tabiiy ofat kabi xavflardan saqlash maqsadida ko‘chirish
g‘urbat	makon, in, uya, boshpana
shafiq	vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan faxriy nom
oshyon	g‘ariblik, kimsasizlik, musofirlik
evakuatsiya	rahmdil, shafqatli, muruvvatli
unvon	sayohat, sayr, biror joyga borish
* * *	to‘liq, yetuk, kamolotga erishgan, kamchiliksiz

1. Karim Saidovning rangi birdan o‘zgarganiga sabab nima? U aynan nimadan qattiq ta’sirlangan edi?
2. Amerikadagi ikki qariyani O‘zbekistonga bog‘lab turgan jihat qaysi?
3. “…O‘zbeklar bizga otalik, onalik qilishdi. Shuning uchun biz o‘zbekmiz…” Ushbu gaplar tug‘ilib o‘sgan yurtga nisbatan qanday munosabatni ifodalaydi?
4. Hazrat Navoiyning ruboiysi hikoya matnini qanchalik ta’sirli qilgan? Adabiyot fanidan olgan bilimlaringiz asosida tushuntiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

1.22. Gaplarni audiomatnni qayta tinglagan holda to‘g‘ri/noto‘g‘riga ajrating va ko‘chiring.

T/r	Gaplar	T/N
1	Karim Saidov osmono‘par binolar haqida so‘zlayotganida ovozida yoqimli pardalar paydo bo‘ldi.	* * *
2	Hikoyachi o‘zbekka o‘xshamagan suhbatdoshlaridan o‘zbek tilini mukammal bilishlari sababini so‘raganida ular Alisher Navoiy ruboiysini o‘qib berishdi.	* * *
3	Oziq-ovqat avval rus bolalarga berilganiga yillar davomida onaning o‘z bolalari e’tiroz bildirib kelishgan.	* * *
4	Harbiy ota o‘g‘lini olib ketgani kelganida o‘zbek ona u bilan xayrlashishga yarim soat muhlat so‘ragan.	* * *
5	Nafaqat ikki qariya, balki ularning bolalari ham o‘zbekcha gaplashishadi.	* * *

1.23. Hikoya matnidan olingan gaplardagi ajratilgan so‘zlarni matnni boyitish jihatiga ko‘ra qavs ichidagi vositalar bilan moslashtiring.

Namuna: Osmono‘par binolar taassurotlarini so‘zlab turib birdan ***rangi o‘zgardi – hayajon/ta’sirlanish.***

1. Qalbida qandaydir ***mamnuniyat tuyg‘usi jo‘sh urdi.***
2. Ovozida ***yoqimli pardalar*** paydo bo‘ldi.
3. … ***O‘zbekiston, qovun-tarvuz, o‘rik, olma, uzum*** haqida, yana o‘zbek tilida mehmonlarni savolga tutishibdi.
4. – Biz esimizni O‘zbekistonda tanidik. ***Shuning uchun o‘zbekmiz.***

(o‘zlik/faxr, obrazli ifoda, millatlararo do‘stlik, ta’sirlanish/hissiyot)

1.24. Erkin mavzuda hikoya matni tuzing. Unda yozma nutqni bezovchi ibora, jonlantirish va badiiy bo‘yoqdor so‘zlardan foydalaning. Hikoya matni talabiga binoan, ishlatadigan fe’lingiz *-ibdi* shaklida bo‘lsin.

1.25. Iboralarning eski va hozirgi adabiy tildagi shakllarini solishtiring.

Eski o‘zbek adabiy tiliga oid barqaror birikmalar	So‘zma-so‘z ma’nosi	Hozirgi adabiy tildagi ifodasi	Ma’noviy ifodasi
ming janim bolsa, senga tartiq	ming jonim bo‘lsa, senga hadya	jonim qurbon, jonim fido	fidoyilik
ko‘ngliga atash tashla(moq)	ko‘ngliga o‘t tashla(moq)	yuragiga o‘t yoq(moq)	muhabbat/alam uyg‘otish
keng alam ko‘ziga ko‘rinmay qal(moq)	keng olam ko‘ziga ko‘rinmay qol(moq)	ko‘ziga dunyo tor ko‘rin(moq)	ilojsizlik holati

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

aqli bashidin ket(moq)	aqli boshidan ket(moq)	aqldan ozmoq, hushini yo‘qot(moq)	ruhiy holat
qanim bag‘ishla	qonimni bag‘ishla	jonini fido qil(moq)	fidoyilik
bashi uzra javr tashi yag‘(moq)	boshiga jabr toshi yog‘(moq)	boshiga balolar yog‘(moq)	musibat

1.26. O‘qituvchingiz yordamida eski o‘zbek tilidagi iboralarning hozirgi shakli va ma’nosini yozing.

Namuna: *oti jahonni tutmoq – dong‘i olamni tutmoq – mashhur bo‘lmoq*

Eski o‘zbek tilidagi shakli	Hozirgi shakli	Ma’nosi
ko‘zdin yiraq tut(moq)	* * *	* * *
yelga ber(moq)	* * *	* * *
dast ber(moq)	* * *	* * *
tanimda jan barincha	* * *	* * *
yuz evur(moq)	* * *	* * *

1.27. 1.26-mashqdagi iboralarning hozirgi adabiy tildagi shaklidan foydalanib gaplar tuzing. Iboralar gap mazmuniga qanday ta’sir etayotgani haqida o‘ylab ko‘ring.

Barqaror birikmalar – fikrni ta’sirchan va obrazli qiluvchi vositalar. Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy va Bobur kabi ijodkorlarning asarlarida iboralarning go‘zal namunalari uchraydi va bu o‘sha davr poetikasining asosiy obrazli vositalaridan hisoblanadi.

Eski o‘zbek tilidagi aksariyat barqaror birikmalar hozirgi o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lsa-da, fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarishga uchragan. Ammo ma’no o‘zagi saqlanib qolgan.

Misol: *aza**b** ichra ya**t**(moq) – aza**b** ichida **yotmoq** – aza**b**da **qolmoq.***

1.28. Yuqoridagi jadvalda berilgan iboralarning eski va hozirgi ifodasida fonetik va morfologik jihatdan qanday o‘zgarishlar bo‘lganini aniqlab, yozing.

Namuna: *bashi uzra javr tashi yag‘(moq) – boshiga balolar yog‘moq. Ba**s**h – bo**s**h (fonetik o‘zgarish), ya**g**‘ – yo**g**‘ (fonetik o‘zgarish), javr tashi – balolar (morfologik o‘zgarish).*

1.29. 1.20-topshiriqdagi audiomatn asosida vatan haqida matn yarating. Unda o‘rgangan barqaror birikmalaringizdan foydalaning.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



II BOB. FAZILATLAR

Qanday fazilatlar insonni bezaydi?
Go‘zal fazilatli insonlarning hayotdagi o‘rni qanday?

FAZILATLAR – INSON KO‘RKI

I
OR

Or bu – o‘ziga nomunosib yoki **ep ko‘rilmagan** ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg‘usi. Bundan tashqari, ba’zida hazar qilish yoki bo‘lmasa, obro‘-e’tibor, faxrlanish ma’nolarini ham bildirishi mumkin.

Oriyat bu – or-nomusga qo‘shimcha tarzda izzat-nafs va qadr tuyg‘usidir. Odatda oriyatli odamlar o‘zlari va oilalarining izzat-nafsini, qadrini yuksak tutadilar va o‘zgalarni ham qadrlay biladilar.

II
ANDISHA

Andisha bu – oqibatni o‘ylab yoki **yuz-xotir qilib** yuritilgan mulohaza, ehtiyotkorlik hissi. Andishali odam deganda oqibatini o‘ylab ish qiladigan, yuz-xotirni biladigan, or-nomusli, sharm-hayoli, iboli insonni tushunamiz. Odatda andishali odam betgachoparlik qilmaydi, farosat bilan ish tutadi.

III
NOMUS

Nomus bu – iffat, bokiralik ma’nolariga qo‘shimcha tarzda kishining o‘z sha’nini saqlash, ulug‘lash va ardoqlash, **xijolat tortish** tuyg‘ularini, oila va ajdodlar **sha’niga dog‘ tushirmaslik** ma’nosini ham ifodalaydi. Odatda nomusli odam ma’naviy qadriyatni moddiy boylikka alishishni o‘ziga **ep ko‘rmaydi**. “Qonun taqiqlay olmagan narsalarni nomus taqiqlay oladi” degan naql ham bor xalqimizda.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

IV
HAMIYAT

Hamiyat bu – o‘zining va o‘ziga yaqin kishilarning or-nomusini boshqalarning tajovuzidan himoya qilishga bo‘lgan intilish, or-nomusni pok saqlash tuyg‘usi. Shunday intilish va tuyg‘uga ega bo‘lgan kishiga hamiyatli odam deyiladi. Bundaylar jamiyatdagi nopokliklarga befarq qarab turolmaydi.

V
SHARM

Sharm bu – nojo‘ya xatti-harakatlardan **o‘zini tiya olish**, uyalish hissi. Hadisi sharif-lardan birida aytilishicha, odam, eng avvalo, o‘zidan uyalishi kerak. Nojo‘ya qilmishi uchun o‘zidan uyalgan odam o‘zgaga ham nojo‘ya xatti-harakatni ravo ko‘rmaydi. Mana shu sharmdir.

VI
HAYO

Hayo bu – o‘zbekcha uyat. “Bir ketgan uyat qaytib kelmaydi”, **“Dilda dog‘ ko‘tarib yurgandan** ko‘ra betning qizargani afzal”, deydi xalqimiz. Lekin hayosiz yoki behayo deganda, uyatsiz ish qilganda xijolat chekmaydigan, adabsiz kimsa tushuniladi. Hayo erkak va ayolga birdek xos bo‘lgan insoniy fazilat bo‘lib, u insonning so‘zida, xatti-harakatida va munosabatida namoyon bo‘ladi. Hayosiz kishi o‘zgadan ham hayoli bo‘lishni talab qilolmaydi, chunki unda bunday talab tuyg‘usi bo‘lmaydi.

Abduqahhor Ibrohimovning “Yorug‘lug‘” kitobidan

2.1. Matndan olingan so‘zlar ma’nosini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yoki internet manbalaridan foydalanib izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

qadr	* * *
oqibat	* * *
betgachoparlik	* * *
ma’naviy qadriyat	* * *
tajovuz	* * *
vatanparvarlik	* * *
faxr	* * *

2.2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan iboralarning ma’nosini lug‘at yordamida aniqlab, daftaringizga yozing. Muallif iboralarni qanday maqsadda qo‘llaganini tushuntiring.

Ibora	Ma’nosi
ep ko‘rilmagan ish	noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq...
yuz-xotir qilmoq	* * *
o‘zini tiya olish	* * *
xijolat chekmoq	* * *
dilida dog‘ ko‘tarib yurmoq	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1 FAZILATLAR

1. Matndagi **“...nomusli odam ma’naviy qadriyatni moddiy boylikka alishishni o‘ziga ep ko‘rmaydi”** degan xulosaga munosabat bildiring.
2. **“Hayosiz kishi o‘zgadan ham hayoli bo‘lishni talab qilolmaydi”** fikriga qo‘shilasizmi? Javobingizni izohlang.
3. Haddan ortiq andisha jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilishi mumkinmi?
4. Sizningcha, ijtimoiy tarmoqlarda “hayo” va “sharm” tushunchalari qanday namoyon bo‘lmoqda?

2.3. Gaplarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, matndan olingan ta’riflar bilan moslashtiring. Berilgan fazilatlarga mos hayotiy misol keltiring.

Matndan olingan ma’lumot	Moslashtirish uchun gap	Hayotiy misol
1. Bu – oqibatni o‘ylab yoki yuzxotir qilib yuritilgan mulohaza, ehtiyotkorlik hissi.	Yoki o‘sha yoqalashishda biron yeri lat yedi-yu, ... kuchlilik qilib indamadimi? (Mirmuhsin)	Salim aka qo‘shnisining uyida bo‘layotgan hasharda ishtirok eta olmadi. Shunday vaziyatda u bu tuyg‘uni his qildi.
2. Bu – o‘zining va o‘ziga yaqin kishilarning or-nomusini boshqalarning tajovuzidan himoya qilishga bo‘lgan intilish, or-nomusni pok saqlash tuyg‘usi.	Qandaydir ... tutdi tilini. (A. Muxtor)	Azim do‘stining yolg‘on gapirayotganini sezsa ham yuziga aytmadi.
3. Bu – or-nomusga qo‘shimcha tarzda izzat-nafs, qadr tuyg‘usi hamdir.	Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ...dir. (Maqol)	* * *
4. Bu – o‘zbekcha uyat.	Shoir qalbi bilan ba’zan ko‘zimni, Qizlarga burishdan qilaman ... (Shukrullo)	* * *
5. Bu – iffat, bokiralik ma’nolariga qo‘shimcha tarzda kishining o‘z sha’nini saqlash, ulug‘lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg‘ularini, oila va ajdodlar sha’niga dog‘ tushirmaslik ma’nosini ham ifodalaydi.	Nodon bilan yurma, ...ingni bukma. (Maqol)	* * *
6. Bu – nojo‘ya xatti-harakatlardan o‘zini tiya olish, uyalish hissi.	Uning oxirgi gapi Mansurning ...iga tegdi. (O‘. Hoshimov)	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2.4. Jadvaldagi gaplarda *or* so‘zi qaysi ma’noda qo‘llanganini toping.

T/r	Badiiy asarlardan olingan gaplar	*Or* so‘zining ma’nolari	
		Uyat, nomus qilish	Obro‘, faxr, sha’n
1	Ro‘zi polvon **origa** Maksim polvon degani chiqdi. (T. Murod)	* * *	* * *
2	Qishloqda birovdan kaltak yeyish azal-azaldan er uchun **or** sanaladi. (N. Norqobilov)	* * *	* * *
3	Sen mening chin yorimsan, Dilda yo‘g‘-u borimsan, Ham nomus-u **orimsan**, Oy borib, omon kelgil. (T. To‘la)	* * *	* * *
4	Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan yoqa bo‘g‘ishishni o‘ziga **or bildi**. (Oybek)	* * *	* * *
5	“Yo‘q, tog‘a, o‘rganib oldim”, – dedi uquvsizligidan **ori kelgan** Qo‘ziboy. (H. Nazir)	* * *	* * *
6	Agar **or etsa,** Layli haqlidir Qaysning jununidin. (A. Qodiriy)	* * *	* * *
7	Nori borning **ori** bor. (Maqol)	* * *	* * *

2.5. Guruhlarga bo‘lining. O‘zbekona muloqotga xos ibora va birikmalarni qo‘llab quyidagi mavzularda kichik sahna ssenariysini yozing. Keyin guruh a’zolari bilan ushbu sahna ko‘rinishini namoyish eting. Bunda o‘zbekona muloqot xususiyatiga alohida e’tibor qarating.

1-guruh: “Mehmondorchilik odobi”.
2-guruh: “Ota-ona va farzand o‘rtasidagi suhbat”.
3-guruh: “Qo‘shnichilik odobi”.

2.6. Mumtoz adabiyotda yor, ma’shuqani ta’riflashda ulardagi ibo, andisha, hayo kabi fazilatlar ulug‘langan. Yorning sharqona odobi tarannum etilgan baytlardan namunalar yozib keling. Baytlardagi notanish so‘zlar ma’nosini lug‘at yordamida izohlang.

1. Muomala odobi haqida o‘z mulohazalaringizni bayon eting.
2. O‘zbek xalqining muomala madaniyati boshqa xalqlarnikidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

2.7. Matnning turini aniqlang va unga sarlavha qo‘ying. Sarlavha qanday vazifani bajarmoqda?

Muomala odobi – inson ko‘rki, boshqalarga bo‘lgan samimiy mehr-muruvvat mezoni. Bu mezonga amal qilish odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Xushmuomalalik, xushfe’llik va mehr-muruvvatli bo‘lish barchamiz uchun nihoyatda

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

zarur. Axloq-odob haqidagi hadislardan birida “Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling, odamlarga muomalangiz chiroyli bo‘lsin”, deyilib, odamlar xushxulq, samimiy, to‘g‘ri bo‘lishga da’vat etiladi.

Tamagirlik, ochko‘zlik bilan mol-dunyo to‘plash ajdodlarimiz qoralagan illatdir. Hadislarda targ‘ib etiladigan odob va axloq, o‘z nafsini tiyish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kabi xislatlar har bir bola ongiga qancha tez kirib borsa, ma’naviyatimiz shuncha tez yuksaladi, hayotimizdagi ijobiy o‘zgarishlar ham ko‘zga tezroq tashlana boshlaydi.

O‘zbek xalqi muloqot madaniyatida ham boshqa millatlar kabi maqtov hamda maqtovga oid so‘z va iboralar ko‘p uchraydi. Ularni o‘rganish va tahlil qilish muloqotning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Sarlavha (lavha yoki matn boshi) – gazeta va jurnallar, risola va kitoblar uchun nom (ism) maqomidagi muhim bir unsurdir. U matn uchun shunchaki shartli ramz – belgi emas, matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan aloqador bo‘lgan muhim tarkibiy qismdir. Ma’lum materialning o‘qishli bo‘lishida sarlavhaning ahamiyati katta. Odatda u maqolaning mazmunidan kelib chiqib tanlanadi. Sarlavha atash, xabar berish, tashviq va tavsiya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Maqolaga mazmunli, ixcham sarlavha tanlangani ma’qul. Masalan, “So‘z mas’uliyati”, “Yo‘l bo‘lsin, yo‘lovchi?”, “Hemingueyning so‘nggi yozi” (“Hurriyat”). Aksincha, mazmunga uncha mos bo‘lmagan, uzundan uzoq jumlalardan iborat sarlavha o‘quvchini zeriktiradi.

2.8. Quyidagi matn qaysi uslubda yozilganini aniqlab, unga mos sarlavha tanlang. Sarlavha qaysi mezon talablariga mos kelganini jadvalga belgilang.

T/r	Sarlavha mezonlari	Mos	Mos emas
1	Ixcham va jarangdor bo‘lishi	* * *	* * *
2	Matn mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanishi	* * *	* * *
3	Diqqatni tortishi	* * *	* * *
4	Matn maqsadiga mos bo‘lishi	* * *	* * *

Ota-onaning bir-birlariga “adajonisi” yoki “oyijonisi” deb murojaat etishlari, “rahmat”, “marhamat”, biror joyga ketilayotganda “Yaxshi borib keling” yoki “Bexatar borib keling”, “Yaxshi keldingizmi?” kabi jumlalarni ishlatishlari oila a’zolarining barchasi o‘rtasidagi muomalani isloh qiladi, farzandlarning ota-onaga nisbatan hurmatini, mehr-muhabbatini oshiradi, ota-onaning ular uchun namuna bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ota-ona munosabatlaridagi sabrlilik, ularning oilaviy muammolarni shoshilmay, maslahat bilan birgalikda hal etish, bir-biriga mehribonlik, farzandlariga bir xilda muomalada bo‘lish, har ikkala tomonning qarindosh-urug‘lariga, qo‘ni-qo‘shnilarga hurmat bilan qarash, bir

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

so‘zlilik, haqiqatni gapirish kabi fazilatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, ichish, chekish, yolg‘onchilik, maishiy buzuqlik, dimog‘dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan xoli bo‘lishi oilada muomala odobining sofligini ta’minlovchi xususiyatlardir.

2.9. Maqolalar mazmuniga mos sarlavhalarni belgilang. Javobingizni izohlang.

Gazetadagi maqola mazmuni	Sarlavha
1. Ma’lum bir tuman yoki shaharda yangi korxona, muassasaning ishga tushgani haqida xabar beradigan maqola	A. “Ilmga intilish – ezgu ish” (“Ma’rifat” gazetasidan)
2. Tashviqot qilish, reklamaga yo‘naltirilgan maqola	B. “Sotka” – saraton sababi” (“Darakchi” gazetasidan)
3. Shov-shuvli voqealar aks etgan maqola	D. “Chimboyda yangi korxona” (“Hurriyat” gazetasidan)
4. Ma’lum bir soha, tarmoqqa bog‘liq maqola	E. “Tanishing, bizning lizing!” (“Qishloq hayoti” gazetasidan)

2.10. Voqealar izohi asosida badiiy asarning nomini toping. Nega bu nomlar tanlangani haqida mulohaza yuriting. Asar nomi va sarlavha bir xil tushunchami? Fikringizni izohlang.

T/r	Asar voqealari	Asar nomi
1	Ushbu asar qahramoni Vatan oldidagi burchi, farzandlik mas’uliyati va sevgi borasidagi ahd-paymonlaridan voz kechadi, hatto onasining dafn marosimini kuzatar ekan, endi ovqatsiz qolishidan o‘kinadi.	A. “Yulduzli tunlar”
2	Ushbu asarda o‘zligiga xiyonat qilgan kimsa hamda sadoqatli it obrazlari zidlantirib tasvirlangan.	B. “Ufq”
3	Ushbu asarda og‘ir xasta farzandi – shahzodaning sog‘ayishi uchun uning boshidan uch bor aylanib, “Ko‘hinur” olmosidan-da azizroq bo‘lgan o‘z jonini nisor etmoqchi bo‘lgan podshoh haqidagi voqea keltirilgan.	D. “Qorako‘z Majnun”
4	Ushbu asar qahramoni harbiy xizmatni o‘tagani ketib, boshqa dindagi qizga oshiq bo‘lib qoladi va unga uylanish uchun o‘z dinidan kechadi, bora-bora ona yurti, tili va tug‘ishganlarini yodidan chiqaradi.	E. “Asrga tatigulik kun”
5	Ushbu asarda farzandining tarbiyasiga e’tibor bermagan, o‘z boyligiga ishongan, domla va ziyolining ilm olish to‘g‘risidagi fikrlariga quloq solmagan va natijada taqdiri ayanchli yakun topgan adabiy qahramon uchraydi.	F. “Qoplon”
6	Ushbu asarda asrlarga teng voqealar bir kunda sodir bo‘lishi tasvirlangan.	G. “Padarkush”

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3 FAZILATLAR

2.11. Maqolalar mazmuniga mos sarlavha tanlang. Javobingizni izohlang.

Gazetadagi maqolalar mazmuni	Sarlavha
1. Ijtimoiy hayotdagi biror yangilik, voqea aks etgan maqola	A. “Chimboyda yangi korxona” (“Hurriyat” gazetasidan)
2. Tashviqot qilish, reklamaga yo‘naltirilgan maqola	* * *
3. Shov-shuvli voqealar aks etgan maqola	* * *
4. Ma’lum bir soha, tarmoqqa bog‘liq maqola	* * *
5. Tanqidiy (kamchiliklar aks ettirilgan) maqola	* * *
6. Sog‘lom turmush tarzi haqida ilmiy ma’lumotlarni ommaga yetkazuvchi maqola	* * *
7. Mashhur shaxs yoki oddiy inson hayoti haqida maqola	* * *

1. Halollik nima?
2. “Halollik” tushunchasini tor va keng ma’noda izohlang.



HALOLLIK YO‘LI

2012-yilning dekabr oyida Ispaniyaning Navarra viloyatida **yengil atletika** bo‘yicha muhim musobaqa bo‘lib o‘tdi. Yutuqqa katta mukofot qo‘yilgan, poygada dunyoning yetakchi **sport ustalari** qatnashardi. Ular orasida Londonda o‘tgan Olimpiada o‘yinlarining 3000 metrga to‘siqlar osha yugurish turi bo‘yicha bronza medali sohibi – keniyalik Abul Mutoi ham bor edi. U bu galgi poygada ham yetakchi bo‘ldi, hammadan o‘zib ketdi. Biroq marraga o‘n metrcha qolganda to‘xtab qoldi. Keniyalik atlet **marra chizig‘ini** kesib

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

o‘tdim degan yanglish xulosaga kelgan edi. Mutoi tomoshabinlarga qarab qarsak chalar, yutug‘idan xursand edi. Odamlar unga ispanchalab bir nimalar der, o‘n metr nariga ishora qilar, biroq u hech narsani tushunmasdi.

Ikkinchi bo‘lib kelgan ispaniyalik poygachi Fernandes Anayya uni bemalol ortda qoldirib o‘tishi va sovrindor bo‘lishi mumkin edi. Biroq u raqibining xatosidan foydalanib qolish o‘rniga yelkasidan turtib, uni olg‘a yurishga chorladi. O‘n metr naridagi marrani qo‘li bilan ko‘rsatib, tushuntirdi. Ispaniyalik sportchi shundoq **qo‘lga kiray deb turgan g‘oliblik**dan voz kechdi, keniyalik raqibini marragacha olib keldi, undan keyingina chiziqni bosib o‘tdi.

Musobaqadan so‘ng Fernandes Anayyani **savolga tutishdi**:

– Nahotki g‘olib bo‘lishni istamadingiz?

5000 metrga yugurish bo‘yicha Ispaniya chempioni bo‘lgan Anayya shunday javob berdi:

(1) – Yo‘q, men g‘oliblikni juda xohlagan edim. Ammo sovringa qo‘shib Ispaniya termasi tarkibida Yevropa chempionatida qatnashish imkonini berganlarida ham, shu yo‘lni tutgan bo‘lardim. Men g‘alabaga loyiq darajada yugura olmadim. Agar raqibim xato qilmaganida, unga yeta olmasdim. Men uchun sovrindor bo‘lishdan ko‘ra sha’nimni saqlab qolish afzal. Odamlar juda ko‘p hollarda **xato yo‘lni** tanlaydi, **axloqi tuban** ekanini ko‘rsatib qo‘yadi. Men bunday **yo‘l tutmaganimdan, halollik yo‘lini** tanlaganimdan mamnunman.

Orif Tolib

1. Matn sarlavhasi qanday vazifani bajarmoqda?
2. Fernandesning qarori sport etikasi nuqtayi nazaridan qanday baholanadi?
3. Agar mukofot million dollar bo‘lganida ham uning qarori o‘zgarmas edi deb o‘ylaysizmi? Nega?
4. Bu voqeada haqiqiy g‘olib kim? Nima uchun?
5. Sun’iy intellekt, texnologiya davrida halollik qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi? Jamiyatda uchraydigan halollikka zid holatlar haqida gapirib bering.

2.12. Matnda qo‘llangan quyidagi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolaridagi farqni izohlang.

So‘zlar	Matndan tashqaridagi ma’nosi (o‘z ma’no)	Matndagi ma’nosi (ko‘chma ma’no)
xato	Hisoblash, yozish, o‘qish, so‘zlash va shu kabilarda adashish, yanglishish. Masalan, **imloviy xato.**	**Xato yo‘l** (umuman turmush, ishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik, nuqson)
yetakchi	* * *	* * *
raqib	* * *	* * *
sovrindor	* * *	* * *
sha’n	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3 FAZILATLAR

2.13. Matndagi qizil rang bilan ajratilgan birikma, ibora va tasviriy ifodalarni so‘zlar bilan almashtiring. Masalan, *sport ustalari – sportchilar.* Matn mazmunidagi o‘zgarishlarni izohlang.

2.14. Matn axborot matni talablariga mosmi? Jadvaldagi mezonlar asosida javobingizni izohlang.

T/r	Axborot matni xususiyatlari	Mos	Mos emas
1	Muayyan voqea haqida ma’lumot berilgan.	* * *	* * *
2	Matnda voqealar izchillik bilan bayon etilgan.	* * *	* * *
3	Muallif fikrini isbotlash uchun dalil va faktlardan foydalangan.	* * *	* * *

Axborot matni muayyan voqea, hodisa yoki holat haqida xolis, aniq va tizimli ma’lumot berishga qaratilgan matn hisoblanadi. Axborot matnida asosan rasmiy, ilmiy va publitsistik uslub qo‘llanadi.

Axborot matnida bog‘lovchilar gaplarni mantiqan bog‘lash, izchillik yaratishga xizmat qiladi. Ular gaplar o‘rtasidagi munosabatni aniq va ravshan ko‘rsatadi, mantiqiy bog‘lanish (va, hamda), sabab-natija (chunki), zidlik (biroq), izohlash-aniqlash (ya’ni) kabi munosabatlarni ifodalaydi. Masalan: *Reja bajarildi, **biroq** ayrim muammolar bartaraf etilmadi.*

2.15. Matndan olingan gaplarni ketma-ketlikda moslab davom ettiring. Bog‘lovchilar qanday uslubiy vazifa bajarayotganini tushuntiring.

1. Sovrindor bo‘lishi mumkin edi. **Biroq …**	a) … raqibining xatosidan foydalanib qolish o‘rniga yelkasidan turtib, uni olg‘a yurishga chorladi. b) … u hech narsani tushunmasdi. d) … marraga o‘n metrcha qolganda to‘xtab qoldi.
2. **Agar** raqib(im) xato qilmaganida, …	a) … unga yeta olmasdim. b) … shu yo‘lni tutgan bo‘lardim. d) … sovrindor bo‘lishdan ko‘ra sha’nimni saqlab qolish afzal.
3. Yo‘q, men g‘oliblikni juda xohlagan edim. **Ammo** …	a) … sovringa qo‘shib Ispaniya termasi tarkibida Yevropa chempionatida qatnashish imkonini berganlarida ham, shu yo‘lni tutgan bo‘lardim. b) … odamlar juda ko‘p hollarda xato yo‘lni tanlaydi, axloqi tuban ekanini ko‘rsatib qo‘yadi. d) … men bunday yo‘l tutmaganimdan, halollik yo‘lini tanlaganimdan mamnunman.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bog‘lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farq qiladi. Masalan, oddiy so‘zlashuv nutqida biriktiruv bog‘lovchisi sifatida **bilan** vazifadosh bog‘lovchisi ko‘proq qo‘llansa, yozma nutqqa (publitsistik va badiiy uslub) **va, hamda, ham** bog‘lovchilari xos. **Chunki, go‘yo, garchi, ya’ni, yoxud, yoinki** kabi bog‘lovchilar ham asosan yozma nutqda ishlatiladi. **Xuddi** bog‘lovchisi uslubiy betaraf hisoblanadi.

2.16. Matn asosida test topshiriqlarini bajaring.

1. Matndagi asosiy axborot nimaga qaratilgan?
A. Ispaniya sportchilari muvaffaqiyati haqida axborot berish
B. Sport musobaqasidagi adolatli qarorni namoyish etish
D. Olimpiya tarixi haqida ma’lumot yetkazish
E. Keniyalik sportchi g‘alabasini sharaflash

2. Matnda dialog qanday maqsadda qo‘llangan?
A. Obraz yaratish
B. Axborotni jonli va ishonchli yetkazish
D. Badiiylik yaratish
E. Emotsionallikni kuchaytirish

3. Matndagi axborot va tarbiyaviy g‘oyaning uyg‘unligi qaysi javobda berilgan?
A. Matnda faqat faktlar bor
B. Matnda faqat badiiy tasvir bor
D. Faktlar orqali axloqiy xulosa chiqarilgan
E. Mazmun dialog orqali ochib berilgan

4. Matndagi Fernandes Anayyaga ta’rif bering.
A. O‘z g‘alabasi uchun kurashishdan qo‘rqadigan inson
B. Sportni sevuvchi, bundan faxrlanuvchi kishi
D. O‘z tuyg‘ularini ochiq ifodalashdan cho‘chimaydigan inson
E. Shaxsiy sha’nini g‘alabadan ustun qo‘yuvchi shaxs

2.17. “Yaxshi fazilatlar ulug‘lik sari boshlar” mavzusida 100–150 ta so‘zdan iborat kichik axborot matni yozing. Axborot matniga xos xususiyatlarni jadval asosida aniqlang. Unga yana qanday mos sarlavha qo‘yish mumkinligini o‘ylab ko‘ring.

T/r	Axborot matni xususiyatlari	Mos	Mos emas
1	Aniqlik va xolislik (fikrlarning aniq, ravshan, neytral berilishi, hissiy munosabat, baholash, muallif shaxsiy fikri bo‘lmasligi)	* * *	* * *
2	Qisqalik va lo‘ndalik (ortiqcha iboralar, badiiyat, metafora, obrazlilik kam ishlatilishi)	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3	Neytral leksika (rasmiy adabiy tildan foydalanish, ommaga tushunarli so‘zlarni qo‘llash)	* * *	* * *
4	Gap bo‘laklari tartibi o‘zgarmasligi	* * *	* * *
5	Faktlarga tayanish (raqam, sana, manba keltirish, tekshirilgan ma’lumotlardangina foydalanish)	* * *	* * *
6	Xabar shaklida bayon qilish (“dedi”, “ta’kidladi”, “ma’lum qildi” tarzidagi fe’llarning ishlatilishi)	* * *	* * *
7	Obyektiv yondashuv (biror tomonni himoya qilmaslik, mafkuraviy, siyosiy targ‘ibot so‘zlaridan voz kechish)	* * *	* * *

1. Charxpalakni ko‘rganmisiz? Uning qanday ishlashini tasvirlab bera olasizmi?
2. Charxpalak qanday vazifani bajaradi?



CHARXPALAK

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim… yog‘och gardishi ko‘hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan… birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek… charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi… tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi… charxpalak

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

ham bundan ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi… g‘iyqillaydi… Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim… So‘ng… bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman.

Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?.. Bilmadim… Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi…

O‘tkir Hoshimov

1. Muallif nega charxpalakni ustozga qiyoslagan?
2. Siz charxpalakni nimaga o‘xshatasiz?
3. Matndagi “Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?..” tarzida muallifni o‘ylantirgan savolga siz qanday javob bergan bo‘lardingiz?
4. Ustozlarning bilim berish yo‘lidagi zahmatlarini yana nimaga qiyoslash mumkin?
5. Ustoz haqidagi maqollar, hikmatlardan iqtibos keltiring.

Nofaol so‘zlar hozirgi kun nutqida kam ishlatiladigan, ma’lum ijtimoiy guruh, davr yoki hududga xos bo‘lgan so‘zlardir. Ular ko‘pincha so‘zlashuv va badiiy uslubga xos bo‘lib, uslubiy-estetik maqsadga xizmat qiladi. Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash (shevaga xos so‘zlar: ***o‘jak, takya***), madaniyati, xulq-atvorini aks ettirish (noadabiy qatlamdagi jargon, argo, varvarizm, vulgar so‘zlar: ***onhazratlari, koroche, danap***), tarixiy kolorit yaratish (eskirgan – tarixiy va arxaik so‘zlar: ***hudaychi, dudoq***), ilmiy-texnik jarayon, muayyan soha bilan bog‘liq shaxs xususiyatini ifodalash (ilmiy va kasbiy atamalar: ***sinus, fonendoskop***), yangi so‘zlarning (***smartfon***) nutqda qo‘llanish uslubiyatini ko‘rsatish kabi maqsadlarda ishlatiladi.

2.18. Matndan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ba’zilarining bugungi nutqimizda faol ishlatilmasligi sababini tushuntiring.

So‘zlar	Izohi
charxpalak	* * *
gardish	* * *
parrak	* * *
paqircha	* * *
ko‘hna	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2.19. O‘qing. Nofaol so‘zlarni topib, berilgan jadvalga yozing. Ularning qo‘llanish maqsadini tushuntiring.

1. ...Direktorimiz saharlab na’ra tortadi:
   – Podyom!
   – Stroysya!
   Men bo‘ysira bo‘laman. O‘zimni bo‘ysiraga to‘g‘rilayman.
   – Smirno!
   Men tayoq bo‘lib qotaman.
   – O‘rtoqlar, bir kunlik norma sakson kilo! – deydi direktorimiz.
   O‘ninchi sinf e’tiroz bildiradi:
   – Kolxozchilarning bir kunlik normasi oltmish kilo-ku, domla?
   – Yordamchilar kolxoz hisobidan ovqat yeydi. Qo‘shimcha yigirma kilo ana shu ovqat uchun ushlab qolinadi. Qani, hamma paxta fronti sari, olg‘a! (T. Murod)
2. Ilk mahalliy elektromobillar ommaviy ishlab chiqarila boshlandi.
3. – San, o‘g‘lim, xapa bo‘lma! – dedi Klava xola sof toshkentcha shevada. – Ichvoganidan keyin ko‘ngliga kelgan qiliqni qilgan-de anu cho‘chqa! Esi bo‘sa, mundoq pastga tushmiydimi, o‘tirmiydimi odamga o‘xshab... (O‘. Hoshimov)
4. Yangi qonun muhokamasida kiberxavflardan himoya masalasi turibdi.
5. Udaychi xong‘a arz qildi:
   – Onhazratimning davlatlariga xudo tavfiq-u adolat bersin... Qullaridan biri ikki kalima arzim bor, deydir! (A. Qodiriy)
6. Safar aka mokiga yangi naycha joylab, yana ishga urindi... Eski do‘ppidagi naychaga solingan iplarni (arqoqni) olib dastgohga tushdi, tig‘ va gulani oraga surib, mokini rostladi. (A. Qodiriy)
7. Yangi qurilayotgan mahallada aqlli uy tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda.

T/r	Nofaol so‘zlar	Ajratilgan so‘zlar
1	Eskirgan so‘z	* * *
2	Neologizm	* * *
3	Atama	* * *
4	Noadabiy qatlamdagi so‘z	* * *
5	Shevaga oid so‘z	* * *

2.20. Qit’alarning mazmunini tushuntiring. Ulardagi eskirgan so‘zlarni topib, izohini daftaringizga yozing.

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Nazar qilki, o‘q tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo‘s.
Necha tojvardurur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xuro‘s. (Alisher Navoiy)

a) Qit’ada qaysi fazilat ulug‘langan? Qanday illat qoralangan?
b) Qit’ada ulug‘langan qadriyat bugungi kunda ham dolzarbmi? Fikringizni asoslang. Muallif ulug‘lagan fazilatga muqobil qarash bo‘lishi mumkinmi?

Og‘zingga kirgan takallum rishtasin chekma uzun
Kim, bu ishtin sarnigunluq yuzlanib, nuqson kelur.
Ko‘rki, chun og‘zig‘a kirgan rishtasiga berdi tul,
Ankabut, ul rishtasin har dam nigunsor osilur. (Alisher Navoiy)

a) Qit’ada qaysi illat qoralangan?
b) Ankabut qanday kishilar timsoli sifatida tasvirlangan?

2.21. Atamalar komissiyasi xorijiy atamalarni o‘zbekchalashtirish bo‘yicha yangi takliflar tayyorlamoqda. Quyida berilgan atamalarning yangi milliy muqobillarini toping va ma’nosini izohlang. O‘zgarishlarga munosabatingizni bildiring.

Xorijiy atamalar: *аномал, антракт, банкет, бонус, брекет, бренд, вертолёт, вебинар, дайжест, ирригация, лимит, миксер, палатка, раковина, пеня, хостел, хештег.*

Yangi milliy muqobillari: *kechikma puli, chodir, qorgich, qo‘noqxona, tikuchar, xosnom, siylama, ziyofat, tanaffus, kalitso‘z, me’yoriy chegara, sug‘orish, qisqa xabar.*

Xorijiy atamalar	Ma’nosi	Yangi milliy muqobillari
аномал	me’yordan chetga chiqish	noodatiy
раковина	uy-ro‘zg‘or buyumi	chanoq
брекет	stomatologiyada qiyshiq tishlarni to‘g‘rilashda foydalaniladigan moslama	tishsim
вебинар	tarmoqda o‘tkaziladigan seminar	vebmashg‘ulot
* * *	* * *	* * *
* * *	* * *	* * *

2.22. “Odobni beodobdan o‘rgan” mavzusida videomaterial uchun matn tayyorlang. Unda nofaol lug‘atga doir so‘zlar (varvarizm, jargon, shevaga xos so‘zlar va sh.k.)dan foydalaning. Matningizni sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5 FAZILATLAR

1. Saxovat va himmat nima?
2. Muloyim tabiatli insonlar bilan muloqotda bo‘lganmisiz? Ularning muomalasidan ko‘nglingiz qanchalik ravshan tortgan?
3. Ko‘pchilik nega jahli tez, urishqoq odamlardan qochadi?
4. Ijtimoiy tarmoqlarda saxovat qilish ko‘p uchraydimi yoki saxovatni ko‘z-ko‘z qilishmi? Misol keltiring.

SAXOVAT VA HIMMAT BOBIDA

Saxovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to‘lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog‘insiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushk-anbarga o‘xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o‘tin ham bir; yog‘insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo‘lmagan sadafning farqi yo‘q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog‘ining farqi yo‘q... Saxiy – bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun, mashoq tera-di. Himmat ahlining ixtisosi saxovatdir; bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir; behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqorning maskani – shohning bilagidir; kalxatning joyi – o‘limtikning sas-siq badani va so‘ngagidir.

Arslonning maqsadi – ov qilib, och yirtqichlarni to‘yg‘azmoq; sichqonning harakati – don o‘g‘irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmas; him-matsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas. Chinor daraxti bo‘sh qo‘lli bo‘lsa-da, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi; yer tagida yashirinib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi. Himmatli kishilarning darajasi balanddir, ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakroqdir.

Isrof qilish – saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odam saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona dey-dilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berishlik ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni axiy do‘st deb bil.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

HILM TO‘G‘RISIDA

Hilm (muloyim tabiatlilik) inson vujudining xushmanzara mevali bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillilikni hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi.

Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U – yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zlari obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, ularning qoshida uyatsiz va e’tiborsiz bo‘ladi.

Bu davr bog‘ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go‘yo og‘ir tabiatli va yomon fe’lli deb kamsitiladilar. Ularning o‘zlari esa quyundek tuproqni havoga to‘zitadilar va yengiltabiatlari bilan boshlarini go‘yo ko‘kka yetkazadilar. Tog‘ jussasini oyoqosti qilmoq – odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq – bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o‘tdek otashdonni qizdirishdan o‘zga ishni bilmaydi. Yel garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog‘ qoyalari kamariga qanday ta’sir qila oladi? O‘t tog‘ etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

Yel agar ko‘kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog‘ agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa shoh tojiga qadagudek cho‘g‘ kabi qizil la’l bor.

Bayt:

Og‘irliq vaznidindur seldin g‘amsiz Hiriy tog‘i,
Yengillik fartidin barbod erur qomg‘oq yafrog‘i.

(Hiri tog‘i og‘ir bo‘lgani uchun uni sel bossa ham tashvishi yo‘q, to‘zg‘oq o‘simligining yaprog‘i yengil bo‘lgani uchun shamolda barbod bo‘ladi).

Alisher Navoiyning
“Mahbub ul-qulub” asaridan

1. Matndagi “Himmatsiz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas” jumlasini izohlang.
2. Matnda chinor daraxti va yer tagidagi xazina qanday tavsiflangan? Bu o‘xshatish qay darajada to‘g‘ri?
3. Matnda nega “Yel agar ko‘kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog‘ agar tuproqqa botsa ham salobatlidir” degan xulosaga kelingan?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5 FAZILATLAR

4. Matnda “Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zlari obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, ularning qoshida uyatsiz va e’tiborsiz bo‘ladi” fikri keltirilgan. Alisher Navoiyning bu fikriga munosabatingizni bildiring. Hayotingizda shunday holatlarga duch kelganmisiz?
5. Muallifning ushbu matnni yaratishdan ko‘zlagan maqsadi nima?

2.23. Matndan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nosini taxmin qiling, so‘ng lug‘at yordamida izohini yozing.

So‘zlar	Taxmin	Lug‘atda
himmat ahli	* * *	* * *
shukuh	* * *	* * *
mushk-anbar	* * *	* * *
so‘ngak	* * *	* * *
la’l	* * *	* * *
salobat	* * *	* * *
qomg‘oq	* * *	* * *

2.24. Matnda Alisher Navoiy saxovatli va saxovatsiz insonlarni zidlab nimalarga qiyoslagan? Jadvaldagi o‘xshatishlarni davom ettiring.

Saxovatli odam	Saxovatsiz odam
hosildor daraxt → meva beradi	mevasiz daraxt → o‘tin
mavj urib turgan dengiz → tubida sadaf bor	gavhari yo‘q sadaf → qurib qolgan toshbaqa chanog‘i
* * *	yog‘insiz bahor buluti → tutun
* * *	* * *

2.25. Matn mazmuni asosida hilm (muloyim tabiatlilik) va himmatlilik izohiga mos javoblarni aniqlang.

1. Muloyim tabiatli (hilmli) kishi	a) inson vujudining xushmanzara mevali bog‘idir;
	b) odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir;
	d) bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir;
	e) axloqli odamning qimmatbaho libosi;

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

	f) kiyim turlarining eng chidamli matosi;
	g) qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmas.
2. Himmatli kishi	a) ulardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi;
	b) hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari;
	d) insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshi;
	e) u tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetadi.

2.26. Matnda Alisher Navoiy saxiylik hisoblanmaydigan uch holat haqida yozgan. Ularni hayotiy misollar bilan asoslang. Fikrlaringizni daftarga yozing.

Saxiylik emas	Nega?	Hayotiy misol
isrof qilmoq		
maqtanish uchun mol bermoq		
tilagandan so‘ng bermoq		

2.27. Matnda isrofgar kishilar halol molni kuydirgan devona (aqldan begona) odamlarga qiyoslangan. Bugungi hayotda ham isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilayotgan ayrim holatlarni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, moddiy ehtiyojmand kishilarga yordam qo‘lini cho‘zayotgan, xayrli ishlarni amalga oshirayotgan saxovatpesha yurtdoshlarimiz ham bor. Sizningcha, hozirda haqiqiy saxovatli inson deb kimlarni aytishimiz mumkin? Jadvalga yuqoridagi ikki toifa kishilar qilayotgan ishlarni yozing.

Saxovatli insonlar	Isrofgar kishilar
kambag‘al oilalarga moddiy yordam berish	dabdabali to‘ylar qilish
* * *	* * *
* * *	* * *

2.28. Matn mazmunidan kelib chiqib, muloyim tabiatli insonlarning odamlar o‘rtasidagi hurmati va, aksincha, yengiltabiat kishilarning qadrsizligi sabablari izohlangan muhokama esse yozib keling.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

1. Tarbiyali inson, sizningcha, qanday fazilatlarga ega bo‘ladi?
2. Jamiyatda tarbiyali insonning o‘rni qanday deb o‘ylaysiz?

TARBIYALI ODAMNING SAKKIZ FAZILATI

Jahon adabiyotining **atoqli** adibi Anton Chexov akasiga yuborgan bir maktubida quyidagicha yozadi:

“**Tarbiyali** odamlar, fikrimcha, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Ular insonni hurmat qiladi, shu sababli hamisha **iltifotli,** muloyim, xushmuomala, **murosali…** bo‘ladi. Ular bolg‘acha yoki yo‘qolgan o‘chirg‘ich sababli janjal ko‘tarmaydi; birov bilan yashab, keyin buni ta’na qilmaydi, ketayotib: “Siz bilan yashab bo‘lmaydi!” demaydi. Ular shovqin, sovuq, ko‘p qovurib yuborilgan go‘sht, ovqatning tuzsizligi, tuzi **o‘tkirligi** yoki uyida mehmonlar **borligi** tufayli g‘azabga minmaydi…

2. Ular faqatgina kambag‘allar yoki **qarovsiz** mushuklarga achinmaydi. Ular oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalar uchun ham qayg‘uradi…

3. Ular birovning mulkini hurmat qiladi, shu bois qarzlarini qaytaradi.

4. Ularning yuragi toza, yolg‘on gapirishdan qattiq qo‘rqadilar. **Hazillashib** ham yolg‘on gapirishmaydi. Yolg‘on **tinglovchi**ga haqorat bo‘lib tuyuladi va uning nazarida **so‘zlovchi**ni qadrsizlantiradi. Ular o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydi, ko‘chada ham o‘zini yaxshi tutadi, do‘stlarining ko‘ziga kul sochmaydi, ularni yomonlamaydi. Ular **vaysaqi** bo‘lmaydi, so‘ralmagan paytda hamma narsani ochiq-oydin gapiravermaydi… Begona quloqlar hurmati uchun ko‘pincha sukut saqlaydi.

5. Boshqalarning rahmini keltirish yoki yordam olish uchun o‘zlarini yerga urmaydilar. O‘zining **ko‘ngilxushligi** uchun birovlarning tuyg‘ularini o‘yin qilmaydilar. Hech qachon “Meni tushunishmayapti!” demaydilar.

6. Ular mayda-chuyda havaslarga berilmaydi. Mashhurlar bilan tanishish, salonda duch kelgan odamni **hayratlantirish,** qovoqxonalarda dong taratish bilan mashg‘ul bo‘lmaydilar.

7. Iste’dodlari bo‘lsa, uni **hurmatlaydilar**. Uni deb huzur-halovat, aysh-ishrat, ichkilik va maishatlardan voz kechadilar.

8. Ular o‘zlarini tarbiyalab boradi. Kiyimini alishtirmay uxlamaydi, uyini taxtakanaga to‘ldirmaydi, **yoqimsiz** havodan nafas olmaydi, isqirt polda yurmaydi, “kerasinka”dan ovqatlanmaydi…

Va hokazo. Xullas, tarbiyalanganlar shunday bo‘ladi…”

1. Tarbiyali odamning matnda keltirilgan sakkiz fazilatiga yana qanday xislatlarni qo‘sha olasiz?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

2. Matndagi “Yolg‘on tinglovchiga haqorat bo‘lib tuyuladi” fikriga munosabatingizni bildiring.
3. Tarbiyali insonning “birovning tuyg‘ularini o‘yin qilmasligi” deganda nimani tushunasiz?
4. “Ular o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydi, ko‘chada ham o‘zini yaxshi tutadi, do‘stlarining ko‘ziga kul sochmaydi” fikrini hozirgi yoshlarning tutumlari misolida izohlay olasizmi?

2.29. Matndagi fikrni dalillashga xizmat qiladigan bandlarni aniqlang (+, –).

1	Insonlarni hurmat qiladi.	+
2	Rahmdil bo‘ladi.	* * *
3	So‘ralmagan paytda ham barchasini ochiq-oydin aytaveradi.	* * *
4	Birovning mulkini hurmat qiladi.	* * *
5	Birov bilan yashab, ketayotganida aslida u bilan yashab bo‘lmasligini ayta oladi.	* * *
6	Kambag‘allar va qarovsiz mushuklargagina achinadi.	* * *
7	Yolg‘on gapirmaydi.	* * *
8	O‘zligini yo‘qotmaydi.	* * *
9	Faqatgina hazillashib yolg‘on gapiradi.	* * *
10	Mashhurlar bilan tanishish, odamlarni hayratlantirish bilan mashg‘ul bo‘ladi.	* * *

2.30. Matnda muallif foydalangan iboralarni daftaringizga yozing va ma’nosini izohlang.

g‘azabga minmoq | yuragi toza | o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq | o‘zini yaxshi tutmoq | ko‘ziga kul sochmoq | sukut saqlamoq | o‘zini yerga urmoq | dong taratmoq | birovning tuyg‘usini o‘yin qilmoq

Aniq va ta’sirli nutq tuzish uchun qo‘shimchalar uslubga xoslanishi, ma’no nozikligini namoyon etishi mumkin. Uslublarda qo‘shimchalar emotsional va funksional (uslubiy xoslanish) bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Masalan, ko‘plik qo‘shimchasi (ilmiy, qisman rasmiy uslubdan tashqari) **hurmat** *(Dadamlar keldilar)*, **kinoya-piching** *(O‘zlariyam kelibdilar-da)*, **kuchaytirish, ta’kidlash** *(Boshlarim og‘rib ketdi)*, **taxminlash** *(Kechqurunlari bo‘sh bo‘laman)*, **umumlashtirish** *(Azizalarnikiga ketyapman)*, **ta’sirchanlikni oshirish** *(Ko‘z yoshlarini artdi)* kabi turli uslubiy ma’nolarda qo‘llanadi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2.31. Matndan olingan qaysi gapda ko‘plik qo‘shimchasi uslubiy, ya’ni ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajarmoqda?

A. Ko‘chada ham o‘zini yaxshi tutadi, do‘stlarining ko‘ziga kul sochmaydi.
B. Begona quloqlar hurmati uchun ko‘pincha sukut saqlaydi.
D. Ular o‘zlarini tarbiyalab boradi.
E. Qovoqxonalarda dong taratish bilan mashg‘ul bo‘lmaydilar.
F. Birovlarning tuyg‘ularini o‘yin qilmaydilar.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar ham yangi so‘z hosil qilish bilan birga uslublarda turlicha ma’no va ta’sir kuchiga ega. Ayrim qo‘shimchalar ma’nodoshlik hosil qilib, bir-birining o‘rnida qo‘llanishi mumkin bo‘lsa-da, uslubiy jihatdan farqlanadi. Masalan, **-li, -kor, -dor, bo-, ba-** so‘z yasovchi qo‘shimchalari ma’nodosh *(baquvvat – quvvatli, aqlli – boaql)*. Lekin **-kor, -dor, bo-, ba-** kitobiy uslubda (publitsistik, badiiy) qo‘llanishi bilan farqlanadi**, -li** qo‘shimchasi esa neytral, ya’ni barcha uslublarda ishlatiladi. Masalan, *ma’ni**li** – ma’no**dor*** (kitobiy uslub). Shuningdek**, -kash, -mand, -(u)vchi, -chi** kabi shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar ham ma’nodosh, ammo har doim ham ularning o‘rnini almashtirib qo‘llab bo‘lmaydi *(hunar**mand**, arava**kash**)*. Ayrim ma’nodosh qo‘shimchalarni esa almashtirib ishlatganda ma’no o‘zgarishi ham mumkin. Masalan, ***be**chora – chora**siz**, **be**bosh – bosh**siz***.

2.32. Matndan olingan qaysi gapda so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdori ko‘proq? Gaplardagi ma’nodosh qo‘shimchalarni topib, o‘rnini almashtiring. Masalan, tuz**siz – be**tuz.

1. Ular shovqin, sovuq, ko‘p qovurib yuborilgan go‘sht, ovqatning tuzsizligi, tuzi o‘tkirligi yoki uyida mehmonlar borligi tufayli g‘azabga minmaydi.
2. Ular insonni hurmat qiladi, shu sababli hamisha iltifotli, muloyim, xushmuomala, murosali bo‘ladi.
3. Mashhurlar bilan tanishish, salonda duch kelgan odamni hayratlantirish, qovoqxonalarda dong taratish bilan mashg‘ul bo‘lmaydilar.
4. Ular bolg‘acha yoki yo‘qolgan o‘chirg‘ich sababli janjal ko‘tarmaydi; birov bilan yashab, keyin buni ta’na qilmaydi, ketayotib: “Siz bilan yashab bo‘lmaydi!” demaydi.
5. Ular vaysaqi bo‘lmaydi, so‘ralmagan paytda hamma narsani ochiq-oydin gapiravermaydi… Begona quloqlar hurmati uchun ko‘pincha sukut saqlaydilar.

Qo‘shimchalar orasida ko‘pma’nolilik hodisasi ham mavjud. Ko‘p ma’noli qo‘shimchalar bir xil vazifa bajarib, matnda turli xil ma’noga ega bo‘ladi. Ular orasida ma’noviy bog‘lanish sezilib turadi. Ko‘p ma’nolilik til taraqqiyotining turli davrlarida paydo bo‘lgan: bir ma’no boshqasidan kelib chiqqan. Masalan, **-li** sifat yasovchi qo‘shimcha

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

asosdan anglashilgan xususiyatga **egalik:** bolali ayol (bolasi bor ayol) ma'nosini anglatadi, ayrim sifatlarda esa asosdagi xususiyatning **ortiqlik** ma'nosini ifodalaydi: yog'**li** palov (yog'i ko'p palov).

2.33. Ajratilgan so'zlardagi ko'p ma'noli so'z yasovchi qo'shimchalarning matnga ta'siri va uslubiy imkoniyatini izohlang. Jadvalni to'ldiring.

So'z	Qo'shimcha	Matnda qo'shimchaning ifodalagan ma'nosi	Uslubiy xususiyati
vaysaqi	-qi	salbiy ma'no, xarakter-xususiyat, holatni ko'rsatish, dramatizmni yaratish	badiiy, so'zlashuv uslubiga xos
tashqi	-qi	* * *	* * *
tarbiyali	-li	asosdan anglashilgan xususiyatga egalik	* * *
atoqli	-li	* * *	* * *
yoqimsiz	-siz	asosdan anglashilgan xususiyatga ega emaslik	* * *
tuzsiz	-siz	* * *	* * *
o'tkirlik	-lik	belgi-xususiyatga egalik	* * *
borlik	-lik	* * *	* * *
gulla	-la	asosdan anglashilgan holatga ega bo'lish	* * *
tarbiyala	-la	* * *	* * *

2.34. Insonning kiyimi, nutqi, axloq-odobida uning hayosi aks etadimi? Misollar bilan izohlang. "Hayo – kishi bezagi" mavzusida muhokama matni yozib keling. Matnda ma'nodosh va ko'p ma'noli qo'shimchalarni qo'llang.

1. Bog'lovchilar qanday vazifani bajaradi?
2. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Sof va vazifadosh bog'lovchilarning farqi nimada?

Bog'lovchilar so'z va gaplarni o'zaro teng va tobe munosabatda bog'lashdan tashqari quyidagi uslubiy vazifalarni ham bajaradi:

1. **Mantiqiy bog'lanish** yaratadi va jumlani tushunishni osonlashtiradi: *U kelmadi, **chunki** kasal edi* (sabab-natija munosabati).
2. **Ta'kid va ziddiyatni kuchaytiradi**: *U kutdi, **ammo** do'sti kelmadi* (ziddiyat orqali ma'no kuchaygan).
3. **Emotsional-uslubiy rang beradi**: *Bu xabar uni **ham** quvontirdi, **ham** hayratga soldi* (ta'kid orqali emotsionallik ifodalangan).

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. **Matnda izchillikni ta’minlaydi**: *U keldi **va** ovqatlandi* (ketma-ketlik). *U keldi-**yu**, ovqatlandi* (tezlik, uzluksizlik).

5. **Matn uslubini belgilaydi**: ***Mabodo** u kelib qolsa, xabar bering* (badiiy uslub).

2.35. Quyida berilgan fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring. Muomala madaniyatida shirinso‘zlikning ahamiyati haqida hayotiy misollar keltiring. Matnda qo‘llangan bog‘lovchilarni topib, vazifasini tushuntiring.

Bola oilada ota-onasi, bobo va buvisining o‘zaro munosabatlaridan andaza olishga harakat qiladi. Qiz ona bilan, o‘g‘il ota bilan shaxsiy masalalarda maslahatlashishni esdan chiqarmasligi, onaga ham, otaga ham noto‘g‘ri gaplarni aytishni odat qilmasligi kerak.

Agar farzand oila kattalari bilan biror masalada maslahatlashmoqchi bo‘lsa, ularning kayfiyatiga, vaqtiga qarashi, aytadigan fikrini o‘ylab, ularni ranjitmaydigan tarzda gapirishga harakat qilishi lozim. Chunki ota-ona, farzandlar hamda oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi muloqotni isloh qiluvchi vosita shirinso‘zlikdir.



2.36. Matnda qo‘llangan bog‘lovchilarni toping. Ular bajargan uslubiy vazifani izohlang. Matnda bog‘lovchilar qaysi uslubni yaratishga xizmat qilganini aniqlang.

Shuni ham unutmaslik kerakki, qandaydir boylikka ega bo‘lish, yuksak lavozim, hatto keksalik yoxud kayfiyatning buzuqligi ham atrofdagilar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish huquqini bermaydi. Chunki dil jarohatini hech bir malham, dori tuzata olmaydi. Demak, alloma Abu Ali ibn Sino aytganidek: “Inson har doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda xushtabiat bo‘lmog‘i lozim”.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Agar qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, do‘st-u o‘rtoqlar bilan muloqot tabassum bilan, takalluf bilan boshlansa, ikki o‘rtada dilxushlik yuzaga keladi.

Shirin, to‘g‘ri so‘z, ma’noli suhbat do‘stni ham, qarindosh-urug‘ni ham, qo‘shnilar, tanish-bilishlarni ham siz bilan yana hamsuhbat bo‘lishga ishtiyoqmand qiladi.

Ota-ona, opa-singil, do‘st, ustozlar, qarindosh-urug‘lar va boshqalar bilan muloqot qilishning debochasi salom bo‘lib, shundan keyingina asosiy mavzuga o‘tish mumkin.

2.37. Gaplarni mos bog‘lovchi orqali grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang. Bog‘lovchining uslubiy qo‘llanishini izohlang.

1) Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil.
2) So‘z qalbdan kelib, tildan chiqadi.

Bog‘lovchi turi:_____

1) Sovuqqon odamlardan qo‘rq: ular o‘ldirmaydilar va xiyonat qiladilar.
2) Ularning razilliklari tufayli yer yuzida haligacha sotqinlik yashamoqda.

Bog‘lovchi turi:_____

1) Dushmaningdan yashirganingni do‘stingga aytma.
2) Hech bir do‘stlikning abadiyligiga kafolat yo‘q.

Bog‘lovchi turi:_____

1) Dunyoda do‘stlik deb atalgan tuyg‘u bo‘lmasa edi.
2) “Sadoqat” degan so‘z bo‘lar edi.
3) “Xiyonat” degan so‘z bo‘lar edi.

Bog‘lovchi turi:_____

1) Yaxshilik qilmoqlik eng yaxshi fazilat.
2) Yaxshilikning qadriga yetmaslik – illat.

Bog‘lovchi turi:_____

1) Har qanday qonunga chap berish mumkin.
2) Nomusga chap berib bo‘lmaydi.

Bog‘lovchi turi:_____

2.38. “Joy ber!” matni asosida ishlangan videolavhani tomosha qiling. Videolavha bo‘yicha o‘z fikringizni bildiring. Siz jamoat transporti yoki navbatlarda keksa kishilarga joy berishga qanchalik e’tiborlisiz? “Joy ber!” matnini adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodali o‘qing. Matndagi qo‘shimchalarni aniqlang.

2

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

JOY BER!

Joy ber!

Mening yelkamga botib ketdi bu yuk. Bu yukni manzilga yetkazishim kerak! Keksaydim, sochim oqardi, yelkam qavardi, tizzalarimga og‘riq kirdi. Mamont va filni yetaklagan qo‘llarim toldi. Bu yuk nima? Bu – og‘ir va tabarruk yuk. Bu – or-nomusning yuki, burchning, mehr va sadoqatning muqaddas yuki. Hayot yuki!



Menga joy ber, bolam!

Biz bitta vagonda, bitta avtobusda, yo‘q-yo‘q – bitta dunyoda ketyapmiz.

Sen, ey XXI asrning qiz-u o‘g‘loni! Ey qo‘lidagi smartfonga mahliyo avlod! Ey hayotimning davomchisi, kamolim kelajagi! Xizmat qilganlarga, keksalarga, hayotda senga joyini berib ketayotganlarga, andisha qilib tik turganlarga, avvalo onalarga, bo‘lg‘usi onalarga – vatanning tirik timsollariga joy ber!

JOY BER!

Shodmonqul Salom

2.39. Abulqosim az-Zamaxshariy hikmatlarida tushirib qoldirilgan bog‘lovchilarni qo‘yib chiqing. Fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring. Bog‘lovchining uslubiy qo‘llanishini izohlang.

1. Ilm qog‘ozga chizish ... yozish bilan emas, ... uqmoq va o‘qimoq bilandir.
2. ... ilmli bo‘l ... ilmga tayanib ish tutadigan bo‘l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo‘l, ... to‘rtinchisi bo‘lma, ... kasodga uchrab, halok bo‘lasan.
3. O‘lim qanchadan qancha takabbur odamlarning boshlarini chuqurga, ... qabrga uloqtirgan.
4. O‘zi sazovor bo‘lmagan hamd-u sano ... maqtovlarni talab qilish, uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir.
5. Go‘zal sifat … husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko‘rkam qilolmas.

2.40. O‘zbekona muomala odobi xotin-qizlarga nisbatan har qanday vaziyatda ham qo‘pol munosabatda bo‘lmaslikni, aksincha, o‘ta iltifotli bo‘lishni, ularni e’zozlashni taqozo etadi. Mazkur fikrdan kelib chiqib yurtimizda xotin-qizlarga munosabat, ularni himoya qiluvchi qonun va farmonlar haqida bilganlaringiz asosida xabar matni yozing. Matnda sof va vazifadosh bog‘lovchilarni qo‘llang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



III BOB. SAN’AT

“Odam umrini nimaga bag‘ishlasa, oxir-oqibat uning o‘zi shu narsaga aylanadi”, degan fikrga qo‘shilasizmi? Teatr odami deganda qanday inson ko‘z oldingizga keladi? Fikringizni qisqa izohlang.

TEATR ODAMLARI

O‘zbekiston xalq artisti, rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev bilan suhbat

– Bahodir aka, umringizni san’atga, teatrga bag‘ishladingiz. Odam umrini nimaga bag‘ishlasa, oxir-oqibat uning o‘zi shu narsaga aylanadi, degan gap bor. Ayting-chi, “teatr odami” degan ibora siz uchun qanday mazmun kasb etadi?

– To‘g‘ri, teatr qurbonlik talab qiladi, lekin bu – tabiiy hol. Ya’ni teatr odamining teatrga hamma narsasini bag‘ishlashi tabiiy. Chunki u teatr uchun tug‘iladi. Chetdan qaraganda, ehtimol, bu fojia bo‘lib tuyular, lekin aslida unday emas, teatr odamining baxti teatrga o‘zini baxsh etishida. U faqat aktyor yoki rejissyor emas, teatrning rassomi bilan grimchisidan tashqari yana qancha odami bor! Ular teatrdan boshqa joyda ishlamaydilar! Xuddi masjidning farroshi masjiddan boshqa joyda ishlamaganday (o‘n barobar ko‘p oylik bersangiz ham, u kafening eshigini supurmaydi).

– Ayting-chi, shon-shuhratdan yuz o‘girib, o‘zini qidirgan, salohiyatli, quvvayi hofizasi keng, o‘zi bog‘lanib qolgan teatr uchungina yashagan birorta aktyorni uchratdingizmi?

– Gap shundaki, o‘zini teatrga bag‘ishlagan odam baribir taniladi. G‘ani A’zamov haqiqiy ma’noda shon-shuhrat egasi edi. Holbuki, u kishi umri davomida ikkinchi, uchinchi, beshinchi plandagi rollarni o‘ynagan. Uning “Oltin devor”dagi Mo‘min obrazidan boshqa bosh roli yo‘q. Lekin beshinchi planlardagi parchalarni ham qotirib qo‘ygan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1 SAN’AT

Bir hikoyat bor: tishlari to‘kilgan, kuchsiz, o‘rnidan ham turolmay qolgan qari sherning yoniga bir it kelib, men sen bilan urishmoqchiman, deydi. Sen bilan urishmayman, deydi sher. It men bilan urishsang, itlar orasida it sherni yengibdi, degan gap bo‘ladi-da, shundan qo‘rqyapsan-da, a, deydi. Sher yo‘q, itlar orasida gap bo‘lishidan qo‘rqmayman, men sherman, sherlar orasida gap tarqalishidan, sher it bilan urishibdi, deya ustimdan kulishlaridan qo‘rqaman, deb javob beradi.

– Oramizda adabiyot olamida adib ham, shoir ham bo‘lolmagan, lekin yozib yashashga qasd qilgan iste’dodsiz odamlar uchraydi. Teatrda ham teatr uchun tug‘ilmagan bo‘lsa-da, nimanidir tama qilib, undan ketmaydigan odamlar yo‘q emas.

– Qalam ahli qatoriga suqilib kirishni istaganlar didni o‘tmaslashtiradilar… Teatrdagi iste’dodsizlar ham xavfli odamlar: teatrda teatrni yo‘qotish uchun izg‘ib yurishadi. Bunaqalar – Xudoning teatr odamlariga yuborgan bir sinovi. Ular o‘zi katta sahna uchun – hayot uchun tug‘ilishgan. Qarasalar, katta hayotda yana bitta kichkina sahna ham bor ekan. Kel, mana shu yerda ham bir o‘ynab ko‘ray, deyishadi. Endi ular o‘yinning kattasini ko‘rsata boshlaydilar: oyligim kam… to‘yim ko‘p… ehtiyojim bor… unvonim yo‘q va hokazo… (*Kimki ishqsiz ilm-u hikmat istag‘ay, Ilm birla mol-u davlat istag‘ay*, deydilar Navoiy hazrat). Ular oxir-oqibat teatrni o‘ldirishadi. Ammo teatr ham ayab o‘tirmaydi, o‘ch oladi. Bir necha avlodni o‘z sahnasidan sidirib tashlaydi. Shuning uchun ham ustozlarimiz obrazli qilib, teatrga jon ato etish uchun jondan kechish kerak, deyishardi.

– Bir qarashda hayot san’atsiz ham davom etaveradiganday tuyuladi… Chunki san’at faqat xos odamlar uchungina mavjud, faqat xos odamlargina san’atsiz yasholmaydilar, degan qarash ham bor.

– Yaxshi asarning tug‘ilishini Ibrohim alayhissalomni o‘tga tashlagan paytlarida qaldirg‘ochning o‘tni o‘chirish uchun tumshug‘ida suv olib kelish hodisasiga o‘xshatish mumkin. Zaynab Sadriyevani ko‘p eslayman. U kishini sahnada ko‘rib, haydab yuborgan kelinlarini qaytarib olib kelgan onaxonlardan xatlar olganmiz. Necha-necha buzilgan oilalar Zaynab opa tufayli qayta tiklangan. “G‘ariblar”ni qo‘yganimizda spektakl tugashi bilanoq uch-to‘rt chaqirimdagi uyiga kirmasdan, 400–500 kilometr naridagi ota-onasini ko‘rgani ketgan tomoshabinlar qancha. Agar surishtirib ko‘rsangiz, teatrga har kim o‘z vaji bilan keladi, birov onasini olib keladi, birov xotinini, boshqasi esa yonidagi bilan yaqindan tanishish uchun spektaklni bahona qiladi… Lekin sahnada insonlarni birlashtiradigan, odamning dardini odamga yuqtiradigan quvvat bor.

– San’at asarlaridagi buyuk qudratdan darak berib turadigan, faqatgina elas-elas idrok qilinadigan o‘sha jozibador ta’sirni Stanislavskiy shunday izohlaydi: “San’at bu haqiqiy hayot emas, hatto uning aksi ham emas. San’at o‘zicha yaratuvchidir. U o‘zining zamon va makondan ajralgan shaxsiy hayotini yaratadi. Bu hayot esa mavhumligi bilan go‘zal”.

– Ha, shunday. San’atkorlar ham, siz aytmoqchi, olimlar ham o‘z-o‘zicha yaratuvchi. Matematik Grigoriy Perelman Sankt Peterburgda, kichik bir kvartirada juda oddiy yashaydi. U mukofoti bir million dollardan iborat bo‘lgan Puankare gipotezasiga javob

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

topdi. Lekin Perelman Kleya matematiklar instituti tomonidan ta'sis etilgan o'sha bir million dollardan voz kechganini har kim har xil izohlashi mumkin… Ammo yigitning pulni inkor qilishida ham, u topgan aniq javobning mohiyatida ham butunlay boshqa bir narsa bor – tushuntirib bo'lmaydi. Odam xuddi o'sha yombini ko'rganday, tushunganday, sezganday, idrok qilganday bo'ladi. Lekin uning aslida nimaligi noma'lum. Idrokda qandaydir sirli kechinma yuz beradi. San'atkorlar ham shu tariqa nimanidir aytmoqchi, tushuntirmoqchi bo'ladilar…

– *Siz ishlayotgan "Diydor" studiyasidagi ish tartibi Stanislavskiyning maktabiga xos temir qonunlarni eslatadi. Chunki u yerdagi yosh ijodkorlar xuddi Stanislavskiyning havaskor aktyorlari singari tor va ensiz joyni sahnaga aylantirib, o'zlarini namoyish qilishyapti. Gurungimiz so'ngida "Diydor" haqida, kichkinagina teatr studiyasi shaklidagi katta dargoh haqida gapirib bersangiz.*

– Agar ijodkorda intizom bo'lmasa, u haqiqiy ijodkor bo'lolmaydi. Biz studiyamizdagi o'quvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qilyapmiz. Bular – oddiy, lekin yuki og'ir tushunchalar: sen o'zingni san'atda sevma, balki qalbingdagi Xudo bergan olovga – san'atga otashin muhabbat qo'y; sen aktyor bo'lmoqchisan, chin ma'noda aql yuritishga o'rgan; yotish-turishingni, yeb-ichishingni, gapirishingni muttasil nazorat qil; qorong'i sahnada o'tirib, tin ol, sukut saqla – nima uchun Hamletning har bir monologi "… Endi jim bo'l" yoki "Endi sukut saqla" degan so'zlar bilan tugaydi? Bu haqda yaxshilab o'ylab ko'r; bobolarga quloq tut, ular ham: ko'p yema, ko'p uxlama, ko'proq sukut saqla, deb nasihat qilishyapti… Aktyor quyoshning qizig'ida mashq qilayotgan paytda sen soyada o'tirib buyurma, sen ham qo'lingdagi soyabonni tashlab, quyoshning tig'iga boshingni tutib tur, aktyor bilan yelkama-yelka turib mehnat qilmasang – jinoyatchisan; muxlislar senga gul berishsa, gul ko'rmagan odamga o'xshab hammasini quchoqlab ketma, oxirida sahna uchun ta'zim qil va bir donagina gul qoldirishni unutma.

Shunaqa. Asl san'at ilinjida diydor tortib kelganlarga iloji boricha shularni o'rgatamiz. Chunki "Diydor" bu – sahna. Sahna esa muqaddas dargoh.

"Ma'naviy hayot" jurnalidan qisqartirib olindi

1. Suhbatdosh G'ani A'zamov misoli orqali "katta" va "kichik" rol tushunchasiga qanday munosabat bildirmoqda? Uning fikricha, haqiqiy shon-shuhratga erishish uchun bosh rolni o'ynash shartmi? Nima uchun?
2. Sher va it haqidagi hikoyat nima maqsadda keltirilgan deb o'ylaysiz? Bu ramziy hikoya orqali Bahodir Yo'ldoshev o'zining qaysi hayotiy prinsipini tushuntirmoqchi?
3. Zaynab Sadriyeva ijrosi va tomoshabinlar munosabati haqidagi xotira san'atning jamiyatdagi qaysi vazifasini ochib beradi? Sizningcha, bugun ham teatr shunday kuchga egami? Javobingizni izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. “Diydor” teatr studiyasidagi tarbiya usuliga e’tibor bering. Nima uchun ustoz shogirdiga: “Gul ko‘rmagan odamga o‘xshab hammasini quchoqlab ketma”, deb maslahat beradi? Sahnada “bir dona gul qoldirish” qanday ramziy ma’noga ega?

3.1. Quyidagi so‘z va iboralarning ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib taxmin qiling. So‘ng o‘ng ustundagi izohlar orasidan mosini topib, juftlang.

So‘z/Ibora	Izohi
quvvayi hofiza	sahnada qahramonning qanchalik markaziy yoki yordamchi o‘rinda ekanini belgilovchi tushuncha
grimchi	uchrashuv, yuzma-yuz kelish, ko‘rishish
tama qilmoq	sahna asarida qahramonning o‘z-o‘ziga yoki tomoshabinga qaratilgan nutqi
plan (teatrda)	xotira kuchi, zehn, eslab qolish qobiliyati
gipoteza	aktyorlarning yuz tuzilishini o‘zgartiruvchi, pardozlovchi mutaxassis
monolog	biror narsa ilinjida bo‘lmoq, manfaat kutmoq
diydor	ilmiy faraz, hali to‘la isbotlanmagan taxmin

3.2. Matn asosida haqiqiy va soxta ijodkorga xos sifatlarni ajratib yozing. Muallif bu ikki toifani tasvirlashda qanday so‘zlardan foydalanganiga e’tibor bering. Jadvalni to‘ldirayotganda matndagi fe’llar va sifatlarga diqqat qarating.

Haqiqiy teatr odami	Tasodifiy (soxta) “ijodkor”lar
O‘zini ishiga baxsh etadi.	*Teatrdan nimanidir tama qiladi.*
* * *	* * *
* * *	* * *
* * *	* * *
* * *	* * *
* * *	* * *
* * *	* * *

Mahoratli muallif o‘z munosabatini “Men buni yomon ko‘raman” yoki “Bu yaxshi” tarzida ochiq bildirmaydi. U buni ko‘pincha tayanch so‘zlar, asosan fe’l va sifatlar orqali ifodalaydi.

Quyidagi jumlaga e’tibor bering:

Qalam ahli qatoriga suqilib kirishni istaganlar didni o‘tmaslashtiradilar.

Agar *kirishni istaganlar* deyilganda, ma’no neytral bo‘lardi. Ammo muallif *suqilib kirish* (so‘roqsiz, surbetlarcha kirish) iborasini tanlash orqali bu toifaga nisbatan o‘zining salbiy munosabati va nafratini ifodalagan.

O‘quvchining vazifasi matndagi so‘zlarning ana shu ma’no nozikligini payqash va muallif maqsadini anglay olishdir.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3.3. "Teatr odamlari" matnidan olingan jumlaga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

Lekin beshinchi plandagi parchalarni ham ***qotirib qo'ygan****.*

Savollar:

1. Agar muallif *qotirib qo'ygan* iborasi o'rniga *ijro etgan* yoki *o'ynagan* so'zini qo'llaganda, jumlaning ta'sir kuchi qanday o'zgarardi?

2. Qotirib qo'ymoq iborasi G'ani A'zamovning mahoratiga nisbatan qanday bahoni (neytral munosabat, hayrat, mensimaslik) ifodalayapti?

3. O'zingiz yoqtirgan biror san'atkor yoki so'z ustasining mahoratini ta'riflashda ushbu iborani qo'llab gap tuzing.

3.4. Berilgan neytral mazmundagi gapni qavs ichidagi talabga ko'ra o'zgartirib yozing. Buning uchun mos fe'l va ravishlardan yoki ta'sirchan iboralardan foydalaning. Mazmunni keskin o'zgartirmagan holda so'zlar o'rnini almashtirishingiz mumkin.

Neytral gap:

Hakam hushtagini chaldi va o'yinni to'xtatdi.

1. Ijobiy munosabat (adolatli qaror, qat'iyat): ...
2. Salbiy munosabat (noo'rin qaror, asabiylik): ...

Namuna:

Neytral gap:

Aktyor sahnaga chiqdi va monolog o'qidi.

1. Ijobiy munosabat (hayrat, qoyil qolish):

Aktyor sahnaga ***ko'tarildi*** *va monologni* ***maromiga yetkazib*** *o'qidi...*

2. Salbiy munosabat (yoqtirmaslik, tanqid):

Aktyor sahnaga ***sudralib chiqdi*** *va* ***ming'irlab*** *monolog o'qidi...*

3.5. San'at, sport yoki ilm-fan sohasida siz hurmat qiladigan biror shaxs haqida ixcham badiiy lavha yozing. Matnda shunday so'z va iboralarni (sifatlash, o'xshatish, fe'llar) tanlangki, o'qigan kishi munosabatingizni "Men uni hurmat qilaman" degan jumlasiz ham his qilsin. Yozib bo'lgach, munosabatingizni ifodalovchi tayanch so'zlarning tagiga chizing.

Namuna: *U shunchaki qalam tebratmasdi, oddiy so'zlarga quvonch-u dard, orzu-yu armonlarni* ***singdirar****, satrlarida* ***yurak zarblari sezilib turardi****. Uning* ***o'lmas*** *asarlari bugun ham millionlab qalblarga* ***ziyo taratyapti****.*

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3.6. Quyidagi vaziyatlarda ishlatilgan iboralarni o‘zaro qiyoslang.

A vaziyat:
*Hoy, **qarilarga** joy bering.*
***Yoshi ulug‘larga** joy bering.*

B vaziyat:
*Falonchi ishdan **haydaldi**.*
*Falonchi bilan **hamkorlik to‘xtatildi**.*

1. A vaziyatda so‘z o‘zgarishi *(qarilar → yoshi ulug‘lar)* qanday maqsadga xizmat qilyapti?
2. B vaziyatda ma’no bir xil bo‘lsa-da, nima uchun ikkinchi variant tanlanadi? Bu yerda maqsad faqat odob saqlashmi yoki vaziyatni yumshatishmi?
3. Xulosa qiling: evfemizmlar faqat mazmunni yumshatish uchun kerakmi yoki ular axborotni “qulay” shaklga keltirish uchun ham xizmat qiladimi?

Nutqda evfemizmlar asosan ikki xil maqsadga xizmat qiladi:

1. **Odob saqlash.** Suhbatdoshni hurmat qilish, madaniyatli muloqot qurish.
Masalan: *qarilar* o‘rniga *nuroniylar, otaxon va onaxonlar.*

2. **Vaziyatni yumshatish.** Axborotning salbiy ta’sirini kamaytirish, tinglovchini ortiqcha vahimadan saqlash.
Masalan: *ishdan haydaldi* o‘rniga *vazifasidan ozod etildi, halokat* o‘rniga *ko‘ngilsiz hodisa.*

Eslatma. Evfemizmni taniy olishning o‘zi yetarli emas, uning zamiridagi asl ma’no va maqsadni tushunish ham zarur.

3.7. “Teatr odamlari” matnida jurnalist va suhbatdosh o‘rtasidagi muloqotda qo‘llangan til vositalari (evfemizm va kinoya)ni tahlil qiling.

1. Jurnalist teatrda iste’dodsiz, lekin manfaatparast odamlar borligini aytmoqchi.
Matndagi ifoda:
“*... teatrdan nimanidir **tama qilib**, undan ketmaydigan odamlar yo‘q emas”.*
Savol:
Agar jurnalist “Teatrda **manfaatparastlar** ko‘pmi?” deb to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘raganda, bu suhbatdoshga va suhbatning samimiyligiga qanday ta’sir qilardi?

2. Suhbatdosh ba’zi aktyorlarning san’atga nisbatan soxta munosabatini tasvirlamoqda.
Matndagi ifoda:
“*... katta hayotda yana bitta kichkina sahna ham bor ekan. Kel, mana shu yerda ham bir **o‘ynab ko‘ray,** deyishadi”.*
Savol:
Bu yerda “o‘ynab ko‘rish” iborasi qanday salbiy ma’noni (riyo, mas’uliyatsizlik, soxtalik) yashirib turibdi? Nima uchun rejissyor ularni “munofiq” yoki “yolg‘onchi” deb atamadi?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3.8. "Hammasi joyida" gapini quyidagi uch xil vaziyatga moslab ayting. Bunda ohang hamda noverbal vositalar (yuz ifodasi, ko'z qarashi, qo'l harakati)dan unumli foydalaning.

Vaziyatlar:

1. Samimiy. Siz chindan ham xursandsiz, ishlaringiz yurishgan va buni suhbatdoshingizga bildirmoqchisiz.

2. Kinoya bilan. Aslida ishlaringiz chappasiga ketgan, lekin buni tan olgingiz kelmay, vaziyat ustidan kulib, teskari ma'noda gapiryapsiz.

3. Yashirin dard bilan. Ahvolingiz og'ir, lekin suhbatdoshingizni xavotirga qo'ymaslik uchun haqiqatni yashirishga urinyapsiz.

3.9. Uch guruhga bo'lining. Har bir guruh o'ziga berilgan vaziyatdagi keskin haqiqatni evfemizmlar yordamida yumshatib, odob va ehtiyotkorlik bilan ifodalash yo'lini topsin. Eng yaxshi variantni sinfdoshlaringizga taqdim eting.

1. Shifokor:
Bemorning ahvoli og'ir, tuzalib ketishiga kafolat yo'q.
2. O'qituvchi:
Siz darsga umuman tayyormassiz, dangasasiz.
3. Rahbar:
Siz ishdan haydaldingiz.

3.10. Yangiliklar saytlari yoki telekanallarni kuzating. Jurnalistlar jiddiy yoki nozik mavzularni (masalan, tanqidiy holatlar, baxtsiz hodisalar yoki ijtimoiy muammolar) yoritishda qanday evfemizmlardan foydalanganiga e'tibor bering. 3 ta misol topib, daftaringizga yozing. Evfemizmlarning asl ma'nosi va qo'llanish maqsadini izohlang.

Namuna:
1. Jamoamiz bu o'yinda imkoniyatni boy berdi.
Asl ma'nosi: *jamoamiz yutqazdi.*
Maqsad: *muxlislarning kayfiyatini tushirmaslik, jamoa hurmatini saqlash.*
2. Ikki fuqaro o'rtasida tushunmovchilik yuzaga keldi.
Asl ma'nosi: *janjallashib qoldi (yoki mushtlashdi).*
Maqsad: *vaziyatni madaniyatli tarzda ifodalash, zo'ravonlikka urg'u bermaslik.*

3.11. Berilgan rasmlarga diqqat bilan qarang va savollarga javob bering.

1. Birinchi rasmga ilk marta qaraganingizda nigohingiz qayerga tushdi – markazgami, chetdagi detalgami yoki ranglarga?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2. Rassom tanlagan ranglar (yorqin yoki to‘q, iliq yoki sovuq) sizda qanday kayfiyat uyg‘otyapti?

3. Agar ikkinchi rasmga “til bitganda”, undan qanday tovushlar (suvning shovullashi, shamol uvullashi, odamlar suhbati, kuy) eshitilgan bo‘lardi?



Akmal Nur, “Izhor”



Erkaboy Masharipov, “Shovqinli daryo”

3.12. Tanlagan rasmingizdagi narsa-buyumlar yoki qahramonlarning joylashuvini e’tibor bilan kuzating. Ularning holati va harakat yo‘nalishini aniq ifodalash uchun ko‘makchilardan *(tomon, sari, uzra, bo‘ylab, qadar, orqali)* foydalanib 4 ta gap tuzing.

Namuna:

*1. Yigitning anor tutgan qo‘llari qiz **tomon** cho‘zilgan.*

*2. Tog‘ daryosi vodiy **bo‘ylab** hayqirib oqmoqda.*

3.13. Tanlagan rasmingiz asosida 70–80 so‘zdan iborat badiiy-tasviriy matn yozing. Matnda sifatlash, o‘xshatish va ko‘makchilardan unumli foydalaning.

Yozish uchun yo‘riqnoma (reja):

1. Kirish. Rasmning umumiy manzarasi va u sizda uyg‘otgan birinchi taassurot (hayrat, sokinlik, zavq).

2. Asosiy qism. Tasvir markazi va detallar:

A. Kim yoki nima tasvirlangan?

B. Ular nima bilan band yoki qanday holatda?

3. Xulosa. Rasmning “falsafasi”: sizningcha, rassom bu asar orqali nima demoqchi? Rasmda qanday yashirin ma’no yoki kayfiyat mujassam?

Matnga mos sarlavha qo‘yishni unutmang!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3.14. Yozgan matningizni o‘qib chiqing: sifatlash va o‘xshatishlar, ko‘makchilar o‘rinli qo‘llanganmi? So‘ng partadoshingiz bilan matnlaringizni almashing va bir-biringizning “so‘z bilan rasm chizish” mahoratingizni quyidagi savollar yordamida baholang:

1. Matnni o‘qiganda ko‘z oldingizda tasvir gavdalandimi?
2. Matndagi qaysi o‘xshatish yoki sifatlash eng muvaffaqiyatli chiqqan?

3.15. Rassom bo‘yoqlardan, yozuvchi esa so‘zlardan foydalanadi. Tanlagan rasmingizdagi rang yoki holatni ifodalovchi oddiy so‘z o‘rniga uning badiiy, ta’sirchan muqobillaridan 3 tasini topib, daftaringizga yozing.

Namuna:
Sariq **– oltinrang, tillarang, za’faron, kahraborang.**
Chiroyli **– betakror, fusunkor, maftunkor, jozibali, ko‘zni qamashtiradigan.**

3.16. Birorta mashhur san’at asari haqida internet yoki kitoblardan foydalanib ma’lumot yozib keling.

Unda quyidagilar aks etsin:

1. Asosiy ma’lumot. Nomi va muallifi.

2. Fakt. U haqda bitta qiziqarli va aniq ma’lumot (yaratilish tarixi, o‘ziga xos texnikasi yoki narxi).

3. Manba. Bu ma’lumotni qayerdan oldingiz? (sayt, kitob yoki ensiklopediya)

3.17. O‘tgan darsda tasviriy san’at asariga qarab tuygan turli his-tuyg‘ularingiz haqida yozdingiz. Nima deb o‘ylaysiz, inson san’at asariga, masalan, go‘zal manzaraga qaraganida uning bosh miyasida nimalar sodir bo‘ladi? Bu shunchaki kayfiyatmi yoki organizmdagi aniq bir biologik jarayonmi? Matnni o‘qing va olimlarning bu boradagi xulosasi bilan o‘z fikringizni solishtiring.

TASVIRIY SAN’AT NAMUNALARI FOTOSURATLARDAN NIMASI BILAN USTUN?

Erazm Rotterdam universiteti olimlari odamlar san’at asariga qaraganda ularning bosh miyasida o‘ziga xos reaksiya sodir bo‘lishini aniqlashgan va tadqiqot tafsilotlari “Brain and Cognition” jurnalida nashr etilgan.

Olimlar 24 nafar talabadan iborat guruhdan bir qator tasviriy san’at namunalarini baholashni so‘rashdi va bir vaqtning o‘zida EEG (elektroensefalografiya) yordamida ularning miya faolligini o‘lchashdi. Birinchi bosqichda sinovdagilar bir qator tasvirlarni hissiy jihatdan baholashdi. Shuningdek, ular tasvirning san’at asari yoki oddiy rasm ekanini aniqlashlari kerak bo‘lgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4 SAN’AT

Ikkinchi bosqichda tadqiqotchilar ishtirokchilarning miya qobig‘idagi elektr faolligini o‘lchashgan. Bu bosqichda talabalarga qanday xarakterdagi tasvirni ko‘rishlari aytildi: hayotiy suratlar, hujjatli yoki o‘yin filmlaridan lavhalar yoxud kartinalar. Elektromagnit faollik darajasi tasvir namoyishidan 0,6–0,9 soniya o‘tgach o‘lchangan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilar hujjatli film lavhalarini ko‘rishganida ularning miyalaridagi elektromagnit faollik darajasi oshgan, san’at asarlari ko‘rsatilganida esa bu ko‘rsatkich pasaygan. Bundan tashqari, tadqiqot ishtirokchilari kartinalarning jozibasi ko‘proq deb hisoblashgan. Olimlarning ta’kidlashicha, matn miyaning qabul qilish jarayoniga katta ta’sir o‘tkazadi.

Tadqiqotchilarning so‘zlariga ko‘ra, insonlar “haqiqatdan yiroq bo‘lgan” narsalarga duch kelganda ularning hissiy reaksiyasi neyron darajasida xiralashadi. Mutaxassislar buni tasvirning shakli, rangi va kompozitsiyasini tahlil qilish uchun uning mazmunidan uzoqlashishga urinish bilan bog‘lashadi. Olimlar hissiyotlarni “mexanik boshqarish” jarayonini endi anglay boshlayotganlarini aytib, shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘proq o‘tkazish kerakligini ta’kidlashgan.

Kun.uz

3.18. Bu topshiriqni ikki bosqichda bajaring.

1. Matnda uchragan ilmiy va kasbiy atamalarni ularning izohlari bilan juftlang.

2. Muhokama qiling. Ushbu so‘zlar (ayniqsa, EEG va neyron kabi atamalar)ning to‘liq ilmiy tavsifini, ishlash mexanizmini bilmoqchi bo‘lsangiz, qaysi manba ishonchliroq va batafsilroq ma’lumot beradi – izohli lug‘atmi yoki ensiklopedik lug‘at? Fikringizni asoslang.

Atamalar	Izohi
EEG (elektroensefalografiya)	miyada axborotni qabul qilish va uzatish vazifasini bajaruvchi nerv hujayrasi
neyron	asarning tuzilishi, qismlarining o‘zaro joylashuvi va bog‘lanishi
kompozitsiya	bosh miya faolligini elektr to‘lqinlari orqali yozib olish va o‘lchash usuli
kontekst	organizmning tashqi yoki ichki ta’sirga nisbatan javob harakati, ta’sirlanishi
reaksiya	biror hodisa sodir bo‘ladigan shart-sharoit, vaziyat yoki matnning umumiy mazmuni

1. Erazm Rotterdam universiteti olimlari o‘tkazgan tajribaning asosiy xulosasi nima? Nima uchun inson miyasi hujjatli filmdan ko‘ra san’at asariga boshqacha reaksiya bildiradi?

2. Matnda *“haqiqatdan yiroq bo‘lgan” narsalar* deganda nima nazarda tutilmoqda? Nima uchun inson miyasi bunday tasvirlarni (san’at asarlarini) qabul qilishda shakl va rangga ko‘proq e’tibor qaratadi?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3. Matn Kun.uz saytidan olingan. Unda *EEG, neyron, elektromagnit faollik* kabi maxsus atamalar ko‘p bo‘lsa-da, muallif fikrini sodda jumlalar bilan tushuntirishga harakat qilgan. Sizningcha, bu matn kimga mo‘ljallangan: faqat tor doiradagi mutaxassislar (olimlar)gami yoki keng o‘quvchilar ommasiga? Fikringizni matn uslubidan kelib chiqib asoslang.

4. “Tasviriy san’at namunalari fotosuratlardan nimasi bilan ustun?” sarlavhasi sizni qoniqtirdimi? Matn mazmunidan kelib chiqib, uning asosiy g‘oyasini yanada aniqroq ifodalovchi boshqa sarlavha taklif qiling.

Ko‘makchilar ot, olmosh, sifatdosh yoki harakat nomidan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘laydi. Ular ko‘pincha kelishik qo‘shimchalari bilan ma’nodosh bo‘lsa-da, uslubiy jihatdan farq qiladi:

1. Ma’no qirralari. Ko‘makchilar gapga qo‘shimcha ma’no yuklashi mumkin.
Maktabga bordi. Manzil: yetib borgani aniq.
Maktab tomon bordi. Yo‘nalish: yetib borgani noma’lum, faqat yo‘nalishni bildiradi.
Daryoda suzdi. O‘rin: suvning ichida.
Daryo bo‘ylab suzdi. Trayektoriya: harakat yo‘nalishi.

2. Uslubiy bo‘yoq. Ba’zi ko‘makchilar nutqqa rasmiylik, ba’zilari esa ko‘tarinkilik yoki badiiylik bag‘ishlaydi.
Badiiy/kitobiy: bilan – birla; kabi – yanglig‘.
Rasmiy: haqida – to‘g‘risida, borasida.

3.19. Quyidagi gaplar juftligini solishtiring. Ikkinchi gapdagi ko‘makchi gapning mazmuni yoki uslubiga qanday o‘zgarish kiritganini (aniqlashtirganini, badiiylashtirganini yoki rasmiylashtirganini) izohlang.

A. *Olimlar miya faoliyati haqida ma’lumot berdi.*
B. *Olimlar miya faoliyati to‘g‘risida (borasida) ma’lumot berdi.*

A. *Sayyohlar muzeyga ketdi.*
B. *Sayyohlar muzey tomon ketdi.*

3.20. Gaplarni ko‘makchilar (nisbatan, tufayli, orqali, borasida) va ilmiy atamalar yordamida ilmiy-rasmiy uslubga moslab qayta yozing.

Namuna:
Berilgan gap: *Olimlar buni tajribada aniqlashdi.*
Ilmiy uslub: *Olimlar buni tajriba **orqali** isbotladilar.*

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

1. San’at asari oddiy rasmdan kuchliroq ta’sir qiladi.
2. Tasvir haqiqiy bo‘lmaganidan miya xotirjam tortadi.
3. Olimlar miyani o‘rganib, ma’lumot berishdi.

3.21. Internet yoki kitoblardan san’at (musiqa, kino yoki tasviriy san’at)ning inson salomatligiga foydasi haqida kichik ma’lumot yoki xabar toping. Daftaringizga matnning sarlavhasi va manbasini yozing. So‘ng uni quyidagi “Ishonchlilik mezonlari” asosida baholab, matn qanchalik ishonchli ekani haqida xulosa yozing.

1. Manba. Matnda aniq manba (olim, universitet, kitob nomi yoki rasmiy sayt) keltirilganmi?

2. Dalil. Fikrlar aniq raqamlar, faktlar yoki tajribalar bilan asoslanganmi?

3. Maqsad. Matnning maqsadi shunchaki qiziqish uyg‘otishmi yoki masalani ilmiy asoslashmi?

Namuna: *Men topgan matnda “Musiqa davolaydi”, deyilgan, lekin birorta olimning ismi yoki tadqiqot natijasi keltirilmagan. Maqsad – shunchaki o‘quvchini jalb qilish. Shuning uchun bu matnni to‘liq ishonchli deb bo‘lmaydi.*

3.22. Tasavvur qiling, suratga olish imkonsiz bo‘lgan davrda yashayapsiz. O‘z davringiz muhiti va voqealarini kelajak avlodga qanday yetkazgan bo‘lardingiz? Fikringizni izohlang.

BIRINCHI O‘ZBEK FOTOGRAFI

O‘zbekning birinchi mohir fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonovning hayoti va faoliyati haqidagi turli ma’lumotlardan u betakror iste’dodi bilan birga ajoyib fazilatlar egasi bo‘lgani ham ko‘rinadi.

Xudoybergan Devonov 1879-yili Xivada, badavlat oilada tug‘ilgan. U Xivadagi madrasada o‘qigan, arab tilini o‘rgangan. Adabiyot bilan oshno bo‘lib, she’rlar yozib turgan. Soatsozga shogirdlikka tushgan. Ko‘plab musiqa asboblarini chalishni bilgan.

Xudoybergan Devonov hayotida tub burilish yasagan voqea Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog‘ida yashovchi nemislar jamoasi vakili Vilhelm Penner bilan uchrashuvi bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, yosh Devonov ikki yil davomida har kuni Pennerning uyiga qatnab, undan nemis tilini hamda fotografiya sir-asrorlarini o‘rgangan. Ilm olish yo‘lida u Xivadan 25 kilometr uzoqlikdagi Oqmachitga kuniga 50 kilometr yo‘l bosib qatnar edi. Mahalliy aholi “Panar buva” deb atagan Vilhelm Pennerning o‘zi ba’zan yakshanba kunlari Xudoyberganning uyiga kelib, unga dars bergan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Inson va tirik jonzotlar suratini tasvirlashga asrlar davomida taqiq qo‘yilgan sharoitda yosh yigitning qanday qilib Xiva xonligining ilk fotosuratchisi, keyinchalik kinooperatori bo‘lganini tasavvur qilish qiyin.

Albatta, bunda Xiva xoni, ma'rifatparvar Muhammad Rahimxon II Feruzning homiyligi asosiy rol o‘ynagan. Uning vafotidan keyin esa taraqqiyparvar g‘oyalari va ishlari bilan mashhur bo‘lgan bosh vazir Islomxo‘ja yosh fotosuratchini o‘z himoyasiga olgan.

1908-yili Islomxo‘ja va uning a'yonlari Sankt Peterburg shahriga yo‘l olishadi. Xivaliklar delegatsiyasi tarkibida Xudoybergan ham bo‘lgan va bu tasodif emasdi. Yosh fotosuratchi Rossiya poytaxtida ikki oy qolib ketadi. Shuningdek, Moskvada fotografiya va kinematografiya sirlarini chuqur o‘rganadi. Kinokamera, foto va kinotasmalar zaxirasini sotib oladi.

Vatanga qaytgach, u Markaziy Osiyodagi birinchi foto-kinolaboratoriyani tashkil etib, suratga olish ishlarini boshlaydi. Bir vaqtning o‘zida odamlar gavjum joylarda o‘zi olgan lavhalar va xorijdan keltirgan kinotasmalarini namoyish etib, vatandoshlari orasida yangi san'at turi ommalashishiga hissa qo‘shadi. Xudoybergan Devonov Urganch, Xiva, Toshsoqa, Toshhovuz, Xo‘jayli, To‘rtko‘l singari shahar va tumanlarni kezib, diqqatga sazovor joylarni, aholining dehqonchilik ishlarini tasmalarga muhrlagan. Xiva shahrining me'moriy obidalari, xalq sayillari, dorbozlar va masxarabozlarning tomoshalari, xonlikda yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq millatiga mansub kishilarning madaniy va maishiy-etnografik hayoti manzaralari uning ijodida bosh mavzulardan bo‘lgan.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, Xudoybergan Devonov yangi davlatning moliya vaziri etib tayinlanadi. Lavozimiga tegishli vazifalarni bajarish chog‘ida u juda ko‘p marta Moskvaga safar qiladi, yangi filmlarni olib keladi. “Sho‘rko‘l”, “Ko‘za”, “Chig‘ir”, “Tuzkon”, “Degish ofati”, “Xorazm dalalarida”, “Paxta karvoni” singari hujjatli film va syujetlarni suratga olib yuboradi.

Afsuski, 30-yillar oxirida avjiga chiqqan Stalin qatag‘oni Xudoybergan Devonovni ham chetlab o‘tmadi. U o‘lim jazosiga hukm qilindi.



Xorazm otlari



Ichan qal'a ko‘chalari

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Xudoybergan Devonov o‘zidan boy ijodiy meros: ko‘plab foto va kinotasmalarni qoldirgan, lekin ularning ko‘pchiligi yo‘q qilingan. Qisman saqlanib qolganlari esa turli mamlakatlar muzeylarida, davlat va shaxsiy arxivlarda saqlanmoqda.

Mustaqillik yillarida Xudoybergan Devonov haqida ko‘plab tadqiqot va maqolalar e’lon qilindi. Xususan, akademik Naim Karimov yozgan “Birinchi o‘zbek fotografi va kinooperatori” kitobi o‘zbek va rus tillarida nashr etildi. Qolaversa, AQSHning Harvard universitetida Xudoybergan Devonov hayoti va ilmiy faoliyati haqida tadqiqot olib borilmoqda.

2025-yilning aprelida Parij shahrida “Zamonlar osha nigoh: Xudoybergan Devonov merosi” deb nomlangan ko‘rgazmada uning ko‘plab noyob fotosuratlari namoyish etildi. Bu fotolar o‘z davridan qimmatli ma’lumotlar berishi bilan birga, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazmda yashagan saroy ahlidan tortib oddiy odamlarning turmushigacha o‘zida aks ettirishi bilan barcha fotografiya san’ati ixlosmandlarini hayratga soldi.

Kun.uz va Oyina.uz saytlari materiallari asosida tayyorlandi

1. Xudoybergan Devonovning fotografiyaga qiziqishi qanday boshlangan? Nemis millatiga mansub Vilhelm Penner (“Panar buva”) uning faoliyatida qanday o‘rin tutgan?
2. Sizningcha, nima uchun matnda 1908-yilgi Sankt Peterburg safarida Xudoybergan Devonovning ishtirok etishi “tasodif emasdi” deb ta’kidlanadi? Bu safar yosh fotograf faoliyatini havaskorlikdan professional darajaga olib chiqishda qanday rol o‘ynadi?
3. Xudoybergan Devonov shunchaki suratkash emas, “tarixnavis” bo‘lganini matndagi qaysi dalillar isbotlaydi? U o‘z tasmalari orqali nimalarni tarixga muhrladi?
4. Matn so‘ngida Parijdagi ko‘rgazma haqida gap boradi. Sizningcha, nima uchun oradan 100 yil o‘tib ham uning ishlari dunyo hamjamiyatini hayratga solmoqda?

3.23. Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan izohlar o‘rniga matndan mos keluvchi atamani toping va jumlani qayta ko‘chiring.

Namuna:
Xivalik vakillar guruhi tarkibida yosh fotosuratchi ham bor edi.
*Xivaliklar **delegatsiyasi** tarkibida yosh fotosuratchi ham bor edi.*

1. Devonov o‘z ijodida **xalqning urf-odati va turmush tarzini o‘rganishga oid** manzaralarni tasvirlashga alohida e’tibor qaratgan.

2. U Moskvada **harakatdagi tasvirlarni yaratish va ekranda namoyish etish san’ati** sirlarini chuqur o‘rgandi.

3. Vatanga qaytgach, u mintaqamizdagi ilk **tasvirga ishlov berish uchun maxsus jihozlangan xonani** tashkil etdi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. U “Sho‘rko‘l”, “Ko‘za”, “Xorazm dalalarida”, “Paxta karvoni” kabi **real fakt va voqealarni aynan aks ettiruvchi** filmlarni suratga oldi.

5. Afsuski, u **siyosiy sabablarga ko‘ra ta’qib etish va jazolash siyosati** qurboni bo‘ldi.

3.24. Oldingi va bugungi darsdagi matnlarni “Ishonchlilik va auditoriya” mezonlari asosida solishtiring. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Mezon	Tasviriy san’at namunalari fotosuratlardan nimasi bilan ustun?	Birinchi o‘zbek fotografi
Manba (Qayerdan olingan?)	Ilmiy jurnal (“Brain and Cognition”)	
Faktlar (Qanday ma’lumotlarga tayanilgan?)		Tarixiy sanalar, joy nomlari, shaxslar
Auditoriya (Kimga mo‘ljallangan va buni qayerdan bildingiz?)	Mutaxassislar va qiziquvchilar uchun. **Dalil:** “EEG”, “neyron” kabi murakkab atamalar ishlatilgan.	
Maqsad (Nima maqsadda yozilgan?)		Shaxs faoliyati haqida ma’lumot berish va xotirlash

3.25. “Birinchi o‘zbek fotografi” matni biografik xarakterda bo‘lib, voqealar xronologik ketma-ketlikda bayon qilingan. Matnni mazmunan 5 ta qismga ajrating va har biriga qisqa sarlavha qo‘ying.

Namuna:

1. *Yoshlik va sohaga qiziqish.*
2. *...*
3. *...*
4. *...*
5. *O‘lmas meros.*

3.26. Matndagi ma’lumotlardan foydalanib Xudoybergan Devonovning hayoti va ijodiy merosiga oid xronologik jadval tuzing. Jadvalda sanalar va shu vaqtda sodir bo‘lgan eng muhim voqealar aks etishi kerak.

Namuna:

Sana yoki davr	Muhim voqea
1879-yil	Xiva shahrida tug‘ildi.
1908-yil	* * *
30-yillar oxiri	* * *
* * *	* * *
2025-yil	Parijda uning merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochildi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3.27. “Birinchi o‘zbek fotografi” matnini qayta ko‘zdan kechiring. Muallif matnni xatboshilarga ajratishda va voqealar ketma-ketligini ulashda qanday vositalardan foydalanganiga e’tibor bering.

Leksik vositalar (sanalar va so‘zlar):
1879-yili...; 1908-yili...; 30-yillar oxirida...; Mustaqillik yillarida...

Grammatik vositalar (qo‘shimchalar):
*Vatanga qayt**gach**…; … respublikasi tuzil**gach**…*

1. Nima uchun biografik matnlarda voqealar rivojini ko‘rsatishda aynan sanalar va paytga oid so‘zlar hal qiluvchi ahamiyatga ega?
2. *“Vatanga qaytdi”* deyish o‘rniga *“Vatanga qaytgach...”* deyilishi gaplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday mustahkamlagan? Agar nuqta qo‘yib, alohida gap qilinganda, voqealar bayoni qanday o‘zgargan bo‘lardi?
3. Biografik matnni xatboshilarga bo‘lishda nimalarga asoslanish kerak?

San’at asari (kino, spektakl, kitob yoki rasm) haqida tanqidiy-tahliliy fikrlar bayon qilingan matn **taqriz** deyiladi. Taqriz shunchaki “yoqdi” yoki “yoqmadi” degani emas. Sifatli taqriz quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

1. **Kirish.** Asar haqida qisqa ma’lumot (nomi, muallifi, janri).
2. **Tahlil.** Asarning yutuqlari va kamchiliklari. Masalan, sahna asari yoki kino haqida yozganda rejissura, aktyorlik mahorati, g‘oya kabilar tahlil qilinadi.
3. **Xulosa.** Asarning bosh g‘oyasi va tomoshabinga tavsiya.

3.28. Guruhlarda ishlang. O‘zingiz yaxshi bilgan biror film yoki spektakl haqida qisqa taqriz yozishga tayyorlaning. Asar tanlashda quyidagi tavsiyalardan foydalanishingiz yoki o‘zingizga ma’qul boshqa asarni tanlashingiz mumkin. Jadvalni to‘ldirish orqali taqrizingiz rejasini tuzing.

Tavsiya etiladigan asarlar:
Filmlar: *“O‘tkan kunlar”, “Shum bola”, “Suyunchi”, “Abdullajon”, “Ilhaq”.*
Spektakllar: *“Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Temir xotin”, “Andishali kelinchak”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Imon”.*

Taqriz qismlari	Sizning tahlilingiz
Asar (nomi, rejissyori)	* * *
Yutuqlari (eng ta’sirli jihati)	* * *
Bahsli o‘rinlar (kamchiligi)	* * *
Yakuniy xulosa	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3.29. Yuqorida tuzilgan reja hamda “Teatr odamlari” matnidan olingan bilimlar asosida guruhingiz bilan tanlagan asaringizga kichik taqriz (8–10 ta gap) yozing.

Matnda fikringizni aniq va ta’sirchan ifodalash uchun quyidagi vositalardan foydalaning:
Kirish so‘zlar: *menimcha, afsuski, xulosa qilib aytganda...*
Baholash so‘zlari: *ishonarli, mohirona, sun’iy...*

Namuna:

“Abdullajon” filmiga kichik taqriz

(Kirish) “Abdullajon” filmi o‘zbek kinosining eng yorqin komediyalaridan biridir. Uni 1991-yili rejissyor Zulfiqor Musoqov suratga olgan.

(Tahlil) **E’tiborli jihati shundaki,** rejissyor o‘zbek qishlog‘ining samimiy hayotini o‘zga sayyoralik bola nigohi orqali juda **ishonarli** ochib bergan. Aktyorlarning, xususan, Rajab Adashevning Bozorboy rolidagi **mohirona** ijrosi asarning eng katta yutug‘idir. **Afsuski**, filmning ba’zi o‘rinlarida, masalan, uchar likopcha tasvirlangan sahnalarda maxsus effektlar biroz **sun’iy** chiqqanini sezish mumkin. Shunga qaramay, qahramonlarning xatti-harakatlarida jamiyatimizdagi o‘ziga xosliklar ustalik bilan ochib berilgan.

(Xulosa) **Menimcha**, asarning bosh g‘oyasi – insoniylik, mehr-oqibat va soddalik har qanday texnologik mo‘jizadan ustun ekanini ko‘rsatishdir. Bu film odamni shunchaki kuldiribgina qolmay, hayotiy qadriyatlarimiz haqida o‘ylab ko‘rishga ham undaydi. Uni barchaga tavsiya qilaman.

3.30. Partadoshingiz yozgan taqrizni o‘qing va uni quyidagi mezonlar asosida xolis baholang.

1. Mazmun. Taqrizda asarning mohiyati (yutuq va kamchiligi) aniq ochib berilganmi? Qaysi fikr sizga eng ishonarli tuyuldi?

2. Dalil. Muallif fikrini shunchaki bayon qilganmi yoki misollar bilan asoslaganmi?

3. Tuzilma. Matnda kirish, asosiy qism va xulosa bormi, u xatboshilarga to‘g‘ri ajratilganmi?

3.31. Yaqinda o‘zingiz ko‘rgan va sizda kuchli taassurot qoldirgan biror san’at asari (kino, spektakl, kitob yoki ko‘rgazma) haqida batafsil taqriz yozing. Taqrizni elektron shaklda (kompyuter yoki telefonda) tayyorlang. Uni o‘qituvchingiz bilan tahrir qilgach, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifangizda, maktab vebsaytida yoki bosma nashrlarda e’lon qiling.

Talablar:

1. Matnni kirish (asar haqida ma’lumot), tahlil (yutuq va kamchiliklari) va xulosa xatboshilariga aniq ajrating.

2. Xulosa qismida asarni nima uchun boshqalarga tavsiya qilishingiz (yoki qilmasligingiz)ni 3 ta aniq sabab bilan asoslang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



IV BOB.
TIL VA TEXNOLOGIYA


Til va kompyuter texnologiyalari uyg‘unlashuvini tasavvur qila olasizmi? Buning kundalik hayotingizda duch kelgan eng sodda shakllariga misollar ayting.

KOMPYUTER LINGVISTIKASI

I qism

Aziz o‘quvchi! Siz til va kompyuter texnologiyalari, til va sun’iy intellektning birlashuvi qanday sohalarni yuzaga keltirganini bilasizmi?

Til va kompyuter masalalarining uyg‘unlashuvi “Kompyuter lingvistikasi” deb nomlangan yo‘nalishni yuzaga keltirgan. Kompyuter lingvistikasi (yoki hisoblash tilshunosligi, inglizcha “Computational Linguistics”) – tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, inson tili tuzilishini kompyuter yordamida o‘rganish, tushunish va **modellashtirish** bilan shug‘ullanadi, u tilning nazariy tomoni (grammatika, semantika, sintaksis, pragmatika)ni kompyuter orqali tahlil qiladi. Bu yo‘nalishning asosiy maqsadi inson tilini “tushunish”, “gapirish” va “yozish” qobiliyatini kompyuterga o‘rgatishdir.




1-rasm. Kompyuter lingvistikasini yuzaga keltirgan tutash sohalar

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘zbek kompyuter lingvistikasi XX asrda matndagi so‘zlar necha marta qo‘llangani **(chastotasi)**ni hisoblash ishlari bilan boshlangan bo‘lsa, 2000-yillarda soha fizika-matematika fanlari doktori, professor Abdimajid Po‘latov tadqiqotlari bilan yanada rivojlandi. Hozirda olimning shogirdlari yangi dasturiy ishlanmalar bilan o‘zbek kompyuter lingvistikasini dunyoga tanitmoqda.

Ayni paytda sun’iy intellektga talab kuchli. Kompyuter lingvistikasida ham sun’iy intellekt metodlari qo‘llanishi natijasida “Tabiiy tilni qayta ishlash” (Natural Language Processing – **NLP**) nomli yangi soha yuzaga keldi. Bu sun’iy intellekt (AI) sohasi bo‘lib, inson tili bilan amaliy ishlash, ya’ni kompyuterning tilni tushunishi va ishlab chiqish jarayonini sun’iy intellekt metodlari yordamida avtomatlashtirishni maqsad qiladi. Bu soha tilni o‘rganish emas, balki u orqali ishlaydigan dasturiy yechimlar yaratishga qaratilgan. Mazkur sohaning asosiy maqsadi tilni amaliy jihatdan qo‘llash, ya’ni kompyuterga “til bilan ishlash”ni o‘rgatish. Asosiy vazifalari esa quyidagilar:



2-rasm. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ni yuzaga keltirgan tutash sohalar

1) avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish **(Google Translate, DeepL);**

2) matn tasnifi va sentiment tahlil (ijobiy, salbiy fikrlarni ajratish)ni amalga oshirish;

3) nutqni tanish va ovozli javob berish tizimlarini yaratish;

4) chatbotlar va virtual yordamchilarni yaratish;

5) axborot qidiruv tizimlari (masalan, matndan so‘rovga javob topish)ni qulaylashtirish;

6) til modellari **(GPT, BERT** va boshqalar)ni yaratish...

Qisqacha aytganda, kompyuter lingvistikasi tilni o‘rganadi va modellashtiradi.

NLP til asosida ishlovchi texnologiyalarni yaratadi.

Kompyuter lingvisti bo‘lish uchun tilshunoslik, kompyuter fanlari va **statistik metod**larni qamrab oladigan bilimlarni egallash talab etiladi.

4.1. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

A. Quyidagi jumlalarning to‘g‘ri (T) yoki noto‘g‘ri (N)ligini qavs ichida ko‘rsatib, daftaringizga ko‘chiring.

1. ( ) Kompyuter lingvistikasi fani til va kompyuter texnologiyalari uyg‘unlashuvi bo‘lib, tilni modellashtirish bilan shug‘ullanadi.

2. ( ) Fanning asosiy vazifasi insonga xos nutqiy qobiliyatlarni kompyuterga o‘rgatishdir.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3. ( ) Kompyuter lingvisti bo‘lish uchun faqat tilshunoslikni bilish kifoya.
4. ( ) Tabiiy tilni qayta ishlash sohasi kompyuter lingvistikasida sun’iy intellekt metodlarining qo‘llanishi tufayli paydo bo‘lgan.
5. ( ) Kompyuter lingvistikasi va NLP bir xil sohalar bo‘lib, ular orasida hech qanday farq yo‘q.
6. ( ) Kompyuter lingvistikasi tilni o‘rganish va modellashtirishga, NLP esa til asosida ishlaydigan texnologiyalar yaratishga qaratilgan.
7. ( ) NLPning maqsadi kompyuterga tilni tushunish va undan amaliy foydalanishni o‘rgatishdir.

B. Quyidagi hukmlardan qaysi biri matnning asosiy mazmunini ifodalaydi?

A) Matnda kompyuter lingvistikasining kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

B) Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasining barcha dasturlari haqida batafsil tushuncha berilgan.

D) Kompyuter lingvistikasi va NLPning maqsad-vazifalari, o‘zaro farqi hamda ahamiyati yoritilgan.

E) Sun’iy intellektning kelajakdagi rivoji haqida fikr yuritilgan.

D. Nega kompyuter lingvistikasi va NLPni rivojlantirish uchun tilshunoslik, kompyuter fanlari va statistika kabi sohalarni birlashtirish zarurligi haqida o‘z fikringizni ifodalang.

E. Kompyuter lingvistikasining ikki yo‘nalishini matndagi ma’lumotlar asosida solishtiring va jadvalni to‘ldiring.

Yo‘nalishlar	Asosiy maqsadi	Nimani o‘rganishi	Natijasi
Kompyuter lingvistikasi	* * *	* * *	* * *
NLP	* * *	* * *	* * *

F. Tushunchalarni berilgan ta’riflarga moslashtiring.

1. Avtomatik tarjima
2. Nutqni tanish
3. Matn tasnifi
4. Chatbot

a) ovozdan matnni aniqlash
b) matndagi hissiy holatni ajratish
d) savollarga avtomatik javob qaytaruvchi tizim
e) matnni bir tildan boshqasiga o‘girish

4.2. Matnda ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohli lug‘at yoki internet manbalari asosida o‘rganib, ta’riflarini yozib keling. Ushbu so‘zlar yana qaysi fan yoki sohalarda ishlatilishi yuzasidan ro‘yxat shakllantiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4.3. Tushirib qoldirilgan qo‘shtirnoqlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Qo‘shtirnoq ishlatilishi sababini izohlang.

1. 2003-yilda A. Po‘latovning Dunyoviy o‘zbek tili kitobi nashrdan chiqdi.
2. XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda mashina tarjimasi, mashina tilshunosligi terminlari qo‘llana boshlandi.
3. Tabiiy tilni qayta ishlash nomli soha inson va kompyuterning tabiiy yoki cheklangan tabiiy tilda munosabatga kirishuvini ta’minlovchi texnologiyalarni yaratish bilan shug‘ullanadi.
4. General Motors, Siemens, LG, Philips kompaniyalari avtomatik tarjimaga oid tadqiqotlarni moliyalashtiradi.
5. L. Elmsev ilmiy konsepsiya kartina emas, balki diagrammadir, degan.

Abdimajid Po‘latovning “Kompyuter lingvistikasi” kitobidan

Qo‘shtirnoq nutqni, o‘zganing gapini, asar, gazeta, jurnal, maqola, film nomini, maxsus termin yoki so‘zning kinoyali, ko‘chma ma’noda qo‘llanayotganini ko‘rsatish uchun, bevosita tilga olinayotgan birliklarni belgilash maqsadida ishlatiladi.

Qo‘llanish o‘rinlari:

1. Bevosita nutqni ajratish uchun: ***Ota dedi:*** *“Bugun kechroq qaytaman”.*

2. Asar, gazeta, jurnal, film, qo‘shiq nomlarini ajratishda: *“Yangi O‘zbekiston” gazetasining bugungi soni bosmadan chiqdi.*

3. So‘zning kinoyali yoki o‘zgacha ma’noda qo‘llanayotganini bildirishda: *U o‘zini “eng halol odam” deb biladi.*

4.4. Gaplardagi ajratilgan tushunchalarning qo‘shtirnoqqa olinish sababini to‘g‘ri ko‘rsating.

1	Kompyuter lingvistikasida sun’iy intellekt metodlarining qo‘llanishi natijasida **“Tabiiy tilni qayta ishlash”** (Natural Language Processing – NLP) nomli yangi bir soha yuzaga keldi.	→	o‘zganing gapi
2	Uning asosiy maqsadi – inson tilini **“tushunish”, “gapirish” va “yozish”** qobiliyatini kompyuterga o‘rgatish.		maxsus termin
3	Professor Abdimajid Po‘latov shunday yozadi: **“Kompyuter qog‘oz bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etdi”.**		ko‘chma ma’no
4	Mazkur sohaning asosiy maqsadi tilni amaliy jihatdan qo‘llash, ya’ni kompyuterga **“til bilan ishlash”**ni o‘rgatish.		jurnal nomi
5	1974-yildan beri AQSHda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha tadqiqotlar yoritib boriladigan **“Computational Linguistics”** jurnali nashr etiladi.		ko‘chma ma’no

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3 FAN VA TEXNOLOGIYA

Quyidagi gaplarni solishtiring. Tinish belgilaridagi farq mazmunga qanday ta’sir etayotganini izohlang.

Kompyuter lingvisti bo‘lish uchun tilshunoslik, kompyuter fanlari va statistik metodlarni qamrab oladigan bilimlarni egallash talab etiladi... / Kompyuter lingvisti bo‘lish uchun tilshunoslik, kompyuter fanlari va statistik metodlarni qamrab oladigan bilimlarni egallash talab etiladi.

Ko‘pnuqta nutqda yoki yozuvda gapning tugallanmaganini, fikrning davom etishini, his-hayajon, ikkilanish yoki so‘zlovchining to‘xtamini bildiradi.

Qo‘llanish o‘rinlari:

1. Fikrning tugallanmaganini yoki to‘xtab qolganini ko‘rsatish uchun:

Men senga aytmoqchi edimki… lekin endi kech.

2. Sanalayotgan bo‘laklarning mantiqiy davomi borligini bildirishda:

Darsda o‘qituvchi Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab… kabi shoirlar haqida so‘z yuritdi.

3. So‘z yoki gapning tushib qolgan qismini ifodalashda:

U dedi: “Men seni… kechira olmayman”.

4.5. Gaplarni ko‘chiring. O‘rgangan qoidangiz asosida ko‘pnuqtaning ishlatilish sababini yozing.

1. Kompyuter lingvistikasida tilni avtomatik aniqlash, matnni tahrirlash, semantik tahlil… kabi jarayonlar muhim o‘rin tutadi.
2. Bu matnni avtomatik tarjima qildim-u…
3. Kompyuter lingvistikasida “Python”, “Java”, “C++”… kabi tillardan foydalaniladi.
4. Modelni yana bir marta sinab ko‘rmoqchi edim… biroq server ishdan chiqdi.
5. Inson tafakkurining til orqali ifodalanishida ramzlar, assotsiatsiya, ong osti signallari… kabi yashirin birliklar muhim o‘rin tutadi.

4.6. NLP texnologiyalaridan birini tanlang (masalan: tarjima, chatbot, nutqni tanish). U qanday muammolarni hal qilishi, odamlar hayotini qanday yengillashtirishi haqida 10–12 gapdan iborat matn yozing. Matnda qo‘shtirnoq va ko‘pnuqtalardan o‘rinli foydalaning.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

II qism

1

Har qanday ilmiy yangilik, texnologik kashfiyot yoki dasturiy yechim inson tafakkuri mahsulidir. Tafakkur esa ona tili vositasida shakllanadi va ifodalanadi. Inson fikrini nutqda ifoda qiladi, fan esa shu fikrlar asosida rivojlanadi. Agar til boy va rivojlangan bo‘lsa,

fan ham tez o‘sadi. Shu sababli har bir xalq o‘z tilini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishi kerak. Masalan, ingliz tili texnologiyalar dunyosida keng qo‘llanadi. Bugun o‘zbek tili ham shu yo‘nalishda rivojlanib bormoqda. So‘nggi yillarda kompyuter texnologiyalari yordamida o‘zbek tilini o‘rganish, tahlil qilish va o‘qitish uchun turli dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilyapti. Masalan, “til korpusi” deb ataladigan maxsus elektron bazalar tuzilayotgani buning yaqqol dalilidir.

2

Fan tilning imkoniyatlari bilan rivojlanadi: yangi ilmiy tushuncha va atamalar tilda ifoda topmasa, ularni o‘rganish va qo‘llash qiyinlashadi. Shu bois zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishda ham, yangi fan sohalarini rivojlantirishda ham ona tilining boyligi va aniqligi muhim o‘rin tutadi. Tilning so‘z boyligi esa ma’nodosh so‘zlarning ko‘pligi bilan belgilanadi. Bir so‘zning ma’nodoshlari qancha ko‘p bo‘lsa, fikrni rang-barang ifoda etish, tarjimani to‘g‘ri chiqarish imkoniyati shunchalik oshadi. O‘zbek tili ham so‘zga boy va unda juda ko‘p so‘zlar (deyarli har bir so‘z)ning ma’nodoshi mavjud. Tasavvur qiling, til bu – qo‘l, kaft – tilning yadroviy xususiyatlari: fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, leksikologiyasi. Barmoqlar – nutqiy uslublar (1-rasm). Yadrodagi leksikologiya tufayli ushbu besh uslub (barmoq)ga harakat imkoniyati yaratiladi (barmoqqa qon o‘tish joyi), barmoq va kaft birlashsa, jips kuch (bir musht) bo‘ladi (2-rasm). Shuning uchun ham hozirda tilning butun imkoniyatlarini o‘zida jamlagan **Milliy til korpusi** yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.



1-rasm. Til imkoniyati va holatining kaft orqali ifodalanishi



2-rasm. Tilning bor imkoniyati uning barcha xususiyatlari birlashganda namoyon bo‘ladi.

3


Bugungi raqamli davrda texnologiyalar bilan uyg‘unlashuv har bir milliy tilning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu jihatdan o‘zbek tili ham zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlariga bosqichma-bosqich **integratsiya** qilinmoqda. Hozirgi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

davr talabi shuki, tilni kompyuterlar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt tizimlari tushunadigan shaklga keltirish uchun til korpusi va lingvistik dasturiy vositalar yaratilishi zarur. Xo'sh, til korpusi nima? Uning **elektron kutubxona**dan farqi nimada?

Til korpusi minglab matnlar, so'zlar va ifodalar to'plami bo'lib, ularni kompyuter o'rganadi va tahlil qiladi. U ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy va og'zaki matnlar hamda ijtimoiy tarmoqlar yozishmalarini o'z ichiga oladi. Bunday korpuslar yordamida kompyuter dasturlari so'zlarning ma'nosi, ularning gapdagi o'rni, uslubi va hatto talaffuzini ham tahlil qila oladi. Mana shu jihatlari bilan til korpusi elektron kutubxonadan farqlanadi.

Hozirda o'zbek tilining multikorpusi (http://uzcorpora.uz/) (3-rasm) tilimizning turli tarmoqlardagi matnlarini o'zida jamlagan, bu esa tilshunos, dasturchi va tarjimonlar uchun qulay ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu korpusda so'zlarni turli janr va uslublarda saralab qidirish, ko'plab manbalardan qidirilayotgan so'z qatnashgan gaplarni topish va ularning qo'llanish hisobini aniqlash mumkin.



3-rasm. O'zbek tili multikorpusi saytining bosh sahifasi

4

O'zbek tilining **multikorpusi** o'zbek tilini o'rganish va tahlil qilish uchun yaratilgan ko'p ta'minotli elektron platformadir. Unda o'zbek tilidagi turli kitoblar, maqolalar, darsliklar, badiiy asarlar matnli formatda jamlangan. Bu korpus yordamida o'zbek tilidagi minglab matnlarni bir joyda ko'rish va statistik hamda lingvistik tahlil qilish mumkin. **Korpus interfeysi** o'zbek, ingliz, turk va rus tillarida ishlaydi, shuning uchun undan turli mamlakat tadqiqotchilari ham foydalanishi mumkin.

O'zbek tili multikorpusining asosiy imkoniyatlari:

1) tezkor qidiruv – istalgan so'z, so'z birikmasi yoki gapni tezda topish mumkin;

2) matnlarni janr va uslubga qarab tanlash, masalan, faqat badiiy asarlardan yoki faqat ilmiy maqolalardan izlash;

3) so'zlar sonini hisoblash – tizim so'zlarning ishlatilish chastotasini avtomatik aniqlab beradi;

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4) so‘z haqida grammatik ma’lumotga ega bo‘lish – korpusdagi matnlarda mavjud so‘zlarning **kontekst menyu**da grammatik ma’lumotlari (so‘zning turkumi, kelishigi, shaxsi, soni; fe’l bo‘lsa, uning zamoni, nisbati, mayli kabilar) ko‘rsatiladi.

Bunday yirik tuzilma o‘zbek tilini sun’iy intellekt tizimlariga, tarjima dasturlariga, ovozli yordamchilarga qo‘shish imkonini beradi.

4.7. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni izohi bilan moslashtiring.

So‘z	Izohi
integratsiya	kitob, maqola, qo‘lyozma va boshqa materiallarning raqamli bazasi
elektron kutubxona	muayyan tildagi ko‘plab matnlarning elektron tarzda yig‘ilgan, kompyuter tahlil qiladigan maxsus ilmiy platformasi
milliy til korpusi	ilmiy, badiiy, rasmiy, publitsistik va og‘zaki matnlarni bir markazda to‘plab, ularni tahlil qilish imkonini beruvchi til resursi
korpus interfeysi	turli tizimlar, jarayonlar yoki sohalarning o‘zaro birlashuvi, uyg‘unlashuvi
kontekst menyu	til korpusidan foydalanish uchun yaratilgan tashqi ko‘rinish va boshqaruv oynasi
multikorpus	foydalanuvchi tanlagan so‘z yoki matn bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni ko‘rsatadigan ro‘yxat

4.8. Matn qismlarini qayta ko‘zdan kechiring va solishtiring. Har bir qism nima haqida ekanini 3–4 gapda ifodalang.

Matnning qaysi qismida obrazli ifoda, qaysi joyida esa texnik ta’rif berish ustunroq? Qaysi uslub tushunarliroq deb o‘ylaysiz va nima uchun? Fikringizni matndagi jumlalar orqali dalillang.

4.9. Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh matnning qaysidir qismini tanlab, unga mos xulosa tayyorlasin va o‘qib bersin. Xulosa matnini tayyorlash va guruhlar ishini baholashda jadvaldagi mezonlarga amal qiling.
Tavsiya: ikki guruhga bo‘linib, ikkitadan qism tanlab olinishi ham mumkin.

Mezonlar	Eng yuqori ball	Qarshi guruh qo‘ygan ball
Atamalarning to‘g‘ri qo‘llanishi	10	* * *
Faktlarning aniqligi	10	* * *
Dalillarning ishonchliligi	10	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ilmiy-ommabop uslubdaligi	10	* * *
Xulosaning ishonarli va matnga mosligi	10	* * *
	Jami:	* * *

4.10. “Men o‘zbek tili korpusini yaratsam…” mavzusida kichik ijodiy tadqiqot matni tuzing. Unda til korpusiga qanday materiallar kiritishingizni, foydalanuvchilarga qanday qulayliklar yaratishingizni, uning sun’iy intellekt rivoji va fan uchun ahamiyatini izohlang.

Uyga vazifa uchun tavsiyaviy havola:

3

4.11. Quyidagi fikrlar yuqorida berilgan matnning qaysi qismiga mos kelishini aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

A. O‘zbek tilining multikorpusi tilni o‘rganish, tahlil qilish va texnologik tizimlarga integratsiya qilish imkonini beruvchi keng funksiyali elektron platformaligi

B. Fan va texnologiya rivoji tilga bog‘liqligi uchun zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘zbek tili taraqqiyoti ta’minlanishi

D. Tilning boyligi va tizimli rivoji, ayniqsa, milliy til korpusining yaratilishi fan va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish omili ekani

E. O‘zbek tilining zamonaviy texnologiyalarga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun til korpusi kabi dasturiy-lingvistik resurslar zarurligi

1-qism ___ 2-qism ___ 3-qism ___ 4-qism ___

Tezis bu – asosiy fikr, mavzuning mohiyatini ifodalovchi eng muhim jumla yoki g‘oya. U biror mavzu, maqola, nutq yoki ilmiy ishning markaziy fikrini qisqa va aniq shaklda bayon qiladi. Tezis xulosani emas, balki matndagi asosiy fikrni ifodalaydi.

Tezisning xususiyatlari:

1. **Asosiy fikrni bildiradi** – mavzuning eng muhim g‘oyasini ifodalaydi.
2. **Aniq, qisqa va tushunarli bo‘ladi** – 1–2 jumladan iborat bo‘lib, unda ortiqcha so‘zlar bo‘lmaydi.
3. **Isbotlanadigan fikr** – tezis keyinchalik dalil, misol, tahlil orqali isbotlanadi.

Berilgan matnning 4-qismiga mos tezis namunasi:

O‘zbek tilining multikorpusi – minglab matnlar to‘plangan elektron tizim bo‘lib, u so‘zlarni oson qidirish va tahlil qilishga yordam beradi.

4.12. Berilgan matnning har bir qismiga mos tezisingizni yozing. Tezis yozish talablariga amal qiling.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

4.13. ***“Agar men multikorpus foydalanuvchisi bo‘lsam, so‘zlarni va gaplarni tez topish imkoniyatiga ega bo‘laman…”*** **boshlanmasini dalil va misollar bilan boyitgan holda davom ettirib, 8–10 gapli matn yarating.**

III qism

Ilm-fan, texnologiya, iqtisod va siyosat olamidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari tilning leksik qatlamiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yangi atamalar paydo bo‘ladi, iste’moldagi so‘zlar eskiradi, eskirgan so‘zlar zamonaviy holatda “tiriladi”. Tilning leksik sathidagi bunday o‘zgarishlar zamonaviy o‘quv lug‘atlarida o‘z aksini topmoqda. Quvonarlisi shuki, bunday lug‘atlarning siz kabi o‘quvchilar foydalanishi uchun qulaylashtirilgan mobil ilovalari ham ishlab chiqilmoqda (ularni “Play Market”dan yuklab olishingiz mumkin).

Milliy tilning dasturiy tizimlarga integratsiyasi faqat korpus yaratish bilan cheklanmaydi. So‘nggi yillarda og‘zaki nutqni yozma matnga aylantirish, yozma matnni ovozlashtirish, matnni tarjima qilish, morfologik tahlil, chatbotlar va tilga asoslangan sun’iy intellekt modellarini yaratish ishlari ham rivojlanmoqda. Hatto xorij olimlari ham dunyoda o‘zbek tilidan foydalanuvchilar safining kengayishini e’tiborga olib, o‘zbek tili bilan bog‘liq turli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishmoqda. Bularning barchasi milliy tilning raqamli muhitda faol ishlatilishi, internet hamda global texnologiyalar tizimida to‘liq o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Milliy tilni raqamlashtirish, ya’ni uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish tilimiz rivojida juda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali til nafaqat kundalik hayotda, balki kompyuter dasturlari, sun’iy intellekt tizimlari va internetda ham faol qo‘llanish darajasiga yetadi va quyidagi natijalarga erishiladi:

1. Tilni saqlash va rivojlantirish osonlashadi. Matnlar, asarlar, maqolalar va og‘zaki nutqlar elektron shaklda saqlanadi. Bu kelajak avlod uchun katta boylikdir.
2. Tilni o‘rganish uchun qulay sharoit yaratiladi. Elektron lug‘atlar, tarjima dasturlari, ovozli o‘qish va talaffuz dasturlari tilni tez va samarali o‘rganishga yordam beradi.
3. Sun’iy intellekt tizimlari o‘zbek tilini ishlatishni boshlaydi. Chatbotlar, ovozli yordamchilar o‘zbek tilida so‘zlashishni “o‘rganadi”.
4. Tilshunoslar uchun yangi ilmiy imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Til korpuslari va statistik tahlil dasturlari orqali so‘zlarning ma’nosi, qo‘llanish chastotasi va uslubi chuqur o‘rganiladi.
5. O‘zbek tili global texnologiyalar tizimiga kiradi. Dasturlar, vebsaytlar va mobil ilovalar o‘zbek tilida ishlay boshlaydi, bu esa tilning xalqaro miqyosda tanilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilini raqamlashtirish nafaqat texnologik yutuq, balki milliy madaniyatimizni, ilmiy tafakkurimizni va kelajakka ishonchimizni mustahkamlovchi muhim qadam hamdir.

Bugungi kunda o‘zbek tili fan va texnologiya tili sifatida ham shakllanib bormoqda. Tilshunoslar o‘zbek tilining elektron lug‘atlari, til korpuslari, matnni avtomatik tahlil qilish dasturlarini yaratmoqdalar. Dasturchilar esa shu til asosida sun’iy intellekt tizimlarini

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

ishlab chiqishmoqda. Demak, ona tili hamda fan va texnologiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Til – fan va texnologiyani anglash vositasi, fan va texnologiya esa tilning yangi imkoniyatlarini ochuvchi kuchdir. Ularning uyg‘unligi millatning ilmiy salohiyati va raqamli dunyodagi o‘rnini belgilab beradi. Ona tilimizni rivojlantirish uchun biz nafaqat kitob o‘qishimiz, balki uni texnologiyalar bilan moslashtirishni ham o‘rganishimiz zarur. Zero kelajakda o‘zbek tilining raqamli dunyoda ham faol ishlatilishi millatimizning ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyoti asosi hisoblanadi. Demak, fan va texnologiya o‘zaro uyg‘unlashayotgan ayni zamonda har bir o‘quvchi, har bir yosh texnologik tafakkur bilan o‘z ona tiliga e’tiborli bo‘lishi zarur. Chunki tilning raqamli rivoji – millatning ilmiy va madaniy taraqqiyotidir.

Manzura Abjalova,
filologiya fanlari doktori, professor

4.14. Matndan olingan quyidagi birikmalarni izohi bilan moslashtiring: *leksik qatlam, raqamli muhit, global texnologiya, texnologik yutuq, avtomatik tahlil.*

Namuna: ***Android tizimidagi telefon va planshetlar uchun mo‘ljallangan rasmiy mobil ilovalar do‘koni – “Play Market”.***

a) axborot (matn, ovoz, tasvir kabi) kompyuterlar, telefonlar va internet orqali elektron ko‘rinishda yaratiladigan va ishlatiladigan makon

b) fan va texnika sohasida yaratilgan muhim yangilik, kashfiyot yoki amaliy qulaylik tug‘diruvchi texnik rivojlanish

d) til tarkibidagi barcha so‘zlar yig‘indisi, ma’lum bir davrda tilda qo‘llanadigan so‘z va iboralar majmuyi

e) kompyuter dasturlarining matn yoki ma’lumotni inson aralashuvisiz, mustaqil ravishda tahlil qilishi

f) butun dunyoda qo‘llanadigan, xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan texnik vositalar va innovatsion tizimlar

1. Matnda tilning leksik qatlamidagi o‘zgarishlar nimalar bilan bog‘liq ekani aytilgan?
2. O‘zbek tilini raqamlashtirish jarayoniga izoh bering va buning xalqimiz uchun foydalarini ayting.
3. Matnda tilshunoslar va dasturchilar hamkorligida amalga oshirilayotgan ishlarga misollar keltirilgan. O‘zingiz kundalik hayotda uchratgan texnologik vositalardan qaysi biri o‘zbek tilining raqamli rivojiga misol bo‘la oladi? Javobingizni asoslang.
4. Matnda fan – texnologiya – til uchligi o‘zaro qanday bog‘langan? Muallif ularning o‘zaro ta’sirini qanday asoslaydi?
5. O‘zbek tilining raqamli muhitda rivojlanishining ahamiyati nimada va bu Vatanimiz taraqqiyoti uchun qanchalik muhim?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

4.15. **Matndan olingan quyidagi ilmiy tushunchalardan birini tanlang va uni 2–3 ta gap bilan izohlab yozing: *raqamlashtirish, sun'iy intellekt, til korpusi.***

Ilmiy-ommabop matn – ilmiy g'oyalarni keng ommaga sodda, tushunarli tilda yetkazadigan matn turi. Unda murakkab ilmiy atamalarga izoh beriladi, jumlalar qisqa va aniq bo'ladi; keng ommaga tushunarli uslubda yoziladi.

Ilmiy-ommabop matn faktlar, dalillar, ilmiy kuzatishlarga asoslanadi va unda keng ommani jalb qiluvchi misollar, hayotiy holatlar, ishonchli ma'lumotlar aks etadi. Atamalar haddan tashqari ko'p ishlatilmaydi, har bir yangi yoki tushunilishi qiyin bo'lgan atamalar izohlanadi.

4.16. **Matndan ilmiy-ommabop uslubga xos 4 ta belgini aniqlab, ularni yozib chiqing (masalan, sodda bayon, fakt, ilmiy atamalarning mavjudligi, misollar bilan tushuntirish va hokazo).**

Namuna:

Sodda bayon: *Til – fan va texnologiyani anglash vositasi, fan va texnologiya esa tilning yangi imkoniyatlarini ochuvchi kuchdir.*

Fakt: *xorij olimlari ham o'zbek tili bo'yicha dasturlar yaratayotgani*

Ilmiy atamalar: *elektron lug'at*

Misollar: *chatbotlar, ovozli yordamchilar o'zbek tilida so'zlashishni "o'rganishi"*

4.17. ***"O'zbek tilini raqamlashtirish nafaqat texnologik yutuq, balki milliy madaniyatimizni, ilmiy tafakkurimizni va kelajakka ishonchimizni mustahkamlovchi muhim qadam hamdir"*** **mavzusida ilmiy-ommabop matn yozing va unda bunday matn turi talablariga rioya qiling.**

4.18. **Bo'sh o'rinlarga qavs ichidagi vositalardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring. Mazmundagi o'zgarishlarni izohlashga harakat qiling.**

Til – fan va texnologiyani anglash vositasi, fan va texnologiya esa tilning yangi imkoniyatlarini ochuvchi kuchdir. Ularning uyg'unlashuvi millatning ilmiy salohiyati va raqamli dunyodagi o'rnini_____ belgilab beradi. Ona tilimizni rivojlantirish uchun biz nafaqat kitob o'qishimiz, balki uni texnologiyalar bilan moslashtirishni ham o'rganishimiz zarur. Zero kelajakda o'zbek tili raqamli dunyoda ham faol ishlatilsa_____ millatimizning ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyoti kuzatiladi. Demak, fan va texnologiya o'zaro uyg'unlashayotgan ayni zamonda _____ har bir o'quvchi, har bir yosh texnologik tafakkur bilan o'z ona tiliga e'tiborli bo'lishi zarur. _____ tilning raqamli rivoji – millatning ilmiy va madaniy taraqqiyotidir.

(-da, nafaqat, -gina, axir, faqat, ham)

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Quyidagi gaplarni solishtiring. Ulardagi mazmuniy farqni yuzaga keltirayotgan vositani aniqlang va u qanday uslubiy ma’noni berayotganini izohlang.

Xorij olimlari ham dunyoda o‘zbek tilidan foydalanuvchilar safining kengayishini e’tiborga olib, o‘zbek tili bilan bog‘liq turli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishmoqda. / ***Hatto*** *xorij olimlari ham dunyoda o‘zbek tilidan foydalanuvchilar safining kengayishini e’tiborga olib, o‘zbek tili bilan bog‘liq turli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishmoqda.*

Yuklamalar – so‘zlovchining munosabatini ifodalovchi va uslubiy ta’sirni kuchaytiruvchi yordamchi so‘zlar. Ular nutqda ta’kid, hissiylik, samimiyat, e’tiroz, shubha, iltimos, hayrat, afsuslanish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi.

Misollar:

1. *Voy, qanday go‘zal manzara****-ya!*** **– hayrat**
2. *Eh, endi kech bo‘ldi****-da****...* **– afsuslanish**
3. *Bu men bergan kitob emas****-ku!*** **– e’tiroz**
4. *Kelinglar****-chi****, ko‘rib chiqamiz.* **– iltimos**

4.19. Yuklamalarni aniqlang, ular gapga qanday ma’no yuklayotganini yozing.

1. Qani, o‘qing-chi.
2. Kelib ko‘r-chi yonimga.
3. Avval bu kitobni o‘qib chiqay-chi, nimalar yozilgan ekan.
4. Tezroq yursang-chi.
5. Biznikiga ham kelsang-chi.
6. Oh, qanday go‘zal kecha-ya!
7. Patirlarni qarsillatib-qarsillatib yeyman – nuqul moy-a.
8. Men dalada ishlashim kerakmi, men-a?!
9. Oybek konsert tugamasdanoq o‘rtog‘ining uyiga ildam jo‘nadi.
10. U gaplari bilan ichidagini xuddi oynada ko‘rinib turganday yaqqol namoyon qildi.

4.20. *-chi* yuklamasini qatnashtirib 5 ta gap tuzing. Gaplarda ushbu yuklama quyidagi uslubiy ma’nolarni ifodalasin: kuchaytiruv, xohish, do‘q-po‘pisa, iltimos, qistov…

4.21. Quyidagi QR kod orqali yuklamalar imlosi bilan tanishing. Ushbu yuklamalarni qatnashtirib “Texnologik taraqqiyot” mavzusida 25–30 gapli matn tuzing. Matn uslubiga yuklamalar qanchalik ta’sir etganini izohlang.

4

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



V BOB.
MATN VA TAHRIR

5.1. Quyidagi ikki gapni solishtiring. Qaysi variant fikrni aniq va ravon ifodalagan? Nima uchun?

1. Bugungi konferensiyaga qatnashgan mutaxassislar ta’lim sifatini oshirishga katta ahamiyat qaratishdi.

2. Bugungi konferensiyada qatnashgan mutaxassislar ta’lim sifatini oshirishga katta e’tibor qaratishdi.

RAVON VA MAZMUNLI MATN SARI

I qism

Siz quyi sinflarda qo‘shimcha, yordamchi so‘z, so‘z, so‘z birikmasi va iboralar, jumla darajasidagi tahrir mashqlarini bajardingiz. Birgina qo‘shimchani xato qo‘llash butun jumlaning mazmunini o‘zgartirib yuborishi, g‘alizlashtirishi mumkin bo‘lgani kabi alohida jumlalar ham xatboshi mazmuniga, hatto butun matn mazmuniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bugun siz bilan xato turlarini tasniflab, egallagan bilimlaringizni mustahkamlaymiz.

1. Qo‘shimchalar darajasi: ma’noning poydevori.

Tahrirning nozik nuqtalaridan biri qo‘shimchalardir. Amaliyotda so‘z yasovchi qo‘shimchalar yoki kelishik qo‘shimchalarini yanglish va o‘rinsiz qo‘llash bilan bog‘liq xatolar ko‘p uchraydi. Masalan, ***pulli xizmat*** birikmasini ***pullik xizmat*** shaklida ishlatganda so‘z yasovchi qo‘shimcha xatosi yuzaga keladi. Bu o‘rinda sifat yasovchi *-li* qo‘shimchasidan foydalanish to‘g‘ri. Ba’zan ijtimoiy tarmoqlardagi postlarda, og‘zaki nutqda ***behurmatsizlik*** degan so‘zga duch



RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

kelamiz. Bu – qo‘shimchalarni ortiqcha qo‘llash xatosidir. Sifat yasovchi *be-* yoki *-siz* qo‘shimchalaridan birini ishlatish zarur: *behurmatlik, hurmatsizlik*.

Amaliyotda *-ni* va *-ning, -ga* va *-da* qo‘shimchalarini almashtirib qo‘llash ham ko‘p uchraydi. Bunda so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan holat yozma nutqqa ham ko‘chib o‘tadi: *ko‘chani boshida, muammolarni oldini olish, uyga o‘tiribman.* Aslida bu birikmalar *ko‘chaning boshida, muammolarning oldini olish, uyda o‘tiribman* shaklida bo‘lishi zarur. ***Hozirda, bag‘oyatda*** kabi so‘zlarda *-da* qo‘shimchasi ortiqcha, ularni qisqartirish mazmunga salbiy ta’sir etmaydi, aksincha, so‘z ixchamlashishiga sabab bo‘ladi. ***Birgalikda, endilikda*** kabi so‘zlarda esa biryo‘la ikkita qo‘shimchaning bahridan o‘tish mumkin: *birga, endi*. Yoshlar orasida urf bo‘layotgan ***balkida, yokida*** so‘zlari ham yanglish o‘zgartirishlar natijasi, ularni *balki, yoki* shaklida qo‘llash kerak.

O‘ylab ko‘ring, og‘zaki nutqda yoki yozishmalaringizda yuqoridagi kabi birikmalarni ishlatasizmi? Nima uchun bunday xatolar yozma nutqda ko‘p uchraydi deb o‘ylaysiz?

Amaliyotda qo‘shimchalar bilan bog‘liq boshqa xato turlari ham uchraydi. Ularni matnlarni tahlil va tahrir qilish jarayonida o‘rganasiz.

2. Yordamchi so‘zlar darajasi: bog‘liqlik va ravonlik.

Yordamchi so‘zlarni o‘rinsiz qo‘llash matn ravonligiga putur yetkazadi. Masalan, zidlov bog‘lovchilari zamiridagi nisbatlash, ajratish ma’nolari **esa** so‘zida ham bor. Ularni birga qo‘llash mazmuniy takrorni, g‘alizlikni keltirib chiqaradi:

*O‘tgan gal shovqin edi, **ammo** bugun **esa** unday emas.*

Yuqoridagi jumlada yoki zidlov bog‘lovchisidan, yoki *esa* so‘zidan foydalanish kerak. Jumlalar bog‘lanishiga oid yana bir qoida gapni **va** bog‘lovchisi bilan boshlamaslikdir. ***Va*** so‘zi birikma va jumlalarda yordamchi vazifani bajaradi: so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘laydi. Shu sababli uni jumla boshida ishlatmagan afzal. Ikkita jumlani birlashtirish uchun *va* ishlatib, so‘ng gapni ajratib yozish mantiqli emas:

*U menga qaradi. **Va** indamadi.*

Tahrirda *-ki* bog‘lovchi-yuklamasiga ham e’tiborli bo‘lish zarur. Ko‘pincha u jumlani o‘zbek tili tabiatiga xos bo‘lmagan, sun’iy shaklga solib qo‘yadi: *“Bildimki, u kelgan”* jumlasiga nisbatan *“Uning kelganini bildim”* shakli tabiiyroq. Biroq fikrga kuchli urg‘u berish zarurati tug‘ilganda uni saqlab qolish o‘rinlidir: *“Shunday qichqirdiki…”*

Mantiqiy-grammatik xatolarning yana biri *na* bog‘lovchisini ishlatishda ko‘zga tashlanadi. Bu bog‘lovchi o‘zida kuchli inkor ma’nosini tashigani bois u qatnashgan gapning kesimi bo‘lishli shaklda qo‘llanishi kerak. Shu bois *“**Na** kitob o‘qimadi, **na** film ko‘rmadi”* tarzida yozish xatodir.

3. So‘z darajasi: ma’noni aniq va to‘laqonli ifodalash.

Har bir vaziyat uchun eng mos so‘zni topa bilish tahrirning qontomirlaridan desa bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar jumlaga hech qanday yangi ma’no qo‘shmaydi, shunchaki uni sun’iy ravishda uzaytiradi. Masalan, **hisoblanadi** fe’li o‘rniga ko‘pincha *-dir* qo‘shimchasini qo‘llash yoki bu so‘zni qisqartirish mumkin:

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

*Shartnoma haq to‘lash uchun asos **hisoblanadi**.*
*Shartnoma haq to‘lash uchun asos**dir**.*
Shartnoma – haq to‘lash uchun asos.

Xato bo‘lmagan, lekin muallifning uslubiga salbiy ta’sir qiladigan holatlar ham bor. Masalan, gapda ish-harakat bajaruvchisi aniq bo‘lsa, **tomonidan** so‘zini ishlatishdan saqlaning. Aniq nisbatdagi jumlalar fikrni ravon va jonli ifodalaydi:

*Olimlar **tomonidan** koronavirusning uchta yangi alomati aniqlandi.*
Olimlar koronavirusning uchta yangi alomatini aniqladi.

Yuqorida ikkitagina misol berildi. Aslida uning turlari ko‘p, so‘z darajasidagi tahrir har bir so‘zni o‘z o‘rniga qo‘yish san’atidir. Bu jarayonda matn ortiqcha so‘zlar, fikr takrorlari, chalkash paronimlar, siyqasi chiqqan so‘z va iboralar, kanselyarizmlardan tozalanadi.

1. Muallif aytgan “g‘alizlashtirish” holatiga o‘zingiz bitta misol keltiring. Noto‘g‘ri qo‘shimcha sizning misolingizda ma’noni qanday buzayotganini tushuntiring.
2. Matnga ko‘ra, kelishik qo‘shimchalarini xato qo‘llashga “so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan holatning yozma nutqqa ko‘chishi” sabab bo‘ladi. Nima uchun odamlar yozma nutqda ham og‘zaki nutq qoidalariga bo‘ysunishga moyil bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Bu holat matn sifatiga qanday ta’sir qiladi?
3. “Ammo” va “esa” so‘zlari qanday umumiy ma’no nozikligiga ega? Ularni birga qo‘llash nima uchun mazmuniy takrorga olib kelishini tushuntiring.
4. “Olimlar tomonidan aniqlandi” va “Olimlar aniqladi” jumlalari o‘rtasida ma’no jihatidan farq bormi? Uslubiy farq-chi? Qaysi biri nutqni jonliroq va ta’sirchanroq qiladi?
5. Matnda keltirilgan xatolardan qaysi birini kundalik hayotda ko‘p uchratasiz? Bitta misol keltiring va nima uchun bu xato keng tarqalgani haqida taxminlaringizni ayting.

5.2. Jadvaldagi so‘z va iboralar ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib taxmin qiling va yozing. So‘ng lug‘at yordamida tekshirib, keyingi ustunni ham to‘ldiring. Taxminlaringiz lug‘atdagi ma’noga qanchalik yaqin chiqqanini va matnning qaysi qismi so‘zning ma’nosini topishga yordam berganini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

So‘z/Ibora	Taxminim	Lug‘atda
kanselyarizm	jonli nutqqa xos bo‘lmagan “quruq” so‘zlar	rasmiy nutq va yozishmalarga xos bo‘lgan, oddiy matnda g‘aliz ko‘rinadigan so‘z va iboralar
ravon	* * *	* * *
sun’iy	* * *	* * *
g‘aliz	* * *	* * *
mantiqiy	* * *	* * *
bahridan o‘tish	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.3. Jumlalarni daftaringizga tahrir qilib ko‘chiring. Har bir jumladagi xato turini qavs ichida ko‘rsating va qisqacha izohlang.

> ***Namuna:*** *Yo‘llar ta’mirlanib, sharoitlar* ***hiyla*** *yaxshilandi.* → *Yo‘llar ta’mirlanib, sharoitlar xiyla yaxshilandi.* **(Paronimlarni chalkashtirish:** *ma’lum darajada, birmuncha* ma’nosidagi *xiyla* so‘zi o‘rniga *aldov, nayrang* ma’nosidagi *hiyla* so‘zi yanglish ishlatilgan).

1. Talabalarimizni yutuqlari bizni quvontiradi.
2. Darslarga besababsiz kelmaganlarga chora ko‘riladi.
3. U na kelmadi, na biror xabar yubormadi.
4. Bizning maqsadimiz imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tish hisoblanadi.

5.4. Matnni o‘qing. Unda bugun o‘rganilgan xatolarni toping. Guruhda muhokama qilib, matnning tahrirlangan variantini yarating va uni sinfga taqdim eting.

Bugungi kunda sun’iy idrokni imkoniyatlari ko‘pchilik tomonidan faol o‘rganilmoqda. Uning qobiliyatlari haqida ba’zilar yetarlicha ma’lumotga ega emas. Ular sun’iy idrok na rasm chizolmaydi, na musiqa yarata olmaydi deb o‘ylashadi. Aslida esa u bu kabi ijodiy vazifalarni ham bajara oladi. Shu sababli sun’iy idrokni yaxshi o‘rganish va undan to‘g‘ri foydalanish muhim hisoblanadi. Shunda sun’iy idrokni keltiradigan foydasi yanada ortadi.

5.5. Ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar saytlari yoki reklamalardan bugungi darsda o‘rganilgan xatolar (qo‘shimcha, yordamchi so‘z, ortiqcha so‘z qo‘llash)ga oid misollar toping. Ularni daftaringizga quyidagi namuna asosida yozing.

Misol: *Tadbirkorlikni rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar muhokama qilindi.*

Manba: *“Iqtisodiyot yangiliklari” telegram kanali*

Tahrirlangan variant: *Tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar muhokama qilindi.*

Izoh: *qaratqich kelishigi qo‘shimchasi (-ning) o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasi (-ni) xato qo‘llangan.*

Eslatma! Eng qiziq topilmalar keyingi darsda muhokama qilinadi.

5.6. Juftlikda ishlang. Uy vazifasida topgan misollaringizni o‘zaro muhokama qiling. Eng qiziq xatoni tanlab, uning sababini va to‘g‘rilangan shaklini sinfga taqdim eting.

5.7. Testlarni ishlang va bilimingizni tekshiring.

1. Adabiy til me’yorlariga mos, eng ravon va lo‘nda jumlani toping.

A) Yangi qonunning qabul qilinishi deputatlar tomonidan amalga oshirildi.

B) Deputatlar tomonidan yangi qonun qabul qilindi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

D) Deputatlar yangi qonunni qabul qilishdi.
E) Deputatlar yangi qonunni qabul qilish borasida ish olib borishdi.

2. Qaysi gapda xatoga yo‘l qo‘yilgan?
A) U tajribasini hamkasblari bilan o‘rtoqlashdi.
B) Bu masalani sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
D) Yangilikni ijtimoiy tarmoqlarda do‘stlaringiz bilan ulashing.
E) U sirlarini eng yaqin do‘stiga ishondi.

3. Berilgan gapning lo‘nda va ravon tahririni toping.
Asosiy maqsadimiz bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.
A) Bizning asosiy maqsadimiz bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.
B) Asosiy maqsadimiz – bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash.
D) Asosiy maqsadimiz bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.
E) Bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bizning asosiy maqsadimiz bo‘lib hisoblanadi.

5.8. Matndagi xatolarni topib, ularning sababini jadvalda aks ettiring.

So‘nggi yillarda yoshlarimizni xalqaro maydondagi yutuqlari ko‘pchilikni quvontirmoqda. Ko‘plab muvaffaqiyatlar iqtidorli o‘quvchilar tomonidan qo‘lga kiritilmoqda. Bu yutuqlar O‘zbekistonni jahon hamjamiyatida tanilishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Aynan shunday yutuqlar uchun mamlakatimizni nufuzi yanada ortmoqda.

Topilgan xato	Xato turi	Izoh
yoshlarimizni xalqaro maydondagi yutuqlari	qo‘shimcha xatosi	Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi *(-ning)* o‘rniga tushum kelishigi qo‘shimchasi *(-ni)* xato qo‘llangan.
* * *	* * *	* * *

5.9. Guruhda ishlang. Oldingi topshiriqda to‘ldirgan jadvallaringizni solishtiring. Bir-biringizning topilmalaringizni muhokama qilib, matnning yagona tahrir variantini yarating. Nima uchun aynan shunday o‘zgartirishlar kiritganingizni sharhlab bering.

5.10. Berilgan ikki jumlani ifodali o‘qing. So‘ng undov belgisi jumlaga qanday qo‘shimcha hissiy ma’no (quvonch, hayrat, g‘azab) yuklayotganini va bu ovoz ohangingizda qanday aks etganini muhokama qiling.

U keldi. U keldi!

Tinish belgilari muallif hissiyoti, nutqining ohangi va ma’no nozikliklarini ifodalaydigan kuchli uslubiy vositadir. Masalan, undov belgisi jumlaga quvonch, hayrat yoki buyruq ohangini bersa, ko‘pnuqta o‘ychanlik yoki tugallanmagan fikrni anglatishi mumkin:

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Yomg‘ir yog‘di. (faktni aytish, neytral ohang)
Yomg‘ir yog‘di? (hayrat yoki ishonchsizlik ohangi)
Yomg‘ir yog‘di! (quvonch – agar uzoq kutilgan bo‘lsa; afsuslanish – agar sayrga xalaqit bersa)
Yomg‘ir yog‘di... (g‘amginlik, o‘ychanlik ohangi)



5.11. Juftlikda ishlang. Quyidagi gapga qanday tinish belgisi qo‘yilsa, u a) hayratni; b) shubhani; d) xavotir aralash o‘ychanlikni bildiradi? Har bir holat uchun mos belgini qo‘yib, gapni partadoshingizga tegishli ohangda o‘qib bering.

Natijalar e’lon qilindi.



5.12. Quyidagi xatosiz jumlani o‘zgartirib, unda o‘rgangan tahririy xatolaringizdan kamida uch xilini (masalan, qaratqich kelishigi xatosi, ortiqcha so‘z va kanselyarizm) ataylab qo‘llang. Daftaringizga oldin asl jumlani, keyin tahrirtalab variantni yozing. Diqqat: jumla tuzilishini mazmundan keskin uzoqlashib ketmagan holda o‘zgartirish mumkin.

Maktabimiz o‘quvchilari xalqaro tanlovda g‘olib bo‘lishdi.



5.13. Berilgan ikki gapni solishtiring. Birinchi gapdagi mazmunni nima uchun ikkinchi gap aniqroq va ta’sirchanroq ifodalayapti? Fikrlaringizni juftlikda muhokama qiling.

1. Tadbirni o‘tkazish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.
2. Tadbir o‘tkazildi.



II qism

4. So‘z birikmasi darajasi: ixchamlik va ma’no nozikligi.

Tahrirda so‘z birikmalari va iboralarga ham jiddiy e’tibor berish zarur. Masalan, **muhim ahamiyatga ega** birikmasidagi *muhim* va *ahamiyat* so‘zlari aslan arabcha, bir o‘zakdan yasalgan va deyarli bir xil ma’noni takrorlaydi. Bu iborani ***muhim*** yoki ***katta ahamiyatga ega*** shaklida berish o‘rinlidir. Ba’zi iboralar o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega bo‘ladi. Misol uchun, **boshdan kechirish** iborasi ko‘proq qiyinchilik, azob-uqubat kabi salbiy holatlarga nisbatan ishlatiladi. Shu sababli ijobiy mazmundagi jumla uchun bu iborani tanlash uslubiy xatodir:

*Savdo tarmog‘i tez o‘sish davrini **boshdan kechirmoqda**.*
*Savdo tarmog‘i shiddat bilan **kengaymoqda**.*

Rasmiy matnlarda ko‘p uchraydigan kanselyarizmlardan ham qochish zarur. Uzundan uzun, murakkab birikmalar o‘rniga sodda va tushunarli muqobillarini qo‘llash matnni ancha yengillashtiradi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Taqqoslang, quyidagi ikki jumladan qay biri tushunishga osonroq va tabiiyroq? Nima uchun?

Qoidabuzarlik sodir etgan ikki fuqaroning ***shaxsiga aniqlik kiritish ishlari olib borilmoqda****.*

Qoidabuzarlik sodir etgan ikki fuqaroning ***kimligi aniqlanyapti****.*

Shunday qilib, mohir muharrir uzun va g‘aliz birikmalar o‘rniga doim qisqa, aniq va tabiiy ifodani tanlaydi.

5. Jumla darajasi: mantiq va fikrlar bog‘liqligi.

Ba’zan bitta o‘rinsiz jumla butun matn mazmuniga putur yetkazishi mumkin. Ma’no-mazmunni to‘liq va aniq anglamay gapirish qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarishga olib keladi. Masalan, bir rahbarga yozilgan maqtovda shunday deyilgan: *“Xodimlarni doim qo‘llab-quvvatlab, ruhlantirib turasiz. Baliq boshidan, deyishadi… Sizga hurmatim cheksiz”*. Parchadagi “Baliq boshidan…” jumlasi “Baliq boshidan sasiydi” degan salbiy ma’nodagi maqolning bir qismi bo‘lgani uchun butun maqtovning samimiyatini yo‘qqa chiqaradi. Hatto matn mazmunini teskari o‘zanga burib yuborishi ham mumkin.

Jumlalar mantiqan bog‘lanishi, xatboshida yagona fikrni rivojlantirishi kerak. Mana bu misolni ko‘raylik: *“Bu ibratli hikoyada e’tiborni arzimas narsalarga qaratmaslik, muhimni nomuhimdan ajrata olish zarurligi uqtirilmoqda. Zero xolis yaxshilik qilish oliyjanob insonlarga xos fazilatdir”.* Ikkinchi jumla birinchisi bilan mantiqan bog‘lanmagan. Birinchi jumlada xolis yaxshilik qilish haqida umuman gapirilmagan, umumiy mazmunda yaxshilik qilishga ishora ham yo‘q. Unda e’tiborni muhim narsalarga qaratish, ahamiyatli va ahamiyatsiz narsalarni ajrata olish haqida gap ketyapti. Demak, keyingi jumla ham shu mazmunni rivojlantirishi, davom ettirishi kerak. Aks holda uni to‘liq qisqartirish zarur.

Albatta, ushbu maqolada biz tahrirning ayrim uslubiy va grammatik jihatlariga to‘xtaldik. Professional tahrir – faktlarni tekshirish, matn kompozitsiyasini tahlil qilish, mantiqiy xatolarni topish kabi ko‘plab bosqichlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli va murakkab jarayon. Kelajakda bu sohani mustaqil o‘rganishingiz yoki u bo‘yicha maxsus ta’lim olishingiz mumkin. Unutmang: yaxshi yozish qobiliyati har qanday kasbda asqatadigan bebaho ko‘nikmadir.

Orif Tolib



RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.14. Chap ustundagi tahrirga oid tushunchalarni o‘ng ustundagi ularga mos misollar bilan bog‘lang. Topshiriqni avvalgi sahifadagi matn asosida bajaring.

Tushuncha	Misol
1. Ma’no takrori (bir o‘zakli yoki yaqin ma’noli so‘zlarni ortiqcha qo‘llash)	A) “Baliq boshidan…” degan jumlani maqtovda ishlatish.
2. Uslubiy jihatdan mos kelmaslik (iborani xato qo‘llash)	B) “… e’tiborni arzimas narsalarga qaratmaslik… Zero xolis yaxshilik qilish…”
3. Mazmunni hisobga olmaslik (maqolning asl ma’nosini unutish)	D) “muhim ahamiyatga ega” birikmasi
4. Mantiqiy uzilish (gaplarning bir-biriga bog‘lanmasligi)	E) Savdo tarmog‘i o‘sish davrini boshdan kechirmoqda.

5.15. Matnda misol sifatida keltirilgan parchani diqqat bilan o‘qing, so‘ng savollarga javobingizni partadoshingiz bilan muhokama qiling:

Bu ibratli hikoyada e’tiborni arzimas narsalarga qaratmaslik, muhimni nomuhimdan ajrata olish zarurligi uqtirilmoqda. Zero xolis yaxshilik qilish oliyjanob insonlarga xos fazilatdir.

Savollar:

1. Muallif nima uchun ikkinchi jumlani birinchisi bilan **mantiqan bog‘lanmagan** deb hisoblayapti?

2. Birinchi jumladagi asosiy fikr nima? Ikkinchi jumladagi-chi? Ular o‘rtasida qanday uzilish bor?

5.16. Yuqoridagi topshiriqda berilgan parchaning birinchi jumlasini mantiqan to‘g‘ri davom ettiradigan ikkita muqobil jumla o‘ylab toping va daftaringizga yozing. Variantlaringiz birinchi jumla bilan qanday mantiqiy bog‘lanishga egaligini, masalan, sabab-oqibatni ko‘rsatish, misol keltirish yoki umumlashtirishga xizmat qilayotganini tushuntiring.

Namuna:

1. Misol keltirish:

Masalan, hayotdagi mayda-chuyda muammolarga chalg‘ib, eng asosiy maqsadimizni unutib qo‘yishimiz mumkin.

2. Sababini izohlash:

Chunki diqqatni eng muhim vazifalarga qaratishgina bizni katta marralarga eltadi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5.17. Tasviriy matnlar sifatlash va o‘xshatishlar yordamida predmet, shaxs yoki manzarani o‘quvchi tasavvurida gavdalantiradi. Quyidagi jumlani ijodiy yondashgan holda, tasviriy matn xususiyatlaridan foydalanib jonlantirib yozing.

Yo‘laklar chetiga turli xil gullarning ekilganligi natijasida bog‘ hududida go‘zal manzaralar hosil bo‘lganligi kuzatildi.

Namuna:
Tasviriy-badiiy variant:
Bog‘ bahor libosini kiyibdi: yo‘laklar chetida bo‘y cho‘zgan qip-qizil lolalar olovday yonadi, ariqchalar labidagi nastarinlar esa muattar bo‘y taratadi *(Diqqat qiling: **qip-qizil, muattar** kabi sifatlashlar va **olovday** o‘xshatishi matnning tasviriyligini ta’minlagan).*

5.18. Quyidagi uchta jumlaning har birida bugungi darsda o‘rganilgan bittadan uslubiy yoki mantiqiy xato bor. Har bir gapdagi xatoni aniqlang va nomlang (masalan, kanselyarizm, uslubiy jihatdan mos kelmaslik, mantiqiy uzilish). So‘ng jumlani tuzatib, daftaringizga yozing.

1. Yoz oylari maktabimizda kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.
2. Bugun ajoyib bir ilm dargohiga qadam ranjida qildik.
3. Sport bilan shug‘ullanish salomatlik uchun foydali. Zero har bir inson mehnatining samarasini ko‘rishi kerak.

5.19. Juftlikda ishlang. Uyga vazifa qilib berilgan uchta jumla bo‘yicha tahrirlaringizni o‘zaro solishtiring. Har bir aniqlangan xato va taklif qilingan tuzatishlarni bir-biringizga tushuntiring. Eng yaxshi tahrir variantini birga tanlang.

5.20. Quyida bir xatboshiga tegishli jumlalar aralash holda berilgan. Ularni o‘qib chiqing va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirib, yaxlit matn hosil qiling. Keyin uni tahrirlang.

Bu g‘alabaning muhim ahamiyati shundaki, u yoshlarimizga o‘ziga ishonch tuyg‘usini berdi.

Musobaqaning final bosqichini hamma katta hayajon bilan boshdan kechirdi.

Kecha maktabimiz voleybol jamoasining g‘olib bo‘lishi bilan bog‘liq tadbir amalga oshirildi.

Chunki o‘z kuchiga ishongan avlodgina katta marralarni zabt eta oladi.

5.21. “Ravon va mazmunli matn sari (II)” matnida keltirilgan “Baliq boshidan sasiydi” maqoli bilan bog‘liq misolni eslang. Xuddi shu usulda “O‘z aravangni o‘zing tort” maqolini tahlil qiling. Bu maqol qanday vaziyatlarda to‘g‘ri va o‘rinli maslahat bo‘ladi? Qanday vaziyatlarda esa uni ishlatish xato? Har bir holat uchun bittadan misol keltiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Namuna:

O‘rinli qo‘llash:
Biror ishni boshladingmi, oxiriga yetkaz, birovning yordamini kutib o‘tirma. ***O‘z aravangni o‘zing tort.***

O‘rinsiz qo‘llash:
O‘rtog‘im imtihonga tayyorlanishga qiynalayotgan ekan, yordam so‘radi. Men esa: “Kechir, do‘stim, ***o‘z aravangni o‘zing tort****”, deb javob berdim.*

5.22. Bir fikrni turli vaziyatlar uchun turlicha ifodalash mumkin. Quyidagi jumlani namunadagi kabi ikki xil uslubda qayta yozing. Ishni tugatgach, partadoshingizniki bilan solishtiring va eng muvaffaqiyatli tahrir variantini sinfga taqdim eting.

Tahrir uchun jumla:
Kechqurun yomg‘ir yog‘di.

Namuna:

Jumla:
O‘quvchi doskaga chiqib, uy vazifasini tushuntirib berdi.

O‘rinsiz rasmiyatchilik (kanselyarizm):
O‘quvchi tomonidan doskaga chiqish va uyga vazifani tushuntirib berish harakatlari amalga oshirildi.

Jonli va obrazli ifoda:
O‘quvchi dadil qadamlar bilan doska tomon yurdi, so‘ng uy vazifasini ishtiyoq bilan tushuntirishga kirishdi, butun sinf uni jon qulog‘i bilan tinglay boshladi.

5.23. Berilgan jumlalardan birini tanlang va u asosida kanselyarizm, o‘rinsiz ibora, mantiqiy uzilish kabi xatolardan atay foydalanib biroz kulgili va g‘ayritabiiy qisqa xabar yozing. Qanday xatolarga yo‘l qo‘yganingizni qavs ichida ko‘rsating.

Tanlash uchun jumlalar:
1. Sinfimizga yangi o‘quvchi keldi.
2. Mushuk yugurib kelib sakradi va tarmashib daraxtga chiqdi, biroq tusha olmay qoldi.
3. O‘quvchi tanaffusda xattaxtani artib qo‘ydi.

Namuna:

Asl jumla:
Maktab oshxonasiga yangi oshpaz keldi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

“Teskari tahrir” natijasi:
Maktabimizning umumiy ovqatlanish obyektida kadrlar almashinuvi bilan bog‘liq jarayonlar amalga oshirildi. Yangi oshpaz o‘zining shirin taomlari bilan barchaning qalbini zabt etish davrini boshdan kechirmoqda. Zero yaxshi oshpaz – muvaffaqiyat garovidir.
(Yo‘l qo‘yilgan xatolar: kanselyarizm, uslubiy jihatdan mos kelmaslik, mantiqiy uzilish.)



5.24. O‘zingiz yozgan matnni, masalan, esse yoki ijtimoiy tarmoqdagi postni qayta o‘qib, tahrir qilasizmi? Bunda asosan nimalarga e’tibor berasiz?



5.25. Quyida turli-tuman xatolarga boy matn berilgan. Uni diqqat bilan o‘qing. Mutolaa davomida matndagi g‘alizliklar, xatolar va uslubiy kamchiliklarni daftaringizga qayd qilib boring.



TEXNOLOGIYALAR DOIM FOYDALIMI?

Bugungi kunda texnologiyalar hayotimizni har bir soxasiga chuqur singgib ketgan va turmushimizni ularsiz ko‘rish qiyin. Qo‘limizdagi oddiy smartfonlardan tortib sun’iy idrokka asoslangan murakkab texnologiyalargacha biz bilan ham nafas. Savol tug‘uladi: bu holat faqat ijobiy xususiyatlarga egami, yo salbiy oqibatlari ham bormi? Bu haqda tez-tez o‘ylanib ko‘rish zarur.

Albatta, texnologiyalarni afzalliklari bot-bot ko‘p. Ular ish unumdorligining oshiradi ma’lumot olishni qiyinlashtiradi va odamlarni o‘zaro birlashtiradi. Ana shu texnologiyalar misol tibbiyotga yangi shifo usullari ochildi, ta’limda esa, masofador o‘qish imkoniyatlari vujudga kirdi. Bular hayot sifatini sezilarli balandga olib chiqdi.

Ammo tangani ikkinchi yuzi ham bor. Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish ijtimoiy hayotdan uzulishga olib borishi mumkin. Ba’zi holatlarda vertual olam real hayotni o‘rnini egallab olayapdi. Kiberhujumlar va shaxsiy yozishmalarini mahv etilishi kabi xavflar ham mavjud. Bu holatlarning salbiy ta’siri bolalar va o‘smirlarga ko‘proq seziladi ya’ni ularning ruhiyatida hali to‘liq pishmagan.

Texnologiyalardan aqlli ishlatish uni ijobiy yaxshi jihatlarini yuzaga chiqaradi va salbiy zararini kamaytirishga yordam beradi. Muhimi – me’yorni bilish, va texnologiyalarga insoniyat taraqqiyoti yo‘liga xizmat qiladigan vosita sifatida qarashdir. Ana o‘shanda ham, texnologiya haqiqatdan ham bizda yordam ko‘rsatadi. Texnologik savodxonlikni ko‘paytirish, raqamli dunyoning imkoniyatlari va tahdidlarini qattiq anglash ham katta ahamiyatga ega. Bu yosh ajdod uchun ham, kattalar uchun ham mavjuddir. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali biz axborot oqimida adashmasdan, texnologiyalarni o‘zimiz va jamiyat manfaatlari yo‘lida unumli idora qilishimiz mumkin. Zero texnologiyalarni qanday ishlatish insonning shaxsiy o‘z qo‘lida.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.26. Matnda qo‘llangan atamalarni ularning izohlari bilan moslang.

Atama	Izohi
1. Sun’iy idrok	A) kompyuterda yaratilgan xayoliy olam
2. Virtual olam	B) kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirib, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki buzish
3. Kiberhujum	D) raqamli qurilmalardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar
4. Texnologik savodxonlik	E) inson aqliy faoliyatiga taqlid qila oladigan kompyuter tizimi

5.27. Matnni o‘qish davomida daftaringizga qayd etgan xatolaringizni tizimlashtiring. Ulardan kamida 7 tasini tanlab, imloviy, ishoraviy, qo‘shimcha, so‘z qo‘llash, kanselyarizm xatosi kabi turlarga ajrating.

5.28. Guruhda ishlang. Xatolar bo‘yicha “tashxis”laringizni solishtiring va birga muhokama qilib, matnning birinchi xatboshisini tahrirlang. Xatboshining ravon, xatosiz variantini yarating. O‘zgartirishlaringizni sinfga izohlab berishga tayyorlaning.

5.29. Quyidagi savollarni sinf bilan muhokama qiling.

1. Muallifning asosiy maqsadi nima edi? Matndagi xatolar bu maqsadga erishishga xalaqit berdimi? Qanday qilib?
2. Matnning ikkinchi xatboshisidagi “ma’lumot olishni qiyinlashtiradi” jumlasi umumiy fikrga mos keladimi? Sizning guruhingiz bu xatoni qanday tuzatdi?
3. Yaxshi tahrirlangan matn o‘quvchiga qanday ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz? Nima uchun ravonlik va aniqlik muhim?


5.30. Matnning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarini ham tahrir qilib, to‘liq maqola holiga keltiring va daftaringizga yozing. Eslatma: keyingi darsda ushbu matnning professional tahrir variantini tahlil qilasiz va o‘z ishingizni u bilan solishtirasiz.

5.31. Uy vazifangizni partadoshingizniki bilan solishtiring.

1. Qaysi xatolarni ikkalangiz ham topdingiz?
2. Siz topgan, lekin sherigingiz ko‘rmagan qanday xatolar bor?
3. Qaysi jumlaning tahriri bo‘yicha fikrlaringiz farq qildi? Nima uchun?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5.32. Quyida “Texnologiyalar doim foydalimi?” matnining professional tahrir varianti berilgan. Uni diqqat bilan o‘rganing. Qizil rang matndan olib tashlangan belgi va so‘zlarni, ko‘k rang esa matnga kiritmalarni aks ettiradi.



TEXNOLOGIYALAR DOIM FOYDALIMI?

Bugungi kunda texnologiyalar hayotimizning har bir sohxasiga chuqur singgib ketgan va turmushimizni ularsiz ko‘rish tasavvur qilish qiyin. Qo‘limizdagi oddiy smartfonlardan tortib sun’iy idrokka asoslangan murakkab texnologiyalargacha biz bilan ham-nafas. Savol tug‘iuladi: bu holat faqat ijobiy xususiyatlarga egami, yo salbiy oqibatlari ham bormi? Bu haqda tez-tez o‘lanib ko‘rish zarur.

Albatta, texnologiyalarning afzalliklari bot-bot ko‘p. Ular ish unumdorligining oshiradi, ma’lumot olishni qiyinlashtiradi osonlashtiradi va odamlarni o‘zaro birlashtiradiyaqinlashtiradi. Ana shu texnologiyalar misol sabab tibbiyotdga yangi shifo davo usullari ochildikashf etildi, ta’limda esa, masofador masofaviy o‘qish imkoniyatlari vujudga kirdikeldi. Bular hayot sifatini sezilarli balandga olib chiqdioshirdi.

Ammo tanganing ikkinchi yuzi tomoni ham bor. Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish ijtimoiy hayotdan uzuilishga olib borishi mumkin. Ba’zi holatlarda vejirtual olam real hayotning o‘rnini egallab olayaptdi. Kiberhujumlar va shaxsiy yozishmalarning mahv etilishio‘g‘irlanishi kabi xavflar ham mavjud. Bu holatlarning salbiy ta’siri bolalar va o‘smirlarga ko‘proq seziladi, ya’nichunki ularning ruhiyatida hali to‘liq pishmaganshakllanmagan.

Texnologiyalardan aqlli ishlatishoqilona foydalanish uning ijobiy yaxshi jihatlarini yuzaga chiqaradi va salbiy zararini oqibatlarini kamaytirishga ta’sir beradi. Muhimi – me’yorni bilish, va texnologiyalarga insoniyat taraqqiyoti yo‘ligda xizmat qiladigan vosita sifatida qarashdir. Ana o‘shanda ham, texnologiya haqiqatdan ham bizgda yordam ko‘rsatadi.

Texnologik savodxonlikni ko‘paytirishoshirish, raqamli dunyoning imkoniyatlari va tahdidlarini qattiq chuqur anglash ham katta ahamiyatga ega. Bu yosh ajdod avlod uchun ham, kattalar uchun ham mavjuddirdolzarbdir. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali biz axborot oqimida adashmasdan, texnologiyalarni o‘zimiz va jamiyat manfaatlari yo‘lida unumli idora qilishimiz samarali boshqarishimiz mumkin. Zero texnologiyalarni qanday ishlatish insonning shaxsiy o‘z qo‘lida.

Rasmdagi tahrir usuli “Microsoft Word”, “Google Docs”, “LibreOffice” kabi deyarli barcha matn dasturlarida mavjud bo‘lgan **“Track Changes”** (o‘zgarishlarni kuzatish) funksiyasidir.

Uning amaliy foydalari:

Hamkorlik. Bir nechta muallif yoki muharrir bitta hujjat ustida ishlaganda kim qanday o‘zgartirish kiritganini aniq ko‘rish imkonini beradi.

Nazorat. Kiritilgan har bir o‘zgartirish (tuzatish, qo‘shimcha, o‘chirish)ni qabul qilish yoki rad etish mumkin. Bu matnning yakuniy nazoratini muallifda yoki bosh muharrirda qoldiradi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

7 MATN VA TAHRIR

O‘rganish. Bu – matningizni ustozingiz yoki tajribali mutaxassisga tahrirga berib, undan o‘rganishning samarali yo‘llaridan biri. Bu funksiya yordamida aynan qayerda va qanday xatoga yo‘l qo‘yganingizni ko‘ra olasiz.

5.33. Guruhda ishlang va quyidagi savollarni muhokama qiling.

1. Muharrir kiritgan qaysi o‘zgartirishlar sizning tahriringizda ham aks etgan edi?
2. Muharrir siz sezmagan yana qanday xatolarni tuzatgan? Bu tuzatish matn sifatini qanday yaxshilagan?
3. Biror o‘rinda sizning tahriringiz namunadagidan yaxshiroq chiqqan deb hisoblaysizmi? Fikringizni asoslang.

5.34. Tahrirda ko‘pincha yagona “to‘g‘ri javob” bo‘lmaydi. Bitta g‘aliz jumlani tuzatishning bir nechta samarali yo‘li bo‘lishi mumkin. “Texnologiyalar doim foydalimi?” matnidan olingan quyidagi g‘aliz jumlaning uslubiy jihatdan farq qiluvchi, ravon variantlarini namunadagi kabi yozing.

Kiberhujumlar va shaxsiy yozishmalarni mahv etilishi kabi xavflar ham mavjud.

Namuna:
Asl jumla:
Texnologiyalardan aqlli ishlatish uni ijobiy yaxshi jihatlarini yuzaga chiqaradi va salbiy zararini kamaytirishga yordam beradi.
Tahrir variantlari:
Sodda va aniq:
Texnologiyalardan oqilona foydalanish ularning ijobiy jihatlarini yuzaga chiqarib, salbiy oqibatlarini kamaytiradi.
Mazmunga harakat-faollik qo‘shilgan:
Agar texnologiyalardan oqilona foydalansak, ularning ijobiy jihatlarini kuchaytirib, salbiy ta’sirini kamaytirishimiz mumkin.

5.35. Keyingi darsda matbuot tilining o‘zgarishini tahlil qilamiz. Unga tayyorgarlik sifatida kichik lingvistik tadqiqot o‘tkazing: kattalar (oila a’zolaringiz, qo‘shnilar, tanishlar)dan ilgari ko‘p ishlatilgan, ammo bugun kam qo‘llanadigan 3–4 ta so‘z yoki iborani so‘rab oling. Daftaringizga har birining ma’nosini va nima uchun bugun kam qo‘llanishi haqidagi taxminlaringizni yozing.

5.36. Uyda topib kelgan eskirgan so‘z va iboralaringizni muhokama qiling.

1. Nima uchun vaqt o‘tishi bilan jonli til o‘zgaradi, ba’zi so‘z va ifodalar butunlay iste’moldan chiqib ketadi?
2. Sizningcha, bizning nutqimiz bobo-buvilarimizning nutqidan qanday farq qiladi?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

TUSHUNSALAR, SEVADILAR: MATBUOT TILINING 100 YILLIK O‘ZGARISHI

Daryo.uz nashrining “Kun matbuoti tarixi” ruknini qiziqib kuzatib boryapman. Menga eng avvalo matbuot tili qiziq. Bundan 100 yo 90 yillar avvalgi matbuot mavzulari qip-qizil propaganda bo‘lsa ham, tili birmuncha shirali va xalqona ekani e’tiborimni tortdi.

Masalan, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1932-yil 14-apreldagi sonidan iqtibos:

“Karmana rayon Marjonxotin sho‘rosidagi “Oxunboboyev” kolxoziga Mamatov degan mushtumzo‘r ikki o‘g‘li bilan joylashib olgan. Bu sinfiy dushmanlar kolxozga zarba berayotirlar. Kolxozning 22 dona zotli qo‘ylarini yo‘qotdilar. Ko‘klam ishlarining g‘ildiragiga tayoq tiqish uchun urinmoqdalar. Bu mushtumzo‘rlarni tezdan tozalash kerak”.

Maqolaning nomi ham qiziq: “Mushtumzo‘r o‘z zotlarini kolxozga tortmoqda”.

Bugun shu matnni matbuotimiz taxminan bunday bergan bo‘lardi:

“Karmana tumani Marjonxotin kengashidagi “Oxunboboyev” nomli kolxozda Mamatov ismli shaxs ikki o‘g‘li bilan istiqomat qiladi. Tinchligimizni ko‘rolmaydigan, kimlarningdir nog‘orasiga o‘ynovchi mazkur shaxslar kolxozga zarba berish maqsadida g‘ayriqonuniy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqdalar. Xususan, ushbu oila jinoiy maqsadlarda o‘zaro til biriktirib, kolxozning 22 bosh zotli qo‘yini g‘araz maqsadlari yo‘lida talon-toroj qilgani aniqlandi. Hozirda ular bahorgi qishloq xo‘jalik faoliyatiga, ayniqsa, ekin-tikin ishlariga zarar yetkazish uchun tinmay harakat qilmoqdalar. Bu g‘araz maqsadli shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish uchun mas’ul tashkilotlardan zarur xatti-harakatlarni kutib qolamiz”.

Sarlavhasi ham hoynahoy “Karmanada jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan oila fosh etildi” tarzida bo‘larmidi…

Balki, bundan ham siyqaroq bo‘lardi, lekin men tusha olgan daraja shu hozircha.

Nima demoqchiman?

Til – tafakkurni aks ettiruvchi oyna. Bundan 100 yillar avval matbuot tili sodda, xalqona bo‘lgan. Murakkab ifodalar, qo‘shma gaplar emas, sodda, aniq ifodalar ustunlik qilgan. U paytlar “amalga oshirish”magan, shunchaki bajarishgan, “talon-toroj qilish”magan – yo‘qotishgan, “istiqomat qilish”magan – joylashishgan, yashashgan. 30-yillardagi “Qizil O‘zbekiston” til va uslubiyat nuqtayi nazaridan hali 1907–1910-yillarda boshlangan o‘zbek jadid matbuoti tilini butkul yo‘qotmagan, uning qisman tashuvchisi edi. Balki, shuning uchun ham odamlar matbuotni ko‘plashib qiziqib o‘qishgan va tushunishgan. Keyin esa matbuot tili xuddi qonunchilik tilidek rasmiylashdi, qiyofasizlashdi, sovuqlashdi, xalqdan yiroqlashdi.

Sizni tushunmasalar – sevmaydilar!

Shahnoza Soatova

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI





1. Muallifning fikricha, 1932-yilgi matbuot tilining qanday yutuq va kamchiliklari bo‘lgan?
2. Muallif 1932-yilgi matnni zamonaviy uslubda qayta yozganda qanday aniq o‘zgarishlar qilgan? Bu o‘zgarishlar matn ohangini qanday o‘zgartirgan?
3. Muallif “Sizni tushunmasalar – sevmaydilar!” xulosasi bilan nima demoqchi? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun matbuot tili xalq tiliga yaqin bo‘lishi muhim?
4. Bu matnning asosiy maqsadi nima – shunchaki eski gazetalarni eslab, ularni maqtashmi yoki zamonaviy matbuot tilini tanqid qilishmi? Fikringizni matndan dalillar keltirib asoslang.

5.37. Chap ustunda “Tushunsalar, sevadilar: matbuot tilining 100 yillik o‘zgarishi” matnidan olingan so‘zlar berilgan, ularni o‘ng ustundagi izohlari bilan moslang.

So‘z	Izohi
propaganda	o‘z kuchiga tayanib, boshqalarga zo‘ravonlik qiluvchi, bezori odam; sovet davrida boy dehqonlarga nisbatan qo‘llangan atama
mushtumzo‘r	fikrni ta’sirchan va o‘rinli ifodalash uchun so‘z, ibora, gaplarni tanlash hamda qo‘llash mahorati va qoidalari
siyqa	ko‘p takrorlangani uchun o‘z jozibasini yo‘qotgan, g‘oya va mazmun jihatidan sayoz
uslubiyat	biror g‘oyani, ayniqsa, siyosiy qarashlarni ommaga singdirish maqsadida tinimsiz targ‘ib qilish; targ‘ibot

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.38. Ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy yangiliklar saytlaridan bir xil mavzuda yozilgan ikki xil xabarni toping. Ularni quyidagi “Ishonchlilik mezonlari” rubrikasi asosida daftaringizda qiyoslang va qaysi biri ishonchliroq ekani haqida xulosa yozing.

Manba: kim yozgan? (Rasmiy muassasami, nufuzli saytmi yoki noma’lum shaxsmi?)
Dalil: fikrlar aniq fakt va raqamlar bilan asoslanganmi yoki faqat shaxsiy yondashuv berilganmi?
Maqsad: xabardan maqsad xolis axborot berishmi yoki sun’iy shov-shuv ko‘tarib, o‘quvchi e’tiborini tortishmi?

Ikki xil matnni qiyosiy tahlil qilganda ularni quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

1. Maqsad. Muallifning niyati nima – xabar berishmi yoki ishontirish?

Masalan: 1932-yilgi matnning ochiq maqsadi – kurashga chaqirish. Zamonaviy matn esa xolis axborot shaklida, ammo uning rasmiy uslubi o‘quvchida voqeaning jiddiyligi va jinoiy tusda ekani haqidagi tasavvurni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Til vositalari. Qanday so‘zlar va gap tuzilishidan foydalanilgan?

Masalan: birinchi matnda *mushtumzo‘r, g‘ildiragiga tayoq tiqish* kabi hissiy bo‘yoqdor so‘zlar, ikkinchisida esa *g‘ayriqonuniy faoliyat, talon-toroj qilmoq* kabi rasmiy iboralar qo‘llangan.

3. Xolislik. Muallif shaxsiy munosabatini ochiq bildiryaptimi yoki betaraf bo‘lishga intilyaptimi?

Masalan: birinchi matnda muallifning pozitsiyasi aniq *(sinfiy dushmanlar)*, ikkinchi matnda esa muallif xolis bo‘lishga harakat qilgan.

5.39. Yangiliklar saytlaridan 3–5 jumladan iborat qisqa xabarni, masalan, ob-havo, yo‘l ta’miri yoki biror tadbir haqidagi matnni topib, daftaringizga ko‘chiring. Matn ostiga bu xabarni qay tarzda jonliroq va qiziqarliroq qilish mumkinligi haqida ikkita taklif yozing.

5.40. Oldingi darsda tahlil qilingan ikki xil matbuot tili uslubini eslang. O‘sha muhokamadan kelib chiqib ikki uslub o‘rtasidagi eng muhim 3 ta farqni ayting va misollar bilan asoslang.

Namuna: Birinchi farq so‘z tanlashda ko‘rinadi. Eski uslubda *mushtumzo‘r* kabi jonli, hissiy bo‘yoqdor so‘zlar ishlatilgan bo‘lsa, zamonaviy uslubda *g‘ayriqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs* singari quruq, rasmiy iboralar qo‘llangan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.41. Juftlikda ishlang. Uy vazifasi uchun topgan xabaringizni 1932-yilgi matbuot uslubida, biroq zamonaviy tilda qayta yozing. Bu – uslubiy tajriba, maqsad esa til imkoniyatlarini o‘rganishdir. So‘zlarni o‘zgartirish, o‘xshatishlar ishlatish va muallif munosabatini ifodalashdan cho‘chimang.

Namuna:

Xabar:

Toshkent shahrining ayrim ko‘chalarida ta’mirlash ishlari olib borilayotgani sababli tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

“Jonlantirilgan” variant:

Poytaxtimiz ko‘chalarida ishlar qizg‘in! Yo‘lsozlarimiz yangi, ravon yo‘llar qurish uchun astoydil bel bog‘lagan. Ayrim shoshqaloq haydovchilarning dod-voyiga qaramay, bu xayrli ishlar tez orada o‘z mevasini berajak!

5.42. Bir voqeani turli uslubda yoritish mumkin bo‘lganidek, unga har xil uslubda sarlavha qo‘yish ham mumkin. Namunani o‘rganing: xolis, mazmunan “betaraf” sarlavha va targ‘ibot ruhidagi eski uslubga oid sarlavhani solishtiring. So‘ng o‘zingiz “jonlantirgan” xabarga xuddi shunday ikki xil sarlavha o‘ylab toping. Eng yaxshi sarlavhalar sinfda o‘qib eshittiriladi.

Namuna:

Xabar mavzusi:

Maktab kutubxonasiga yangi kitoblar keltirilgani haqida.

Xolis sarlavha:

Maktab kutubxonasi fondi yangi adabiyotlar bilan boyidi

Eski matbuot uslubidagi sarlavha:

Bilim o‘chog‘iga yetuklikka yetaklovchi yangi durdonalar keltirildi!

5.43. “Jonlantirgan” xabaringizni boshqa juftliklar bilan o‘rtoqlashing va eng muvaffaqiyatli variantlarni birga tahlil qiling. Tahlilda quyidagi savollarga javob toping.

1. “Jonlantirilgan” xabarlar qiziqarliroqmi? Nima uchun?

2. Aynan shunday uslubdagi xabar jiddiy yangiliklar saytida e’lon qilinsa, qanday muammolar paydo bo‘lishi mumkin? Masalan, “ayrim shoshqaloq haydovchilarning dod-voyi” kabi iboralar mazmunga qanday ta’sir qiladi? Muallifning voqea-hodisaga munosabati axborotning xolisligiga qanday zarar yetkazadi?

3. Xulosa qiling: sizningcha, jonli til va xolis axborot o‘rtasida muvozanatni qanday saqlash kerak?

5.44. Bob davomida matn tahriri bo‘yicha o‘rgangan qoidalaringizdan eng muhim 3 tasini o‘z ta’rifingiz bilan yozib keling.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



VI BOB.
TABIAT VA BIZ

1. Inson hayotida nabototning ahamiyati qanday?
2. Zamonaviy insonning tabiatga munosabatini qanday baholaysiz?

ALVIDO, AZIZIM DARAXT!

– Azizim daraxt! Ilk kez uchrashganimiz esingdami, o‘shanda sen quriy boshlagan-ding. Hatto mening – insonning ko‘zi bilan boqqanda, qurib bo‘lganding hisob. Oldingga bolta ko‘tarib borib, uzoq vaqt bo‘y-bastingga sarasob solib turgandim. Chunki yaqindagi-na xarid qilganim dalahovlining juda yaxshi joyida, shundoq bo‘sag‘ada, bu yerga keladi-gan odam zoti borki, bariga birdek asqatadigan – **soya tushadigan yerda** o‘sganding. **“Esizgina daraxt!”** deya chuqur bir xo‘rsingan ko‘yi o‘zagingga bolta urgandim. So‘ng yana, yana… Keyin **ilkis to‘xtagandim**. Chunki ruhim sening hayot bilan orangdagi o‘ta mustahkam va xuddi shunday nozik ip uzilmaganini sezib qolgandi. Sezishim hamono qo‘limdagi boltani bir chetga uloqtirgandim. Gunoh qilgan odam kabi qunishib yoningga yovuq kelgancha, bolta qiymalagan quruq tanangni o‘kinch bilan silagandim. Achingan-dim. Yo‘q, sengagina emas, senga achinganim qadar o‘zimga ham xo‘rligim kelgandi. **Ojizligimdan, ojizligimizdan**, bilsang…

O‘sha kundan e’tiboran seni sug‘ora boshladim. Yozning qaynoq pallasida oyog‘imni qo‘limga olib har kun shahardan sening yoningga oshiqardim. U yerda haftada ikki marta – dam olish kunlarigina suv berar ekan. Qaramasam, qurib badar ketishing aniq edi, men senga bunday qismatni ravo ko‘rmadim. Seni omon saqlab qolgim keldi. Juda seni o‘ylab emas, albatta, ko‘proq o‘zimni o‘ylab ko‘karishingni istadim. Jaziramada qochib boradi-gan joyim bo‘lsin, dedim. Lekin kutilmaganda ko‘karib ketganingni ko‘rib esa seni ham chinakamiga o‘ylay boshladim. Bora-bora shunday kunlar keldiki, faqat seni o‘yladim, **ey**

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

daraxt! Ammo ilk kezlar shahardan – 21 kilometrlik masofadan Xudo bergan kuni sen tomon chopdim. **Dalahovlining shundoq tumshug‘ida** daryo bor edi, kelib chelaklarni dang‘ur-dung‘ur qilgancha suv tashidim. Sendan boshqa daraxtlar ham ko‘p edi. Jami 53 tup edinglar. Men tong saharda qo‘limda ikki chelak bilan daryoga 53 marta tushib chiqar bo‘ldim. Har bir daraxt tagiga ikki chelakdan suv quyar va so‘ng mashinamga o‘tirib ishga jo‘nardim. Orada bir necha marta ukamni ham yordamga chaqirdim, lekin asosan bir o‘zim kelar, bundan erinmas ham zerikmas edim. Zero oldida maqsadi bor inson hech qachon zerikmaydi. Buni o‘sha paytda ham bilardim, hozir esa inchunin. Senga hamda bu dalahovlida qovjiray boshlagan qolgan 52 tup daraxtga qayta hayot bag‘ishlash mening maqsadimga aylangandi o‘shanda. Eh, maqsadga intilib yashash naqadar zavqli!..

Xullas, mehnatim samarasi uzoq kuttirmadi: bir necha hafta o‘tar-o‘tmas yo‘g‘on bilakdek keladigan tanang ostidan kurtaklar unib chiqdi. Yosh boladek quvonganim hanuz yodimda! Keyin ular ko‘payishib, asta-sekin bachkiga aylanishdi. Men sening qurib qolgan o‘zagingga qo‘shib, kichik bachkilarning hammasini kesib tashladim. Faqat uch-to‘rtta kattaroq bo‘lib qolgan shoxlaringnigina saqlab qoldim. Xullas, bir necha yil ichida ko‘z o‘ngimda muhtasham bog‘ paydo bo‘ldi. Ha, qilgan mehnatlarim, chekkan zahmatlarim zoye ketmagan edi. Sen esa mana shu bog‘ning eng suyumli, eng kerakli daraxtiga aylanding! Nega, deysanmi? Chunki sen boshqa hamma daraxtlardan ko‘ra menga yaqinroq joyda o‘sib turarding. **Ko‘zga yaqin – ko‘ngilga yaqin,** deydi bizning qavm. O‘ylab qarasam, bu gap odam bilan odam munosabati uchungina aytilgan emas ekan, odam bilan daraxt munosabatiga ham to‘g‘ri kelarkan. Xullas, yashab ketsang, yashnab ketsang, mening dalahovlidagi tirikchiligim asosan sening atrofingda kechadi, deb taxmin qilardim. Ilk damlar, seni ko‘kartirib olish uchun endi-endi suv tashiy boshlagan vaqtlarim “Mayli, meva bermasa ham, faqat uyim oldida ulg‘ayib soya bersa, shamolda shovullab tursa, bas”, deb o‘ylaganman. Sen avval qaddingni tiklab ko‘zga ko‘rinding. **Yana biroz fursat o‘tib esa meva tugding!** Ha-ha, men tanangning chor tomonida omon saqlab qolganim shoxlar nafaqat quyuq soya berdi, ayni damda larzon-larzon hosil ham hadya qildi. Uzoq mashaqqatlardan so‘ng mening kaftimga tutganing – ilk mevani tatib ko‘rarkanman, butun borlig‘imni allaqanday sirli bir zavq, quvonch, shukronalik va hayrat tuyg‘ulari qamrab olgandi. Men senga ikki chelak suvga qo‘shib mehrimni ham bergandim – eslayman. Endi qara, sen kaftimga mevangga qo‘shib o‘zligingni, borlig‘ingni, jon-taningni to‘karding…

Oradan qatorlashib yillar o‘tdi. Bu vaqt mobaynida men dalahovlimni ancha sarishtalab oldim. Endi u yerga nafaqat o‘zim borardim, balki qarindoshlarim, do‘stlarim, goho ularga qo‘shilib tanishlarim ham kela boshlashdi. Ko‘pchilik keldi, judaaa ko‘pchilik! Lekin hamma kelib ketar edi-yu, bir sen yonimda qolarding. Hatto men ketsam ham, sen qolarding. Askar kabi! Vatanni qo‘riqlayotgan askar kabi! Ulkan va yemirilmas qoya singari!..

Ulug‘bek Hamdam

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.1. Matnda jadvaldagi so‘zlar badiiy-publitsistik matn yaratishda qanday uslubiy vazifa bajarganini izohlang. Ularning ma’nodoshlarini topib, jadvalga yozing.

Matndan olingan leksik birliklar	Ma’nodosh so‘zlar
bo‘sag‘a	* * *
qunishmoq	* * *
badar ketmoq	* * *
bachki	* * *
inchunin	* * *
yovuq	* * *

So‘zlar: g‘oyib bo‘lmoq, yaqin, g‘ujanak bo‘lmoq, shuningdek, o‘simlik tanasi tagidan o‘sib chiqqan mayda shox, ostona.

1. Matnda inson va tabiat o‘rtasidagi qanday munosabat haqida fikr yuritilgan?
2. Muallif nega daraxtga **“azizim”** deb murojaat etadi?
3. Muallifning **“Eh, maqsadga intilib yashash naqadar zavqli!..”** degan izhori sababi nima?
4. Muallifning ushbu matnni yaratishdan bosh maqsadi nima?

6.2. Matn uslubini aniqlang, badiiy-publitsistik matn talablariga moslik darajasini ayting. Har bir mezon talabiga matndan misollar keltiring.

T/r	Badiiy-publitsistik matn	Izohi	Mos/Mos emas
1	Obrazlilik kuchli	Badiiy tasvirlar, metafora, sifatlash, o‘xshatish, obrazli ifodalar mavjud.	* * *
2	Hissiy ta’sir kuchli	Muallifning hissiyotlari: quvonch, hayrat, achinish aks etgan.	* * *
3	Muallif munosabati mavjudligi	Muallif pozitsiyasi badiiy ifoda bilan boyitilgan.	* * *
4	Hikoya qilish usuli	Voqea kichik syujetga ega, badiiy tarzda bayon etilgan.	* * *
5	Fakt va tasavvur uyg‘unligi	Matnda ham real, ham badiiy qiyoslar mavjud.	* * *
6	Lo‘nda va ta’sirchan til	Badiiylik kuchli bo‘lgani sababli ta’sirchanligi yuqori.	* * *
7	Inversiya hodisasi	Gap bo‘laklari tartibi o‘zgargan.	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.3. Matndagi badiiy tasvir asosida yaratilgan gaplarni o‘qing. Muallif nega bu usuldan foydalanganini tushuntiring. Ularni oddiy darak gaplarga aylantirib yozing. O‘zgarishlarni izohlang.

1	Qaramasam, qurib badar ketishing aniq edi, men senga bunday qismatni ravo ko‘rmadim.	Qurib qolishingni istamadim.
2	Oldingga bolta ko‘tarib borib, uzoq vaqt bo‘y-bastingga sarasob solib turgandim.	* * *
3	Sezishim hamono qo‘limdagi boltani bir chetga uloqtirgandim. Gunoh qilgan odam kabi qunishib yoningga yovuq kelgancha bolta qiymalagan quruq tanangni o‘kinch bilan silagandim.	* * *
4	Yozning qaynoq pallasida oyog‘imni qo‘limga olib har kuni shahardan sening yoningga oshiqardim.	* * *
5	Senga hamda bu dalahovlida qovjiray boshlagan qolgan 52 tup daraxtga qayta hayot bag‘ishlash mening maqsadimga aylangandi o‘shanda.	* * *
6	Uzoq mashaqqatlardan so‘ng mening kaftimga tutganing – ilk mevani tatib ko‘rarkanman, butun borlig‘imni allaqanday sirli bir zavq, quvonch, shukronalik va hayrat tuyg‘ulari qamrab olgandi.	* * *
7	Ko‘pchilik keldi, judaaa ko‘pchilik! Lekin hamma kelib ketar edi-yu, bir sen yonimda qolarding.	* * *

6.4. Matnda ta’sirchan nutq yaratishga xizmat qilayotgan birliklar qanday uslubiy vazifa bajarayotganini izohlang. Jadvalni davom ettiring.

T/r	Matnda keltirilgan jumla	Ta’sirchan nutq yaratishga xizmat qilayotgan vosita	Uslubiy vazifasi
1	Azizim daraxt!	Egalik qo‘shimchasini olgan undalma	Yaqinlik munosabatini yuzaga keltirgan.
2	**Ojizligimdan, ojizligimizdan…**	So‘z takrori	Ta’kidlash ma’nosini kuchaytirgan.
3	Bariga birdek asqatadigan – **soya tushadigan yerda…**	Ajratilgan bo‘lak	Izohlash ma’nosini kuchaytirgan.
4	Esiz**gina** daraxt!	Erkalash qo‘shimchasi	Achinish ifodasini yaratgan.
5	**Nega, deysanmi?**	Ritorik so‘roq gap	* * *
6	Yosh bola**dek** quvonganim hanuz yodimda!	O‘xshatish qo‘shimchasi	* * *
7	**Ko‘zga yaqin – ko‘ngilga yaqin...**	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

8	**Yo‘q,** sengagina emas**...**	* * *	* * *
9	Ko‘pchilik keldi, **judaaa ko‘pchilik**!	* * *	* * *
10	Dalahovlining shundoq **tumshug‘ida...**	* * *	* * *
11	**...**	* * *	* * *



6.5. Hovlingiz yoki ko‘changizdagi eng keksa daraxtni kuzating. Uning tili bo‘lganida, nima haqida so‘zlab berardi? “Keksa daraxt bilan suhbat” mavzusida badiiy-tasviriy matn yozib keling. Matnni ifodali o‘qib berishga tayyorlaning.



6.6. “Alvido, azizim daraxt!” matnidan olingan iboralar ma’nosini lug‘at yordamida aniqlang. Ularning ma’nodoshlarini yozing. Iboralar matn mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatganini izohlang.

Ibora	Iboraning ma’nodoshi
Badar ketishing	* * *
Chekkan zahmatlarim	* * *
Qaddingni tiklab	* * *
Ko‘zga ko‘rinding	* * *
Ko‘zga yaqin	* * *
Ko‘ngilga yaqin	* * *
Oyog‘imni qo‘limga olib	* * *
Xudo bergan kuni	* * *



6.7. She’rni o‘qing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni toping. Ularning she’riy nutqqa ta’sirini izohlang.

* * *

Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,
Tikilganim sari o‘sadi ko‘nglim.
Ularga quloq sol, ularni tushun,
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.

Jasur bo‘l, ko‘zingda ko‘rmay sira yosh,
Har qanday alamni ichingga yut jim.
Do‘stlardan azizroq, do‘stlardan baland,
Daraxtlar hech qachon sotmaydi, o‘g‘lim.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Qachondir barvasta yigit bo‘larsan,
Toleyingni ko‘rib to‘lgaydir ko‘nglim.
Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.

Halima Ahmedova

Yuzaga kelish asosiga ko‘ra ma’no ko‘chishining **metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik** singari turlari bor.

1. Metafora *predmetlar o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishidir. Metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.*

Suhbatimiz ***cho‘zilib ketdi*** (harakat o‘xshashligi).

2. Metonimiya *– narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida ma’no ko‘chishi. U nutqimizni ixcham va ravon qilishga yordam beradi.*

Navoiyni *o‘qidim* (Navoiyning o‘zi emas, uning **asari** nazarda tutilmoqda).

3. Sinekdoxa *bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi. Ma’no ko‘chishining bu turi ham nutqimizning ta’sirchan, ifodali, jozibali bo‘lishida katta ahamiyatga ega.*

U mening ***jigarim.*** *(U mening* ***ukam,*** ya’ni **jigar** ukaning bir qismi).

4. **Vazifadoshlik** *– narsa va hodisalar o‘rtasidagi vazifaviy birxillik asosida ma’no ko‘chishi.* ***Vazifadoshlik*** *asosida vujudga kelgan so‘zlarni bilish, ularning ilgari qanday narsalarni ifodalaganini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanini his qilishimizga yordam beradi.*

Chegarachilarimiz sarhadlarimizni ***ko‘z bo‘lib, quloq bo‘lib*** *qo‘riqlamoqda* (ko‘z, quloq vazifasini bajarishmoqda).

6.8. Daraxtlar haqida berilgan ma’lumotlarni o‘qing. O‘zingiz bilgan boshqa ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni topib, daftaringizga yozing. Ko‘chimning qaysi turi qo‘llanganini aniqlang.

1. Daraxtlar ham bir-biri bilan “gaplashadi”. Tadqiqotlarga ko‘ra, daraxtlar ildizidagi maxsus zangori qoplama orqali bir-biri bilan axborot almashadi.
2. Daraxtlar ham “nafas oladi”. Bir gektar sog‘lom o‘rmon bir sutkada 18 nafar odamga yetarli kislorod ishlab chiqaradi.
3. Eng keksa daraxt AQSHdagi 5000 yillik “Metuzala” nomli qarag‘ay daraxti hisoblanadi.
4. Daraxtlar sayyoramiz haroratini pasaytiradi. Katta soyali bitta daraxt atrofdagi haroratni 5–8 ºC gacha pasaytira oladi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5. Bitta daraxt bir yilda 20–30 kg karbonat angidrid gazini yutadi. Bu orqali atmosferani tozalaydi va issiqxona gazlarini kamaytiradi.

6.9. “Alvido, azizim daraxt!” matnidan olingan gaplardagi ma’no ko‘chishi turini aniqlang va matn mazmuniga ta’sirini tushuntiring.

T/r	Gaplar	Ma’no ko‘chishi turi
1	…dalahovlining juda yaxshi joyida, shundoq **bo‘sag‘ada**, bu yerga keladigan odam zoti borki, bariga birdek asqatadigan – soya tushadigan yerda o‘sganding.	* * *
2	Chunki **ruhim sening hayot bilan orangdagi o‘ta mustahkam va xuddi shunday nozik ip uzilmaganini** sezib qolgandi.	* * *
3	**Yozning qaynoq pallasida** oyog‘imni qo‘limga olib har kuni shahardan sening yoningga oshiqardim.	* * *
4	**Jaziramada qochib boradigan** joyim bo‘lsin, dedim.	* * *
5	**Dalahovlining shundoq tumshug‘i**da daryo bor edi.	* * *
6	…**yashnab** ketsang, mening **dalahovlidagi tirikchiligim** asosan sening atrofingda kechadi.	* * *
7	**Uzoq mashaqqatlardan** so‘ng mening kaftimga tutganing – ilk mevani tatib ko‘rarkanman, butun borlig‘imni allaqanday **sirli bir zavq**, quvonch, shukronalik va hayrat tuyg‘ulari qamrab olgandi.	* * *

6.10. Badiiy asarlardan jadvaldagi so‘zlar yoki u bilan bog‘liq birliklarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishiga misol topib, namunadagidek yozing. Ma’no ko‘chishi turini aniqlang.

T/r	Ko‘chma ma’noda qo‘llash uchun so‘zlar	Badiiy asardan misollar	Ko‘chim turi
1	Tuproq	**Tuproq o‘ch oladi** navbatma-navbat, **Toshlar shivirlaydi** siz yiqilgan kun. (Dadaxon Nuriy)	metafora
2	Bulut	Hiqillab **ko‘z yoshin to‘kar bulutlar**, Olamning ko‘ylagi bo‘lib ketdi ho‘l. Sira ovunmadi tonggacha ular Quchoqlaganicha osmonni nuqul. (Kubarro Bahromova)	metafora
3	Tabiat	* * *	* * *
4	Daraxt	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5	Suv	* * *	* * *
6	Havo	* * *	* * *
7	Qushlar	* * *	* * *

1. Nega “Suv – hayot manbayi” deyiladi?
2. Yurtimizda suvni tejash bo‘yicha qanday amaliy ishlar olib borilmoqda?
3. Suv tanqisligining oldini olish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz?



SUVNI ASRASH – INSONIYAT BURCHI

I

Suv haqida gap ketsa, bolaligim ko‘z oldimga keladi. Qishlog‘imiz buloqdan suv ichardi. Erta bahorda mahalla ahli oqsoqollar boshchiligida hashar qilardi. Buloqboshi mol va boshqa hayvonlar o‘tmaydigan qilib to‘silar, ariq bosh-adoq qirtishlab tozalanar edi. O‘sha joyda **jonliq** so‘yilib, **doshqozon** osilar, nuroniylar yilning barakali kelishini so‘rab duoga qo‘l ochar, xullas, suvning hurmatini qilishardi. Ezgu so‘z va amal birlashar edi. Ha, biz suvni qadrlash, unga tuflamaslik, chiqindi tashlamaslik shart ekanini ko‘rib ulg‘aygan avlodmiz. Keyinchalik bunday amallar so‘zga ko‘chdi, suvning azizligi faqat tilda qoldi. Tabiatga bepisand qarash vujudga keldi. Odamlar tabiatdan uzoqlashgani sari muqaddas tuyg‘ularini boy bera boshladi.

II

Achchiq haqiqat shuki, suvga munosabat butkul o‘zgardi. Bugun ariqlar, dengiz va okeanlar odamlar tashlagan chiqindilarga to‘lib borayotir. Suvning xotirasi bor. U yaxshilik va yomonlikni farqlay oladi. Ancha yillar oldin bir tadqiqot o‘tkazilgan: olimlar bir joydan olingan suvni ikki idishga quyib, ularga bir siqimdan guruch soladi. Keyin ikkala idish alohida joyda saqlanib, ularning biriga yaxshi gaplar, ikkinchisiga so‘kish-u qarg‘ish “eshittirilgan”. Yomon gap eshitgan suvdagi guruch aynib, qorayib ketadi. Bunisida esa aksi – guruchning rangi u solingan suv kabi tiniqlashadi. Shu kabi tadqiqotlar bir necha marta o‘tkazildi va suvning odam kabi ma’lumotlarni qabul qilish, saqlash hamda tashish xususiyati bor degan yakdil qarorga kelindi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bilamizki, inson tanasining katta qismi suvdan iborat. Hayvonot va nabotot olaminiki ham. Binobarin, bizga suv emas, toza suv yetishmayapti. Aslimiz, tabiatimiz kirlashmoqda. Bugungi toza suv taqchilligi ham aslida tabiatga munosabatimizning natijasi. Tabiatda hech narsa o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Hammasiga bir sabab bor. Jumladan, bugungi ichimlik suv taqchilligining sababi insoniyatning keyingi ikki asrlik jadal texnik taraqqiyotiga bog‘liq.

III

Darhaqiqat, dunyo mislsiz texnik rivojlanishga erishdi. Inson tuyg‘ulari shunga mutanosib ravishda globallashdi, qadriyatlar, xususan, tabiatga munosabat esa aks tomonga o‘zgardi. Inson o‘zini tabiatning bir qismi emas, xoqoni kabi tuta boshladi. Endi shu jarayonning og‘ir oqibatlari yuzaga chiqyapti. Suv yetishmasligi butun dunyoda global muammoga aylandi. Iqlim o‘zgarishlari hamma yerda kuzatilmoqda. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, yaqin qirq yilda Yer sharidagi harorat 0,5 darajagacha (eng past ko‘rsatkich) tushgan, 2,5 darajagacha (eng yuqori ko‘rsatkich) esa ko‘tarilgan. Xususan, 2050-yilga borib Markaziy Osiyoda suv taqchilligi kuchayishi mumkin degan taxmin ilgari surilmoqda. Bu holat dunyo xalqlari uchun ham jiddiy ogohlantirish deya baholanmoqda. Negaki, sayyoramizdagi ma’lum hududda iqlim o‘zgarishi, suv kamayishi boshqa mintaqalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv taqchilligi esa insoniyatning muqarrar inqirozidir. “Suv – hayot”, deb bekorga aytilmagan. Suv bo‘lmasa, hech narsa unib-o‘smaydi. Oziq-ovqat yetishmaydi. Shu bois qadim ajdodlar doim suv bo‘ylariga ko‘chib, o‘sha yerlarni makon tutishgan.

IV

Zamonamizga kelib inson kashf etgan texnik taraqqiyot suvning aylanma harakatiga soya tashladi. Minglab, millionlab zavod-u mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlar havoda karbonat angidridning ko‘payishiga olib keldi. Oqibatda bug‘ bo‘lib havoga ko‘tarilgan suvning ma’lum qismi yaroqsiz bo‘lib qolayotir. Shuningdek, havoga ko‘tarilgan zaharli gazlar osmonning yuqori qismlarida yupqa parda hosil qilib, yerdagi ortiqcha issiqlikning koinotga tarqalib ketishiga to‘siq bo‘lib qoldi. Buni parnik effekti – issiqxona hodisasi deb atashadi. Havo qancha issiq bo‘lsa, bug‘ning bulutga aylanishi shuncha qiyin kechadi. Samoda suv bug‘larining keragidan ortiqcha to‘planishi esa ulkan bulut, katta yomg‘ir deganidir. Bunday yomg‘ir asosan savalab yog‘adi. Bu, o‘z navbatida, tabiiy ofatlar, jumladan, jala va toshqinlarni keltirib chiqaradi. Tuproq bunday suvni to‘la o‘zlashtira olmaydi. Ba’zilar tez bug‘lanish suv tanqisligiga barham beradi, deb o‘ylaydi. Ammo bunday emas. Tez bug‘lanish oqibatida o‘simliklar keskin kamayib ketadi. Chunki ular kecha-yu kunduz tinim bilmagan odam kabi bug‘lanishdan charchaydi. Ko‘pincha don hosil qoldirishga ulgurmay, qovjiraydi. Tabiat muvozanati shu zayl izdan chiqadi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

V

Qadimda bobolarimiz sel yo‘llarini to‘sib, ko‘l hosil qilgan. Bunday ko‘llar qoq deyilgan. **Qoq**da avval mollarini sug‘orishgan. Suv tugagach, mana shu nam yerda lalmi dehqonchilik qilishgan. Poliz va dukkakli ekinlar mo‘l hosil bergan. Muhimi, bunday joyda suv yer ostiga ko‘proq singib, keyin u toza suv sifatida o‘zimizga qaytadi. Boz ustiga, yer qa’ridagi haroratning pasayishiga, demak, bug‘lanishning ham kamayishiga xizmat qiladi. Bu narsalar kimgadir jo‘n tuyular, lekin zamonaviy usullarda yangicha vositalarni izlab topsak, foydali bo‘lishi aniq.

Ko‘pchilik suvni asrash uchun uni tejab ishlatish kerak degan xulosada. To‘g‘ri, suvni tejash, ayniqsa, yer qa’ridan olinadigan ichimlik suvini ko‘z qorachig‘iday asrash shart. Shunda u keskin kamayib ketmaydi. Lekin bu bizning suvni asrashdagi vazifalarimizdan bittaginasi xolos. Aslida zavodlardan chiqayotgan zararli gazlarni kamaytirish, mashinadan kamroq foydalanish ham suvni tejash degani. Toshkentda ishxonalar atrofi shaxsiy avtomobillar bilan to‘la. Ulov qo‘yishga joy topilmaydi. Ularning deyarli barchasidan faqat bir kishi, o‘sha ishxonaga kelgan shaxs foydalanadi. Agar ularning hech bo‘lmaganda yarmi jamoat transportidan foydalansa, zararli gaz miqdori keskin kamayadi. Tabiat nafas olishi uchun toza havo ko‘payadi. Azim cho‘qqilarda yana qor ko‘rina boshlaydi.

Tabiatning nafas olishi yashillik dunyosiga bog‘liq. Daraxtlarni ko‘paytirish ham suv tejashning samarali usullaridan hisoblanadi. Afsuski, bu borada ham og‘riqli nuqtalarimiz ko‘p...

Usmon Norqulov

6.11. Matnda qo‘llangan so‘z va iboralar ma’nosini izohlang.

jonliq	ko‘z oldiga keltirmoq
doshqozon	boy bermoq
qoq	soya tashlamoq
jala	tilda qolmoq
globallashmoq	so‘zga ko‘chmoq

1. Matnda muallif **“achchiq haqiqat”** deb nimani aytgan?
2. **“Keyinchalik bunday amallar so‘zga ko‘chdi”** jumlasi orqali nima nazarda tutilgan?
3. **Tabiatda hech narsa o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasligini** isbotlay olasizmi?
4. **“Suvning xotirasi bor”** degan jumlani qanday tushundingiz?
5. Inson kashf etgan texnik taraqqiyot suvning aylanma harakatiga qanday ta’sir etishi mumkin?
6. Tabiat muvozanati nima? Uning izdan chiqishi sabablarini tushuntiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.12. Matn qismlari va mazmuniy tuzilishini moslashtiring. Guruhlarga bo‘linib, har bir qism mazmunini qisqacha gapirib bering.

Matn qismi	Mazmunni ifodalovchi “kalit” gap
I qism	A) Suv yetishmasligi butun dunyoda global muammoga aylandi.
II qism	B) Suvni tejash, ayniqsa, yer qa’ridan olinadigan ichimlik suvini ko‘z qorachig‘iday asrash shart.
III qism	D) Ezgu so‘z va amal birlashgan edi.
IV qism	E) Inson kashf etgan texnik taraqqiyot suvning aylanma harakatiga soya tashladi.
V qism	F) Tabiatda hech narsa o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi.

6.13. Matndan olingan gaplardagi ko‘chma ma’no turini toping.

T/r	Matndan olingan gaplar	Metafora	Metonimiya
1	Qishlog‘imiz buloqdan suv ichardi.	* * *	* * *
2	Keyinchalik bunday amallar so‘zga ko‘chdi, suvning azizligi faqat tilda qoldi.	* * *	* * *
3	Aslimiz, tabiatimiz kirlashmoqda.	* * *	* * *
4	Dunyo mislsiz texnik rivojlanishga erishdi.	* * *	* * *
5	Endi shu jarayonning og‘ir oqibatlari yuzaga chiqyapti.	* * *	* * *
6	Zaharli gazlar osmonning yuqori qismlarida yupqa parda hosil qiladi.	* * *	* * *
7	Achchiq haqiqat shuki, suvga munosabat butkul o‘zgardi.	* * *	* * *
8	Tabiat muvozanati shu zayl izdan chiqadi.	* * *	* * *
9	Tabiatning nafas olishi yashillik dunyosiga bog‘liq.	* * *	* * *
10	Afsuski, bu borada ham og‘riqli nuqtalarimiz ko‘p...	* * *	* * *

6.14. Ko‘chma ma’no turini topib, gaplarni daftarga ko‘chiring. Ayrimlarida bir nechta ma’no ko‘chishi kuzatilishi mumkinligini inobatga oling. Jadvalni davom ettirib, har bir ma’no ko‘chishi turiga 2 tadan misol yozib keling.

Ko‘chma ma’noli gaplar	Ma’no ko‘chishi turi
Hamma joyda hayot yallasi, Yana chiroy ochadi o‘lkam.	metafora
Ramazon aytib keldik eshigingizga.	* * *
Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin, quyosh tig‘ida, Tog‘lar orasida yotibman bejon.	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

U hozirgi bir necha shoirlarning eski shaklda, bachkana mazmunli she'rlaridan misollar keltirib majlisni kuldirdi.	* * *
Yashil kiygan dalalar, qirlar, gullar sochar ifor – atirlar...	* * *
Kuz kunlarining adog'i va qish kunlarining boshi edi.	* * *
Zar kokilin taratdi quyosh, Tabassumin yoydi har tomon.	* * *
Direktorning xonasidan chiqdi: rangi devor edi.	* * *
Oshpazlar avlodidanmiz, quyuqni ham, suyuqni ham boplaymiz.	* * *
Nega ustingni kir qilding?	* * *
Daryo bo'yidagi maysalar ko'kara boshladi.	* * *
Mahallamizda begona oyoqlar ko'payib qoldi.	* * *

6.15. Tabiat haqidagi iqtiboslarga munosabat bildiring. Ularni o'zlashtirma gapga aylantirib yozing. Shakliy o'zgarishlarni tushuntiring.

Masalan, Tabiatni asrash – Vatanni asrash demak. (Mixail Prishvin)

Prishvin tabiatni asrash Vatanni asrash ekanligini aytgan.

1. Yer insonning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli, ammo ochko'zligini emas. (Mahatma Gandi)

2. Biz tabiatni emas, o'z kelajagimizni himoya qilamiz. (Robert Svan)

3. Tabiatga qarshi har qanday tajovuz aslida insoniyatga qarshi urushdir. (Vandana Shiva)

4. Tabiat hamma narsaga shunchalik g'amxo'rlik qilganki, hamma joyda o'rganish uchun nimadir topasiz. (Leonardo da Vinchi)

5. Tabiat har doim haq. Xatolar va aldanishlar odamlarga xos. (Iogann Gyote)

6. Inson o'zini tabiatdan ajratib, uning qonunlariga e'tibor bermay, katta xatoga yo'l qo'ydi. (Vladimir Vernadskiy)

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirishda uning shakligina emas, ba'zan uslubiy xususiyatlari ham o'zgaradi:

1. Intonatsiya va hissiylik pasayadi. Ko'chirma gapda so'zlovchining hissiyoti, hayrati, g'azabi, quvonchi kabilar saqlanadi, o'zlashtirma gapda esa bu holat neytrallashadi. So'zlovchining nutq jarayoniga turli munosabatini ifodalovchi so'zlar (kirish, undov so'zlar) tushib qoladi: *"Voy, qanday go'zal manzara!", – dedi u* (ko'chirma gap). *U manzaraning juda go'zal ekanini aytdi* (o'zlashtirma gap).

2. Shaxs va zamon o'zgaradi: *"Men bu ishni bajaraman", – dedi u* (ko'chirma gap). *U bu ishni bajarishini aytdi* (o'zlashtirma gap).

3. So'roq, buyruq, iltimos, istak ma'nosidagi gaplar darak gapga aylanadi: Onasi: *"Darsingni qil!" – dedi* (ko'chirma gap). *Onasi darsini qilishni buyurdi* (o'zlashtirma gap).

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. Atov gap, ritorik so‘roq gaplarni o‘zlashtirma gapga deyarli aylantirib bo‘lmaydi, badiiylik, obrazlilik yo‘qoladi: “Bu adolatdanmi axir?” – dedi u *(ko‘chirma gap).*

6.16. Parchaga munosabat bildiring. Uni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Uslubiy o‘zgarishlarni izohlang.

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, deydilar. Chindan ham shunday. Oldimizdan oqqan suvni uvol qilsak – chidaydi. Qo‘limizni yuvsak – chidaydi, betimizni chaysak – chidaydi. Boringki, oyog‘imizni yuvsak ham chidaydi... Ammo... Oldimizdan oqqan suvga tupursak, cho‘p tiqib loyqalatsak, boshidan mag‘zava ag‘darsak... Oldimizda oqqan suvning gunohi nima o‘zi?! (O‘. Hoshimov)

6.17. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantiring. O‘zlashtirma gaplardagi o‘zgarishlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

Bir yo‘lovchi nuroniy cholning daraxt ekayotganini ko‘rib, debdi:

– Bobo, siz ekayotgan bu nihollar qachon voyaga yetadi-yu, qachon meva beradi? Sizga nasib qiladimi, yo‘qmi?

– Menga savobi tegsa bo‘ldi, kelajakda ularning mevasini farzandlarimiz yeydi, – degan ekan qariya.

1. O‘zlashtirma gapda shaxs nomidan iborat to‘ldiruvchi bo‘ladi.
2. O‘zlashtirma gapda “demoq” fe’li ishtirok etadi.
3. Qo‘shma gaplar sodda gapga o‘zgaradi.
4. Undalma jo‘nalish kelishigi shaklidagi vositali to‘ldiruvchiga aylanadi.
5. Vositasiz to‘ldiruvchilar uyushadi.
6. 1- va 2-shaxs kishilik olmoshlari 3-shaxs kishilik olmoshlariga o‘zgaradi.

A) 1, 3, 4 B) 3, 5, 6 D) 2, 4, 5 E) 1, 4, 5

6.18. Guruhlarga bo‘lining. “Tabiatni asrash insonlik burchimizdir” yo‘nalishida o‘qituvchingiz va guruh a’zolari bilan quyidagi mavzularda taqdimot o‘tkazing. Ekologik muammo, uning kelib chiqishi sabablari, oqibati va bartaraf etish choralari – tabiatni asrab qolish bo‘yicha fikrlaringizni iqtiboslar bilan asoslab bildiring. Nutqingiz ta’sirli chiqishiga harakat qiling.

1-guruh a’zolari: “Iqlim o‘zgarishi”.
2-guruh a’zolari: “Atmosfera ifloslanishi”.
3-guruh a’zolari: “O‘rmonlarning qisqarishi”.
4-guruh a’zolari: “Chiqindilar muammosi”.

6.19. “Yashil makon” umummilliy loyihasining maqsadi O‘zbekiston ekologiyasini yaxshilashdan iborat ekanini aks ettiruvchi matn yarating. Unda mazmunga mos iqtiboslar keltiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

1. Yashil energetika haqida nimalarni bilasiz?
2. Nega “yashil energetika” deyilishini izohlang.



YASHIL ENERGETIKA – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MUHIM OMIL

Bugungi kunda dunyo aholisi soni oshib borayotgan bo‘lsa-da, Yer yuzidagi tabiiy resurslar asta-sekin kamaymoqda. Bu holat energiyaga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Neft, gaz va ko‘mir kabi an’anaviy manbalar tez tugab bormoqda. Havoga chiqarilayotgan zararli gazlar esa global isish va ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois ko‘plab mamlakatlar qayta tiklanadigan, ya’ni yashil energiya manbalariga o‘tishga katta ahamiyat bermoqda.

Yashil energetika bu – quyosh, shamol, suv kabi tabiat manbalaridan olinadigan, toza va cheksiz energiya. U tabiatga zarar yetkazmaydi va inson salomatligi uchun ham xavfsizdir.

Inson hayoti, ishlab chiqarish va ish faoliyati uchun juda ko‘p energiya kerak bo‘ladi. Shu bois butun dunyoda tabiatni asrab-avaylash, havoni ifloslantirmaslik uchun toza va qayta tiklanadigan energiya manbalariga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, uglerod chiqindilarini kamaytirishga harakat qilinmoqda.

Lekin hozirda qazib olinadigan neft, gaz va ko‘mir kabi yoqilg‘ilardan birdaniga voz kechish oson emas. Chunki toza energiya olish uchun zamonaviy texnologiyalar, ishonchli ilmiy va ishlab chiqarish manbasi kerak bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, jarayon ko‘p mehnat, ilm-fan tadqiqotlari va investitsiyalarni talab qiladi.

O‘zbekiston aynan shu sohada dadil qadamlar tashlamoqda. Energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar va qo‘llab-quvvatlash natijasida olimlar va mutaxassislar yangi texnologiyalarni sinab ko‘rish, innovatsion loyihalarni yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Bu esa kelajakda energiya ta’minoti yanada barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Shu tarzda hozirda toza va samarali energiyaga o‘tish uchun asos yaratilmoqda. Bu nafaqat atrof-muhitni saqlashga, balki kelajak avlodlarga sifatli hayot taqdim etishga xizmat qiladi.

Hozirda elektr energiyasining 15 foizi ana shunday “yashil” manbalar hisobidan olinmoqda. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkichni 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Har yili yangi quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda.

Shuningdek, yaqinda “Energiyani tejash va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonun energiya samaradorligini oshirish, sohaga xususiy sarmoyadorlarni jalb qilish va raqobatni kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, O‘zbekiston quyosh va shamol energiyasi bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega. Hisob-kitoblarga qaraganda, yurtimizda qayta tiklanadigan energiya manbalari hajmi yillik ehtiyojimizdan uch baravar ko‘p. Shu bois bu sohadagi loyihalarni rivojlantirish nafaqat ichki ehtiyojni qoplaydi, balki energiya eksporti uchun ham zamin yaratadi.

Yashil energetikaning rivojlanishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarining barqaror ishlashiga ham xizmat qiladi. Elektr energiyasiga talab yildan yilga oshmoqda, bu ehtiyojni toza energiya manbalari orqali qondirish esa eng to‘g‘ri yo‘l.

O‘zbekistonning yashil energetikaga o‘tishi faqatgina texnologik yangilanish emas, balki ekologiyani asrash, iqtisodiyotni mustahkamlash va xalq farovonligini ta’minlash yo‘lidagi muhim qadam hamdir.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasidan

6.20. Jadvaldagi so‘zlar ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib izohlang. Izohlaringizni lug‘at bilan qiyoslang.

So‘z	Ma’nosi
islohot	* * *
innovatsion	* * *
chiqindi	* * *
energetika	* * *
mutaxassis	* * *

1. Yashil energetikaga o‘tishning iqtisodiy qiyinchiliklari nimadan iborat?
2. “Energiyani tejash va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonundan maqsad nima?
3. O‘zbekiston yashil energetika bo‘yicha qanday imkoniyatlarga ega?
4. Agar energiyaga bo‘lgan ehtiyoj har yili oshsa, yashil energiya ulushi qanday strategik ahamiyat kasb etadi? Diagramma chizing va izohlang.
5. Qayta tiklanadigan energiya manbalari hajmi ehtiyojdan 3 baravar ko‘p ekani nimani anglatadi? Bu imkoniyatdan qanday foydalanish mumkinligini tushuntiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.21. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmuniga mos xulosani toping.

A. Butun dunyo tabiatni asrab-avaylash, havoni ifloslantirmaslik uchun uglerod chiqindilarini qayta ishlashga e'tibor qaratmoqda.

B. Yer yuzidagi tabiiy resurslarning asta-sekin kamayishi energiyaga bo'lgan ehtiyojni yanada pasaytiradi.

D. Energiyaga bo'lgan ehtiyoj aholi soniga bog'liq.

E. O'zbekistonda qayta tiklanmaydigan energiya manbalari hajmi yillik ehtiyojdan uch baravar kam.

2. Matnda aks etgan ma'lumotni toping.

A. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasi bo'yicha unchalik katta imkoniyatlarga ega emas.

B. Toza va cheksiz energiya manbalari: quyosh, shamol, suv, ko'mir kabilar tabiatdan olinib, yashil energetika hisoblanadi.

D. Havoga chiqarilayotgan zararli gazlar global isish va ekologik muammolarning sababchisi emasligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

E. "Energiyani tejash va undan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi rejalashtirilgan.

3. Quyidagilardan qaysi biri matn mazmuniga taalluqli emas?

A. Global isish va ekologik muammolar bois ko'plab mamlakatlar qayta tiklanadigan, ya'ni yashil energiya manbalariga o'tishga ahamiyat qaratmoqda.

B. Yashil energetikaning rivojlanishi sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining barqaror ishlashiga ham xizmat qiladi.

D. Yashil energetika sohasidagi loyihalarni rivojlantirish ichki ehtiyojlarni qoplashdan tashqari energiya eksporti uchun ham zamin yaratadi.

E. Yashil energetika tabiatga zarar yetkazmaydi va inson salomatligi uchun ham xavfsizdir.

6.22. Qayta tiklanuvchi yashil energetikaning ahamiyatini izohlang va o'z qarashlaringiz asosida munosabat bildiring.

T/r	Qayta tiklanuvchi yashil energetikaga o'tishning muhim jihatlari	Izoh (Asos keltiring)
1	Yashil energetika ulushining ortishi istiqbolda elektr energiyasi tannarxini pasaytiradi.	* * *
2	Arzon energiya manbalarining ortishi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim.	* * *
3	Qayta tiklanuvchi energiya ko'plab xonadonlarni elektr bilan ta'minlash barobarida atmosferaga ajraluvchi issiqxona gazlarini kamaytiradi.	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4	Global isish va ekologik muammolarni keltirib chiqarmaydi.	* * *
5	Tabiatga zarar yetkazmaydi va inson salomatligi uchun ham xavfsizdir.	* * *
6	* * *	* * *

6.23. Matndan olingan gaplarda qo‘llangan leksik birliklarni aniqlang. Ularning qo‘llanish maqsadini tushuntiring.

T/r	Gaplar	Leksik birliklar	Uslubiy vazifasi
1	Bugungi kunda dunyo aholisi soni **oshib borayotgan bo‘lsa**-da, Yer yuzidagi tabiiy resurslar asta-sekin **kamaymoqda.**	A) aniqlov bog‘lovchisi	* * *
2	Shu bois butun dunyoda tabiatni asrab-avaylash, havoni ifloslantirmaslik uchun yashil energiyaga, **ya’ni** toza va qayta tiklanadigan energiya manbalariga e’tibor qaratilmoqda.	B) modal so‘z	* * *
3	O‘zbekiston shu sohada dadil **qadamlar tashlamoqda.**	D) zidlov bog‘lovchisi	* * *
4	Bu nafaqat atrof-muhitni saqlashga, **balki** kelajak avlodlarga sifatli hayot taqdim etishga ham xizmat qiladi.	E) ibora	obrazlilik yaratish
5	**Shuningdek,** uglerod chiqindilarini kamaytirishga harakat qilinmoqda.	F) ko‘p ma’noli so‘z	* * *
6	Bu ekologiyani asrash, iqtisodiyotni mustahkamlash va **xalq farovonligini ta’minlash yo‘li**dagi muhim qadam hamdir.	G) antonim so‘zlar	* * *

6.24. “Yashil energetika – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim omil” matnining uslubini va axborot matni talablariga moslik darajasini aniqlang. Har bir mezon talabiga matndan misollar keltiring.

T/r	Axborot matni xususiyatlari	Mos/Mos emas	Misollar
1	Matn qismlari (kirish, asosiy qism, xulosa) mavjud.	* * *	* * *
2	Fakt va ma’lumotlarga tayanilgan.	* * *	* * *
3	Ma’lumotlar tizimli keltirilgan.	* * *	* * *
4	Badiiy tasvirdan xoli.	* * *	* * *
5	Manbalarga tayanilgan.	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6 TABIAT VA BIZ

1. Yozma nutqda tinish belgilari qanday grammatik vazifa bajaradi?
2. Tinish belgilari gapning mazmuni va qurilishiga ta’sir ko‘rsatadimi?
3. Tire qaysi holatlarda ishlatiladi?

Yozma nutqda **tinish belgilari** adabiy til va nutq madaniyatini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi, gap qurilishi, mazmuni va ohangiga ta’sir etadi. Maqsadni to‘g‘ri va aniq bayon qilishda fikr ifodalashning boshqa vositalari qatori tinish belgilarining, xususan, tirening ham ahamiyati katta. **Tire** gaplarda zidlash, qiyoslash-o‘xshatish, ta’kid, kutilmaganlik, shart, sabab-natija, tenglik, payt, tezlik, uzluksizlik kabi munosabatlarni ifodalash, emotsionallikni oshirish, ayrim bo‘lakka diqqatni jalb etish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi.. Masalan, *Azimjon mashinaga o‘tirdi, mashina yurib ketdi* ***(payt munosabati)****. Azimjon mashinaga o‘tirdi – mashina yurib ketdi* ***(tezlik munosabati).***

6.25. Gaplarda tire qanday uslubiy vazifa bajarayotganini izohlang.

1. Kuz – tabiatning eng o‘ychan fasli.
2. Yomg‘ir tomchilari tovushi – yurakka yaqin musiqa.
3. Idoraga yugurdim – yo‘qsiz.
4. Suv keldi – nur keldi.
5. U to‘xtadi – nimadir deyishga jur’ati yetmadi.

Yozuvda tire dialog, ajratilgan bo‘laklar, kiritmalar, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda, ega va ot-kesim orasida, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin, ko‘chirma gaplarda ishlatiladi.

6.26. Gaplarni tire ishlatish qoidalariga moslab, ko‘chiring.

1	Dialoglardagi har bir gapning boshida	A	“Tabiatni asrash burchimizdir”, – dedi Umidjon.
2	Bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim (ot, olmosh, son, harakat nomi bilan ifodalansa) bilan ega orasida	B	Biz – yoshlar – millatning qalbimiz.
3	Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin	D	Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini.
4	Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida	E	Bahor – tabiatning uyg‘onish fasli.
5	Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida	F	Kecha ularnikiga borgan edim – Umidjon kelibdi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6	Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa
7	Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida
8	Zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida
9	Kirishlar va ajratilgan bo‘laklarning har ikkala tomonidan
10	Tenglik, taqqoslash va hokazo ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar orasida
11	Kutilmagan voqea-hodisani bildirsa

G	Yurting tinch – sen tinch.
H	Qushlar, shamol, quyosh – hammasi tabiatning mo‘jizasi.
I	Ilk parvoz Samarqand – Madina yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirildi.
J	Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz.
K	– Tog‘ havosi sog‘lomlashtiradi, – dedi otam. – Ha, tabiatning o‘zi davo, – deb javob berdim men.
L	Zoologiya (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “zoo” – hayvon va “logos” – fan, ta’limot) – hayvonlar to‘g‘risidagi fan.

6.27. Qaysi gaplarda tire tinish belgisi bir xil punktuatsion qoida asosida qo‘yilgan?

1. Dengizi bor – suvi yo‘q, yo‘llari bor – izi yo‘q.
2. Sekin pichirladi: “Ha, tushundim, aqlli uzoqni ko‘zlar, aqlsiz – yaqinni!”
3. Tuproq ko‘chalarni, paxsa devorli uylarni, yangi uzilgan non isini – hammasini sog‘indim, ona.
4. Insonning eng yaxshi tarbiyachisi – kitob, eng qattiqqo‘l tarbiyachisi – hayot.
5. Bularning hammasi: til, din, madaniyat – millatning yashayotganidan dalolat.
6. Ijodkor inson qalbidagi eng go‘zal tuyg‘uni – o‘zidan o‘zgani samimiyat bilan sevish tuyg‘usini – tasvirlay olgan.

A) 3 va 6 B) 1 va 4 D) 2 va 5 E) 4 va 5

6.28. Gaplarda tire nega ishlatilganini izohlang va jadvalni to‘ldiring.

1. Suv keldi – cho‘llarda hayot boshlandi.
2. Hamal keldi – amal keldi.
3. To‘rt mashina o‘g‘it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.
4. Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra.
5. Ko‘z qo‘rqoq – qo‘l botir.
6. Nega shundoq bo‘lganini aytib o‘tirishga vaqti yo‘q – idorada odamlar kutib qoldi.
7. Sen borsan – men uchun bu hayot go‘zal, sen borsan – men uchun dilbar koinot.
8. Uyda qadam bosgani joy yo‘q – hamma yerda o‘yinchoq.
9. Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o‘g‘irda tolqon qilyapti.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

10. Narigi tomonda taraq-taraq boshlandi – quruvchilar ishga tushdi.
11. Odam qo‘li – gul, cho‘lni bo‘ston qiladi.
12. Dunyodagi eng ulug‘ martaba, eng ulug‘ sharaf – Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qilish.

A	Sabab-oqibat munosabati	8, …
B	O‘xshatish munosabati	* * *
D	Shart munosabati	* * *
E	Zidlik munosabati	* * *
F	Ega va ot kesim orasida	* * *
G	Payt munosabati	* * *

6.29. Ikkinchi gapning kesimi tushirilganda tire qo‘yilishiga misol bo‘ladigan maqollardan 7–8 ta yozib keling.

Masalan: ***Oltin o‘tda bilinar, odam – mehnatda.***

1. Hovlingizda qanday o‘simliklar bor?
2. O‘simliklarga qarab, ular ham fikrlashi mumkinligini tasavvur qila olasizmi?

O‘SIMLIKLAR O‘YLAY OLADIMI?

Charlz Darvin o‘zining “O‘simliklarda harakatlanish qobiliyati” kitobida: “Bunday deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi: ildizning uchi… qandaydir tuban tuzilgan hayvonlarning miyasidek ishlaydi… his-tuyg‘ulardan taassurotlarni to‘playdi, harakatlarni boshqaradi”, deb yozgan bo‘lsa-da, yaqin vaqtlargacha ham ko‘plab olimlar o‘simliklarda aql bo‘lishi mumkinligi mavzusini muhokama qilishdan bosh tortishardi, chunki o‘simliklar miyaga ega emas, shunday ekan, ular fikrlay olmaydi, degan qarashda edilar.

Hayvonlarda aqlning mavjudligi amalda aniqlangan masala. Shunga ko‘ra, 2008-yili Ispaniya parlamenti odamsifat maymunlarning yashash va erkinlik huquqlarini tan oldi. Yangi Zelandiya barcha hayvonlarning sezgir mavjudotlar ekanini va odamlar bilan bir xil darajada his-tuyg‘ularga egaligini rasman ta’kidladi. Bir qator davlatlarda nafaqat fan, balki qonun ham hayvonlarning tarafini oladi. Ammo o‘simlik intellekti masalasiga kelsak, Darvin davridan to hozirgacha ko‘p narsa o‘zgarmadi. Zotan, bu tushunarli holat. Chunki o‘simliklarning aql-idroki haqidagi savolni muhokama qilganimizda o‘z-o‘zidan noqulaylik hissi paydo bo‘ladi. Buning sababi, masalan, daraxt fikrlaydi va his qiladi degan qarashni qabul qilish qiyin.

Shu nuqtayi nazardan, o‘simliklarning ikkita muhim kamchiligi bor deyiladi:

1. Bizdan va hayvonlardan farqli o‘laroq, ular harakat qilmaydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2. Asab tizimi yo‘q, ya’ni ular tashqaridan olingan ma’lumotni idrok etish va tahlil qilish uchun hech narsaga ega emas.

Birinchi masala bo‘yicha Charlz Darvin qat’iy ishonch bilan quyidagi fikrni ilgari surgan edi: “Odamlarda o‘simliklarning sekin harakatlanishini kuzatish uchun sabr-toqat yetishmaydi. Ammo sekinlik ularning omon qolishiga yordam beradi: o‘simliklar hayvonlardan farqli o‘laroq, tana vaznining 90 foizini yo‘qotganidan keyin ham o‘zini tiklashga qodir bo‘ladi”.

Chindan ham odamlar emanzorlarning qanday o‘sishini to‘liq kuzata olishmaydi. Negaki eman daraxti 400 – 1500 yil yashaydi. Shvetsiyaning Fulufellet tog‘idagi “Qariya Tikko” deb ataluvchi archa esa dunyodagi eng qadimiy daraxtlardan biri. Uning ildizlari 9 565 yoshda…

Professor Andre Kessler va uning sheriklari tashqi tahdidlarga javoban o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartiradigan o‘simlikning ajoyib namunasini topishgan. Bu Shimoliy Amerika, Yaponiya, JAR, ayrim Yevropa mamlakatlari va Rossiyada o‘sadigan “oltinnovda” (goldenrod) nomli yovvoyi o‘tdir. Faqat u turdoshlari bilan “muloqot qilish” uchun asab tizimining o‘rniga kimyoviy signallar tizimidan foydalanadi.

Biologlar haqiqiy xatar yaqinlashgan sharoitda – o‘simlik bargi qo‘ng‘iz lichinkalari hujumiga uchragan chog‘da – oltinnovdaning xatti-harakatlarini o‘rganishdi. Tajovuzkorlik harakatlari boshlanishi bilan oltinnovda “SOS” signalini tarqata boshlaydi. To‘g‘rirog‘i, u VOC (*volatile organic compounds*) – uchuvchi organik birikmalarni chiqarib, hasharotlar hujumi haqida turdoshlarini xabardor qiladi va giyohlar uni eshitadi! Yaqin atrofdagi boshqa oltinnovdalar qo‘shnisi hasharotlar hujumiga uchraganini bilib, tanasini shay holatga keltiradi va barg qo‘ng‘izi lichinkalarini qaytaradigan maxsus kimyoviy birikmalar ishlab chiqaradi.

“Ayon bo‘lishicha, o‘simliklar hidlarni juda aniq sezadi, hatto birgina hujayra ham ularni “taniy oladi”, – deydi professor Kessler. – Shunday qilib, o‘simlik turdoshlaridan olgan signallarga javoban o‘zining standart xatti-harakatini o‘zgartiradi. Mana shu aql bo‘lmasa, nima, sizningcha?”

O‘simliklardagi xatti-harakatlarning bu modeli birgina oltinnovdaning super kuchi emas, buni 80 dan ortiq o‘simlik turlari ham namoyon qiladi.

“Basharti, biz o‘simliklarning xatti-harakatini aqlga muvofiq deb hisoblagan taqdirimizda ham, u hayvonlarnikidan farqli boshqa aql turidir”, – deydi Andre Kessler. Masalan, o‘simliklar ham, hayvonlar ham asosiy hayotiy vazifa sifatida muvaffaqiyatli ko‘paya olishadi. Faqat ular buni turli yo‘llar bilan bajaradilar. Qizig‘i shundaki, bu sun’iy intellektning xatti-harakati va ambitsiyalariga qarama-qarshidir. Sun’iy intellektning qobiliyati insonning aql-zakovatidan oshib ketishiga shubha yo‘q. Ammo o‘simliklar va hayvonlardan farqli o‘laroq, u nasl qoldirish istagini o‘zida hosil qila olmaydi, uning maqsadlari bevosita insoniy istaklar asosida belgilanadi. Shunga qaramay, odamlar o‘simliklarning aql-zakovatini inkor etadi, lekin qalbsiz temir parchasidagi aql-idrokni qabul qilmoqda.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ushbu ma’lumotlarni o‘rganarkanman, bir voqea yodimga tushdi. Mashhur navoiyshunos olim Yoqubjon Is’hoqov tok daraxtini qanday qilib qo‘rqitganini so‘zlab bergandi. Domlaning hamma toklari uzum solarkan-u, bittasi sira hosil qilmas ekan. Yoqubjon aka bir kuni ayoli bilan kelishib olibdi. Kelishuvga muvofiq ayoli o‘sha uzumning oldida nimadir ish bilan band bo‘lgandek aylanib yuribdi. Domla qo‘lida bolta ko‘tarib: “Shu tokni chopib tashlayman, shuncha yilgacha bir bosh ham uzum solmadi”, – deb vajohat bilan otilib chiqibdi. Ayoli: “Hay-hay, o‘zingizni bosing, bu yil meva qiladi!” – deb yo‘lini to‘sibdi. Kutilganidek, uzum kelgusi yili rosa ko‘p hosil solibdi.

Bizning hovlimizda besh tup anor daraxti bor edi. To‘rtovi yaxshi meva berardi-yu, bittasi hatto gullamasdi ham. Karantindan oldingi yili kuz faslida biz ham domlamizning tajribasini qo‘llab o‘sha anorni qo‘rqitgan bo‘ldik. Daraxt bechoraning “o‘takasi yorilgan” ekanmi, shunchalar ko‘p hosil qildiki, kuzda shoxlari yerga tegib qoldi…

Damin Jumaqul tayyorladi

1. Matnda o‘simliklar ham fikrlashi mumkinligi haqida qanday ilmiy asoslar keltirilgan?
2. Matndagi “**Odamlar o‘simliklarning aql-zakovatini inkor etadi, lekin qalbsiz temir parchasidagi aql-idrokni qabul qilmoqda**” fikriga munosabatingizni bildiring.
3. Matndan xalqimizda hosil bermayotgan o‘simlikka “tahdid” qilib, kelgusi yili mo‘l hosil olish udumi borligini o‘qidingiz. Siz o‘simliklar bilan bog‘liq yana qanday udumlarni eshitgansiz?
4. Daraxtni “qo‘rqitish” haqidagi voqeani qayta o‘qing. Undagi qaysi jihatlar ilmiy dalilga, qaysilari xalqona qarashga o‘xshaydi? Daraxtni “qo‘rqitish” haqidagi voqea ilmiy jihatdan isbotlangan deb ayta olamizmi? Nega?
5. Agar siz tadqiqotchi bo‘lsangiz, bu hodisani qanday tekshirgan bo‘lardingiz?

6.30. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmuniga mos bo‘lgan qatorni toping.

A. Charlz Darvin o‘simliklarda miya bo‘lishi mumkinligini har doim rad etgan.

B. Ispaniya va Yangi Zelandiyadan boshqa barcha davlatlar hayvonlarning sezgir mavjudotlar ekanini va odamlar bilan bir xil darajada his-tuyg‘ularga egaligini rasman tan olgan.

D. Inson o‘simliklar harakatini kuzatishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi.

E. O‘simliklarning asab tizimiga egaligi isbotlangan.

2. Matnda berilishicha, o‘simliklar qaysi holatni namoyon eta olmaydi?

A. O‘simliklar xavfni sezib “SOS” signalini tarqata oladi.

B. Yaqinidagi o‘simlikning xavfda qolganini bilib, tanasini shay holatga keltira oladi.

D. Hasharotlar hujumi haqida turdoshlarini xabardor qiladi va o‘simliklar uni eshitadi.

E. Odamning do‘q-po‘pisalarini tushunadi, ba’zan hayvonlar kabi harakat qiladi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.31. Matnda qo‘llangan iqtibos va ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Yuz bergan o‘zgarishlarni izohlang. Qaysi birliklar tushib qolganini ayting.

1. Charlz Darvin o‘zining “O‘simliklarda harakatlanish qobiliyati” kitobida: “Bunday deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi: ildizning uchi… qandaydir tuban tuzilgan hayvonlarning miyasidek ishlaydi… his-tuyg‘ulardan taassurotlarni to‘playdi, harakatlarni boshqaradi”, deb yozgan.

2. Birinchi masala bo‘yicha Charlz Darvin qat’iy ishonch bilan quyidagi fikrni ilgari surgan edi: “Odamlarda o‘simliklarning sekin harakatlanishini kuzatish uchun sabr-toqat yetishmaydi. Ammo sekinlik ularning omon qolishiga yordam beradi: o‘simliklar hayvonlardan farqli o‘laroq, tana vaznining 90 foizini yo‘qotganidan keyin ham o‘zini tiklashga qodir bo‘ladi”.

3. “Ayon bo‘lishicha, o‘simliklar hidlarni juda aniq sezadi, hatto birgina hujayra ham ularni taniy oladi”, – deydi professor Kessler.

4. Domla qo‘lida bolta ko‘tarib: “Shu tokni chopib tashlayman, shuncha yilgacha bir bosh ham uzum solmadi”, – deb vajohat bilan otilib chiqibdi.

5. Ayoli: “Hay-hay, o‘zingizni bosing, bu yil meva qiladi!” – deb yo‘lini to‘sibdi.

6. “Basharti, biz o‘simliklarning xatti-harakatini aqlga muvofiq deb hisoblagan taqdirimizda ham, u hayvonlarnikidan farqli boshqa aql turidir”, – deydi Andre Kessler.

6.32. O‘simliklar haqida qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing. Gaplardagi ko‘chma ma’noni hosil qilgan birikmalarni ajratib yozing. Masalan, *“qayg‘u elchisi”.*

1. Qadimda petrushka qayg‘u elchisi hisoblangan.
2. Janubi-g‘arbiy Osiyoda kulgi o‘simligi bor, bir dona yesangiz, yarim soat kulasiz.
3. Terak va qayin sovuqqa eng chidamli daraxtlardir. Ular -196 darajagacha bo‘lgan sovuqqa ham bardosh bera oladi.
4. Yer yuzida 10 mingdan ziyod zaharli o‘simlik turi mavjud.
5. Qora va O‘rta dengiz atrofida quturgan bodring o‘simligi o‘sadi. Agar unga tegib ketilsa, o‘z-o‘zidan ochilib, ichidan urug‘lari otilib chiqadi. Urug‘lar shu qadar kuch bilan otilganidan o‘n metrgacha yetadi.
6. Dunyoda shunday bir meva turi borki, og‘izdagi ta’m bilish xususiyatini tamoman o‘zgartirib yuboradi. Uni yegach, orqasidan limon yesangiz, ta’mi nordon emas, shirin tuyula boshlaydi.
7. And tog‘larida bir o‘simlik bor. U umri davomida bir marta – 150 yilda gullaydi. Gullaydi-yu, halok bo‘ladi.

6.33. “Ekologiyani asrashda jamiyat mas’uliyati qanchalik muhim?” mavzusida 200–250 ta so‘zdan iborat muhokama esse yozing.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.34. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib ko‘chiring.

1. Yozuvchi Chingiz Aytmatov shunday degan edi Men inson tabiatni qadrlay bilishi undan zavq bahra olishi kerakligini bilaman Shuni ham tushunib yetish kerakki inson tabiatning bir parchasi tabiat unga yashash uchun berilgan makon yashaganda ham faqat bir marta aql va zavq bilan yashash kerak

2. Shohruh uch yarim yashar
Hayvonot bog‘iga kim bilan bording
Adajonim bilan
Qaysi hayvon eng katta ekan
Fil ayiqpolvon arslon

Ikki nuqta yozuvda ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng, uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin, ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng, shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng ishlatiladi.

6.35. Ikki nuqta o‘zaro bir xil punktuatsion qoida asosida ishlatilgan javoblarni aniqlang.

1. O‘zbeklar o‘rtasida qadimdan chinakam fazilatlar: mehr-oqibat, odamgarchilik, do‘stlik qadrlanib kelgan.

2. Ustoz aytdi: “Tog‘lar bilan suhbatlashgan odam qalbida kuch topadi”.

3. Tabiat inson hayotida muhim o‘rin tutadi: u bizga havo, suv va tinchlik manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Daraxtlar qishda ham tirik qoladi: tabiat ularga sabr va matonat beradi.

5. Mavzu: “Tabiatni asrash – burchimiz”.

A) 1 va 5 B) 1 va 3 D) 2 va 4 E) 3 va 4

6.36. “O‘simliklar o‘ylay oladimi?” matnidan olingan gaplarni ikki nuqtaning ishlatilishi qoidasiga moslashtiring.

Ikki nuqtaning ishlatilishi		Matndan olingan gap
1. Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng		A. Ammo sekinlik ularning omon qolishiga yordam beradi: o‘simliklar hayvonlardan farqli o‘laroq, tana vaznining 90 foizini yo‘qotganidan keyin ham o‘zini tiklashga qodir bo‘ladi. “Bunday deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi: ildizning uchi… qandaydir tuban tuzilgan hayvonlarning miyasidek ishlaydi…”

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin	B. Birinchi masala bo‘yicha Charlz Darvin qat’iy ishonch bilan quyidagi fikrni ilgari surgan edi: “Odamlarda o‘simliklarning sekin harakatlanishini kuzatish uchun sabr-toqat yetishmaydi”.
3. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng	D. Bu quyidagi davlatlar: Shimoliy Amerika, Yaponiya, JAR, ayrim Yevropa mamlakatlari va Rossiyada o‘sadigan “oltinnovda” (goldenrod) nomli yovvoyi o‘tdir.
4. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng	E. Shu nuqtayi nazardan, o‘simliklarning ikkita muhim kamchiligi bor deyiladi: 1. Bizdan va hayvonlardan farqli o‘laroq, ular harakat qilmaydi. 2. Asab tizimi yo‘q, ya’ni ular tashqaridan olingan ma’lumotni idrok etish va tahlil qilish uchun hech narsaga ega emas.

Ikki nuqta bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida qo‘llanganda quyidagi mazmuniy munosabatlar yuzaga keladi:

1. Keyingi gap oldingi gapning mazmunini to‘ldiradi, izohlaydi. *Uning she’ri misoli oltin: Ochiladi o‘qigan sayin.*
2. Keyingi gap oldingi gapning xulosasini, natijasini anglatadi. *U yaxshi o‘qidi: o‘qishga grant asosida kirdi.*
3. Keyingi gap oldingi gapning sababini anglatadi. *Bahodir deb atagin meni: Hijroningga berdim-ku bardosh.*

6.37. Gaplardagi ikki nuqtaning ishlatilish sabablarini tushuntiring.

1. Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.
2. Yuragida qanday dard bor: mana bu menga sir.
3. Ehtimol, sizda ham shunday bo‘lgandir: tun yarmidan og‘ganda birdan uyg‘onasiz.
4. Qiz uni ushlab olishga urindi, juda qiynalib ketdi: qo‘llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirnaldi.
5. Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing.
6. Borar manzilingni aniq belgilab ol: yo‘ldan adashmaysan.
7. Ishni uning maqsadi boshqarib turadi: buyuk maqsadga qaratilgan ish buyuk ishdir.
8. Hozirgi yoshlarga aytar so‘zimiz: ajdodlarimizga munosib bo‘ling.
9. Ishlar vaqtida bajarilishi kerak: vaqtida bajarilmagan ish sust bo‘ladi.
10. Borliq jim: har bitta darchada zangori shu’lalar porlaydi.
11. Quyoshning uyg‘onishi sen ta’riflagandan ham antiqa: tong nihoyatda go‘zal.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6.38. Tinish belgilarining qo‘llanishi bo‘yicha testlarni ishlang.

1. *Erk kuychisi – Abdulhamid Cho‘lpon she’rlarini sevib o‘qiyman*. Tirening ishlatilish sababini toping.

A) Ajratilgan bo‘lak qo‘llangani uchun
B) Eganing ma’nosi ta’kidlangani uchun
D) Izohlovchi – izohlanmish orasiga
E) O‘xshatish ma’nosi ifodalangani uchun

2. // belgisi o‘rniga mos tinish belgisini qo‘ying. *Oltmishga kirib bildim // umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman*. (Abdulla Qahhor)

A) Vergul B) Tire D) Nuqtali vergul E) Ikki nuqta

3. *Toshkent – Andijon avtomobil yo‘li ta’mirdan chiqarilmoqda*. Ushbu gapda tirening ishlatilish sababini aniqlang.

A) Tenglik, taqqoslash ma’nolarini bildirgani uchun
B) Bog‘lamasiz qo‘llangan ega va kesim bo‘lgani uchun
D) Fikrlar bo‘lib-bo‘lib ifodalangani uchun
E) Matn ichida alohida ta’kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan foydalanilgani uchun

4. Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng biror birikma yoki gap tartib bilan sanalsa, qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

A) Tire B) Ko‘p nuqta D) Qavs E) Nuqta

5. *O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar: do‘stlik, mehr-oqibat, odamgarchilik, axloqiy teranlik ulug‘lanib kelgan.* Ushbu gapdagi ikki nuqtaning ishlatilish sababi to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.

A) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslangani uchun
B) Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida
D) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgani uchun
E) Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan oldin kelgani uchun

6. *Faqat bitta iltimos // ishda tartib bo‘lsin.* Berilgan gapda // belgisi o‘rniga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

A) Nuqtali vergul B) Tire D) Vergul E) Ikki nuqta

7. Tirening qo‘llanish o‘rniga noto‘g‘ri izoh berilgan qatorni belgilang.

A) Dialoglardagi har bir gapning boshida
B) Bog‘lamali qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida
D) Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin
E) Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



VII BOB.
SOG‘LOM HAYOT

7.1. Salomatlikka ta’sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni xattaxtaga yozing.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINING YETTI QOIDASI

Sog‘lom turmush tarzining quyidagi eng muhim yetti qoidasi siz-u bizga avvaldan ma’lum bo‘lsa-da, biroq o‘qish, imtihon va turli mashg‘ulotlar sabab ba’zan e’tibordan chetda qolib ketadi.

A. Sport – sog‘lom hayot kechirishning asosiy shartlaridan. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko‘rinishlari, shakllari, usullari ko‘p: yoga, pilates, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, raqs, rafting, bodibilding, gimnastika, futbol va hokazo. Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo‘lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30–60 daqiqa sport bilan shug‘ullanish sog‘lom bo‘lishingiz uchun yetarli.

Kamroq o‘tirish va ko‘proq harakatlanish kerak. Agarda ishingiz o‘tirishni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozing.

B. Ovqatlanish ratsioningizga tabiiy mahsulotlar – meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko‘proq kiriting. Bunda ratsionning 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo‘tqalar tashkil etishi, 30 foizi go‘sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog‘larga ajratilishi kerak. Ozuqalar imkon qadar yangi, mavsumga mos bo‘lishi lozim. Bahor va yozda o‘simliklar, qishda oqsil va yog‘ga boy mahsulotlarga ko‘proq o‘rin ajrating. Har kuni 2 litr atrofida suv iching.

Fastfud, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, sun’iy ta’m, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz kecching.

Ovqatlanishda xilma-xil taomlarni aralashtirmaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1–2 soat keyin iste’mol qilinishi zarur. Kechki 19:00 dan keyin faqatgina olma yeyish tavsiya etiladi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

D. Organizmimizning asosiy dushmanlaridan bo‘lmish tamaki va alkogol mahsulotlari, turli zararli odatlar (ularni o‘zingiz yaxshi bilasiz)dan voz kechish orqali sog‘lom turmush tarziga keng yo‘l oching. Har bir chekilmagan sigaret, ichilmagan spirtli ichimlik sizning sog‘lom hayot sari tashlagan muhim qadamingizdir.

E. Kun tartibiga qat’iy rioya qiling. Birinchi navbatda – 8 soatli uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uxlash va muayyan vaqtida uyg‘onishga odatlaning. Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, asablariga ziyon yetkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo‘qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

F. Sog‘lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi – yorqin va ijobiy kayfiyat! Hayotdan ko‘proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko‘p e’tibor qaratmang, doimo olg‘a intilish uchun kuch topa biling. Odamlarga nisbatan g‘araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang, kechirimli, bag‘rikeng bo‘ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko‘rmang!

G. Uyingiz, sinfxonangizni doimo toza tuting, har kuni changlarni artib, tozalang, derazalarni ochib, toza havo kirishini ta’minlang. Jismoniy holatingiz me’yorida bo‘lishi uchun albatta chuqur va to‘g‘ri nafas olishni o‘rganing. Tabiat qo‘ynida sayr qilish, derazalarni ma’lum muddat ochib qo‘yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga yetadigani yo‘q.

H. Ovqatlanishdan avval va keyin albatta qo‘llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza liboslarni kiyish, umuman, tozalikka qat’iy rioya etish sog‘lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Unutmang: sog‘lom turmush tarzi bu – har qanday kasalliklar profilaktikasi, salomatlik va kuch-quvvat garovi demak.

I. Sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasida, do‘stlar orasida, umuman, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o‘tishga, muammolar qarshisida o‘zini yo‘qotmaslikka o‘rganadi.

Yana bir gap: sog‘lom turmush tarzi qoidalari bir-biriga uzviy bog‘liq, biri ikkinchisisiz foyda berishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmay, hozirdan bajarishni boshlash bilan sog‘lom va baxtli hayot sari ilk qadamlaringizni tashlagan bo‘lasiz.

Aniq.uz

7.2. Jadvaldagi so‘zlar ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib taxmin qiling va yozing. So‘ng lug‘at yoki ishonchli manbalardan foydalanib, keyingi ustunni ham to‘ldiring.

So‘z	Taxminim	Lug‘at yoki ishonchli manba
yoga	* * *	* * *
pilates	* * *	* * *
rafting	* * *	* * *
bodibilding	* * *	* * *
ratsion	* * *	* * *
profilaktika	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1. Matnda sog‘lom ovqatlanishga oid qanday tavsiyalar berilgan? Siz uchun qaysi tavsiya yangilik bo‘ldi?
2. Muallif ta’kidlagan zararli odatlar ro‘yxatini davom ettiring.
3. Muallif nima uchun matn oxirida “Yana bir gap!” jumlasini qo‘llagan?
4. Muallifning ushbu matnni yozishdan asosiy maqsadi nima?

7.3. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Muallifning ko‘plab sport turlarini sanab o‘tishdan asosiy maqsadi nima?

A) o‘quvchini professional sportga qiziqtirish va yo‘naltirish
B) har kimga mos jismoniy mashg‘ulot topilishini ko‘rsatish
D) sportning murakkab turlari sog‘likka foydaliligini izohlash
E) har kuni 60 daqiqa sport bilan shug‘ullanish zarurligini asoslash

2. “To‘g‘ri ovqatlanish” qoidasining asosiy g‘oyasi qaysi?

A) Sabzavot va meva iste’moli sog‘lik garovidir.
B) Ozuqa turlarini mavsumga qarab tanlash zarur.
D) Ratsion muvozanatli va foydali bo‘lishi kerak.
E) Kechki ovqatni yemaslik eng to‘g‘ri yo‘ldir.

3. Hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Noto‘g‘ri fikrlarni to‘g‘rilab ayting.

T/r	Hukmlar	T/N
1	Matnda kunora mashq qilish tavsiya etilgan bo‘lsa-da, undan “Har kunlik uzoq davom etuvchi sport mashqlari – sog‘lom turmushning asosiy sharti” degan xulosa kelib chiqadi.	* * *
2	Matnga ko‘ra, kun tartibi buzilganda, birinchi navbatda, ruhiyat zarar ko‘radi.	* * *
3	“Kechasi 3 gacha ishlaydi, ammo ertalab sport bilan muntazam shug‘ullanadi”. Ushbu fikr matnning umumiy g‘oyasiga mos.	* * *
4	“Kunora 40 daqiqa piyoda yurib, sog‘lom turmush tarziga amal qiladi”. Ushbu fikr matnning umumiy g‘oyasiga zid.	* * *
5	Matnning umumiy tuzilmasi “qoidalar – dalillar – umumlashtirish” tartibida berilgan.	* * *

7.4. Matn qismlari uchun kichik sarlavhalar topib yozing va izohlang.

Matn qismlari	Kichik sarlavhalar	Izoh yoki kalit so‘zlar
A	Sport – sog‘lik garovi	sport turlari, jismoniy faollik
B	* * *	* * *
* * *	* * *	* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

7.5. Matn qismlari uchun tanlagan kichik sarlavhalaringizni o‘qib bering. Sinfdoshlaringizni ham tinglab, ularning tanloviga munosabat bildiring.

7.6. Matn asosida quyidagi jadvalni qisqa va aniq jumlalar bilan to‘ldiring.

Qoidalar	Mazmuni	Hayotiy misol	Amal qilinmasa, oqibati
Sport	* * *	* * *	* * *
To‘g‘ri ovqatlanish	* * *	* * *	* * *
Kun tartibi	* * *	* * *	* * *
Ijobiy kayfiyat	* * *	* * *	* * *
Toza havo	* * *	* * *	* * *
Shaxsiy gigiyena	* * *	* * *	* * *

7.7. Diqqat, loyiha! 7 guruhga bo‘lining. Sog‘lom turmush tarzi haqidagi matndan 7 qoidaning birini tanlang va shu asosda kichik loyiha tayyorlang. Unda quyidagilar bo‘lsin:

1) 5–7 gapli tahliliy matn; 2) 1 ta hayotiy misol; 3) 1 ta shior.

Eslatma! Har bir guruh o‘z ishini 2 daqiqada taqdim etadi. Loyiha 7.8-topshiriqdagi mezonlar asosida baholanadi.

7.8. Guruh a’zolari bilan loyihani taqdim eting. Quyidagi mezonlar asosida boshqa guruhlar taqdimotini baholab boring.

Mezonlar	3 ball	2 ball	1 ball
Mazmunni anglash	Matn to‘liq va to‘g‘ri tahlil qilingan.	Tahliliy matn qisman shakllangan, mazmunan to‘g‘ri.	Matn mazmunan xato yoki juda qisqa.
Til va uslub	Gaplar ravon, aniq, xatosiz, mazmunan bog‘langan.	Mantiqiy bog‘lanish qisman buzilgan, ayrim grammatik va ishoraviy xatolar bor.	Mantiqiy bog‘lanish yo‘q, grammatik va ishoraviy xatolar ko‘p.
Dalillanganlik	Misollar aniq.	Misollar umumiy.	Misol qoidaga to‘la mos emas.
Ijodkorlik	Shior juda kreativ.	Shior oddiy, lekin bor.	Shior bor, lekin qoidaga mos emas.
Taqdimot	Nutq ishonchli, ravon.	Ba’zan to‘xtamlar bor.	Juda qisqa yoki tushunarsiz.

7.9. Guruhingiz bilan loyiha ishingizga qo‘yilgan ballarni muhokama qiling. Ishni o‘qituvchingizga topshirishdan oldin qayta tahrirlang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

7.10. Rasmni diqqat bilan kuzating va mohiyatini izohlang.



NIMANI O‘YLASANGIZ, SHUNGA YAQINLASHASIZ: FIKRLAR MAGNIT KABI

Psixologiya va neyrofanlar shuni ko‘rsatadiki, odam o‘z hayotidagi ko‘p narsalarni o‘y-xayollari orqali shakllantiradi. Agar inson doim salbiy tomonga e’tibor qaratsa, atrof-muhit ham unga o‘sha energiyani qaytaradi. Aksincha, mehr, yaxshilik va minnatdorlik tuyg‘ulari bilan yashagan odamning hayotida ijobiy voqealar va imkoniyatlar ko‘payadi.

Inson miyasi har kuni 60 mingdan ortiq fikr “ishlab chiqaradi”. Har bir fikr neyronlar o‘rtasidagi elektr signallar hisoblanadi. Ularning faoliyati natijasida dofamin, serotonin, kortizol kabi moddalar ajraladi. Mazkur moddalar esa bizning kayfiyatimiz, xatti-harakatimizni belgilaydi.

Har bir o‘y va tasavvur aslida ma’lum bir tebranish chastotasiga ega bo‘lgan energiya shaklidir. Shu sababli biz qanday fikrlasak, atrofimizga o‘sha fikrga mos voqealar va odamlarni jalb qilamiz.

Ijobiy fikrlar nima beradi?

− Xursandchilik: yaxshi fikrlar kayfiyatni ko‘taradi, serotonin va dofamin kabi “baxt gormonlari”ni faollashtiradi.

− Shukronalik: minnatdorlik hissi ichki xotirjamlik beradi, stressni kamaytiradi va immunitetni mustahkamlaydi.

− Ishonch: hayotga ijobiy qarash insonda kuch va qat’iyat uyg‘otadi, maqsadlarga erishish osonroq bo‘ladi.

Salbiy fikrlar qanday ta’sir qiladi?

− Qo‘rquv: tez-tez xavotirlanish asab tizimini zaiflashtiradi, yurak va uyqu muammolariga sabab bo‘ladi.

− G‘azab: jahl organizmda stress gormoni – kortizol ortiqcha ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi, bu esa sog‘liqni yemiradi.

− Hasad: doimiy qiyoslash va norozilik ruhiy tushkunlikka olib keladi, insonni o‘z imkoniyatlaridan chetlashtiradi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Qanday qilib ijobiy fikrlashni kuchaytirish mumkin?

Ijobiy fikrlash – inson ongining eng kuchli qurollaridan biri. Miya doimiy ravishda to‘lqinlar chiqaradi va ular magnit singari ishlaydi: qanday fikr taratsak, xuddi shunday kayfiyat va voqealar bizga qaytadi. Demak, bugungi o‘y-xayollarimiz ertangi kunimizga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu bois ongni ijobiy energiya bilan to‘ldirish odatga aylanishi kerak.

Buning eng samarali yo‘llaridan biri – kundalik shukronalik. Har kuni hech bo‘lmaganda erishgan uchta narsasini yozish, ular uchun minnatdorlik tuyish inson kayfiyatini ko‘taradi va hayotga boshqacha qarashni o‘rgatadi. Oddiy misol: bugun yaqin insoningizning samimiy so‘zi, kichik bir muvaffaqiyat yoki ertalabki choyning iliqligi uchun minnatdorchilik bildirish ham ijobiy energiyani kuchaytiradi.

Salbiy fikrlarni to‘xtatish ham muhim. Ongimizda “Men uddalay olmayman” degan o‘y paydo bo‘lsa, darhol uni foydali muqobiliga almashtirish kerak. Masalan, “Bu ilojsiz” o‘rniga “Men kichik qadamlar bilan boshlay olaman”, deyish bosimni yengillashtiradi va ishonchni kuchaytiradi. Shunchaki to‘xtash, fikrni tahlil qilish va o‘zgartirish – ruhiy holatni boshqarishning sodda, ammo samarali usuli.

Atrofdagilar ham fikrlarimizga bevosita ta’sir qiladi. Doimiy salbiy gaplar va shikoyatlar odamning energiyasini so‘rib oladi, aksincha, ijobiy qarashli insonlar ruhiyatni ko‘taradi. Shuning uchun imkon qadar bizni qo‘llab-quvvatlaydigan, motivatsiya beradigan insonlar bilan muloqot qilish kerak.

Meditatsiya va nafas mashqlari esa ongni tinchlantiradi va fikrlar oqimini tartibga soladi. Kuniga atigi bir necha daqiqa chuqur va ongli nafas olish stressni kamaytiradi, diqqatni jamlaydi va ichki sokinlik beradi. Shuningdek, bu mashqlar miyaga yangi, ijobiy energiya kirib kelishiga yo‘l ochadi.

Ijobiy fikrlash – tug‘ma qobiliyat emas, o‘rganiladigan ko‘nikma. Shukronalik, salbiy fikrlarni boshqarish, ijobiy muhit va meditatsiya orqali har bir inson o‘z qarashlarini o‘zgartirishi mumkin.

Kun.uz

7.11. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing. Diqqat, bitta so‘zning izohi berilmagan! Uni toping va izohlang. Javoblaringizni izohli lug‘at yordamida tekshiring.

T/r	So‘z		Izohi
1	neyron	A	organizmda turli fiziologik jarayonlarni boshqaruvchi kimyoviy moddalarning umumiy nomi
2	meditatsiya	B	miyadagi kimyoviy modda; quvonch, mukofot va rag‘bat kabi ijobiy hissiyotlarni shakllantiradi
3	serotonin	D	organizmning tashqi yoki ichki bosim, xavf yoki zo‘riqishga nisbatan ko‘rsatadigan psixologik-fiziologik javobi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4	kortizol	E	maqsad sari intilishga, faoliyatni boshlash va davom ettirishga undovchi ichki kuch
5	gormon	F	nerv tizimining asosiy hujayrasi; axborotni qabul qiladi, uzatadi va qayta ishlaydi
6	stress	G	kayfiyat, uyqu, ishtaha va hissiy barqarorlikni boshqaradigan kimyoviy modda; tinchlik va xotirjamlik hissi bilan bog‘liq
7	motivatsiya	H	ruhiy zo‘riqish vaziyatida ajraladigan gormon bo‘lib, organizm xavfga tezroq moslashishiga yordam beradi
8	dofamin	I	* * *

1. Nima uchun insonning o‘y-fikrlari uning xatti-harakati va kayfiyatiga ta’sir qiladi? Matn asosida javob bering.
2. Muallifning hasad haqidagi fikrini hayotiy misollar bilan izohlang.
3. Kundalik shukronalik uchun muallif qanday misollar keltirgan? Siz ham shunga o‘xshash bitta vaziyat ayting.
4. Matnda ruhiy holatni boshqarishning qanday usullari haqida so‘z borgan?

7.12. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Muallif salbiy fikrlarni boshqarish usuli sifatida qanday yondashuvni taklif qiladi?

A) ularni butunlay yoddan chiqarish
B) ulardan qochish uchun yolg‘iz qolish
D) ularni ijobiy muqobiliga almashtirish
E) ularga ko‘nikish va e’tibor bermaslik

2. Qaysi xulosa matn mazmuniga to‘la mos keladi?

A) Ijobiy fikrlash tug‘ma bo‘ladi.
B) Fikrlarning sog‘liqqa ta’siri yo‘q.
D) Ijobiy fikrlashga odatlanish mumkin.
E) Atrof-muhit inson fikrini “o‘qiy” oladi.

3. Hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Noto‘g‘rilarini to‘g‘rilab ayting.

T/r	Hukmlar	T/N
1	Serotonin va dofamin faollashuvi salbiy fikrlar natijasida yuzaga keladi.	* * *
2	Matnda ijobiy fikrlash individual jarayon emas, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq ko‘nikma sifatida tasvirlangan.	* * *
3	Nafas mashqlari fikrlar oqimini kuchaytiradi va insonni yanada faol qiladi.	* * *

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4	“Magnit singari ishlaydi” jumlasi matnda biologik jarayonlarni ilmiy asoslash uchun ishlatilgan.	* * *
5	Matnda ijobiy va salbiy fikrlar inson hayotiga energiya shaklida ta’sir qilishi aytilgan.	* * *

7.13. Atrofingizdagi insonlarning xatti-harakatlari, hayot tarzini kuzating. Kuzatuvlaringiz hamda o‘qigan matningizdagi ma’lumotlar asosida mulohazalaringizni qisqa qaydlar shaklida yozib keling.

7.14. “Nimani o‘ylasangiz, shunga yaqinlashasiz: fikrlar magnit kabi” matnini quyidagi mezonlar asosida baholang va javobingizni izohlang.

Mezon	0 ball	1 ball	2 ball	3 ball
Dalillar sifati	Dalil yo‘q.	Dalillar noaniq.	Qisman dalillangan.	Ilmiy manbalar, statistikalar, aniq raqamlar bilan dalillangan.
Muallifning munosabati	O‘ta subyektiv.	Qisman subyektiv.	Qisman neytral.	Neytral, muvozanatli, qarama-qarshi fikrlarni ham ko‘rsatgan.
Mantiqiy izchillik	Tartibsiz matn.	Qisman izchil.	Tartibli matn.	Izchil, mantiqiy bog‘lanish aniq.
Manbalarga tayanganlik	Manbalar yo‘q.	Manbalar noaniq.	Ilmiy bo‘lmagan, lekin ishonchli manbalar.	Ilmiy adabiyotlar, mutaxassis fikri, akademik manbalar bor.
Uslub va auditoriyaga mosligi	Auditoriyaga mos emas.	Auditoriyaga qisman mos.	Uslub va auditoriyaga moslik bor.	To‘liq mos, uslub aniq tanlangan.

7.15. *“Har kuni hech bo‘lmaganda erishgan uchta narsasini yozish, ular uchun minnatdorlik tuyish inson kayfiyatini ko‘taradi va hayotga boshqacha qarashni o‘rgatadi”.* Shu tavsiya asosida erishgan 3 ta yutug‘ingizni yozing.

7.16. Matnda qo‘llangan tinish belgilarini quyidagi tartibda izohlab yozing.

Misol	Tinish belgisi	Izoh
1. Ularning faoliyati natijasida dofamin, serotonin, kortizol kabi moddalar ajraladi.	vergul	* * *
2. Agar inson doim salbiy tomonga e’tibor qaratsa, atrof-muhit ham unga o‘sha energiyani qaytaradi.		* * *

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3. Ijobiy fikrlash – inson ongining eng kuchli qurollaridan biri.	tire	* * *
4. Jahl organizmda stress gormoni – kortizol ortiqcha ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi.		Gapda aniqlashtirish, izohlash mazmunidagi ajratilgan bo‘lakdan oldin tire qo‘yilgan.
5. Qo‘rquv: tez-tez xavotirlanish asab tizimini zaiflashtiradi, yurak va uyqu muammolariga sabab bo‘ladi.	ikki nuqta	* * *
6. Miya doimiy ravishda to‘lqinlar chiqaradi va ular magnit singari ishlaydi: qanday fikr taratsak, xuddi shunday kayfiyat va voqealar bizga qaytadi.		* * *
7. Masalan, “Bu ilojsiz” o‘rniga “Men kichik qadamlar bilan boshlay olaman”, deyish bosimni yengillashtiradi va ishonchni kuchaytiradi.	qo‘shtirnoq	* * *
8. Yaxshi fikrlar kayfiyatni ko‘taradi, serotonin va dofamin kabi “baxt gormonlari”ni faollashtiradi.		* * *

7.17. Sizningcha, quyidagi gapda nima sababdan nuqtali vergul ishlatilgan? Qoida bilan tanishing va javobingiz to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Quyidagi belgilar kuzatilsa, qon tahlili orqali B vitamini darajasini ko‘rib chiqish lozim:
- surunkali charchoq;
- loqaydlik, kayfiyatning o‘zgaruvchanligi;
- teri va sochlar muammosi;
- kamqonlik;
- diqqatning pasayishi;
- asabiylashish.

Nuqtali vergul – shunchaki tinish belgisi emas, tartib posbonidir. U vergulga qaraganda kuchliroq to‘xtamni bildiradi, jumlani nuqtadek keskin ajratib yubormaydi. Bu tinish belgisi eng ko‘p qo‘llanadigan uch holat:

1. Guruhlashda. Agar gapda uyushiq bo‘laklar ko‘paygan va mazmunan har xil guruhlarga bo‘lingan bo‘lsa, ularni ajratish uchun nuqtali vergul kerak:

Uning xonasida narsalar qalashib yotardi: kitob, daftar, xarita; shaxmat donalari va sport toshlari; shirinliklar, suv va non.

2. Sanab ko‘rsatganda. Fikr yoki qoidalar bandlarga bo‘lib sanalganda har bir qator oxiriga nuqtali vergul qo‘yiladi. Bu – bandlar alohida gap emas, balki yaxlit bir fikrning mantiqiy bo‘laklari ekanini bildiradi (agar bandlar mustaqil gap shaklida kelsa, nuqta qo‘yilishi ham mumkin):

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Sog‘lom turmush tarzi quyidagilarga bog‘liq:
a) jismoniy faollik;
b) to‘g‘ri ovqatlanish;
d) ruhiy barqarorlik;
e) gigiyena va tartib.

3. Qo‘shma gaplar orasida. Agar qo‘shma gap tarkibidagi bo‘laklar o‘z ichida vergul olgan yoki mazmunan mustaqil bo‘lsa, ular nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Voqealar qiyoslanganda:

Bir qarasangiz, ertalabki mashqlarni jo‘shqinlik bilan bajaradi; bir qarasangiz, chuqur nafas olib, ruhan tinchlanishga urinadi.

Jarayon va natija ajratilganda:

Gapning bir qismida voqealar sanalib, keyingi qismida mustaqil, yangi fikr aytilsa:

U uzoq yurdi, charchadi, ammo to‘xtamadi; kechga borib manzilga yetdi.

7.18. Tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ularning qo‘llanish sababini izohlang.

1. Foydali so‘z go‘dakdan chiqsa ham quloq sol yomon so‘z mo‘ysafiddan chiqsa ham quloq solma (“Avesto”dan).
2. Do‘kondan un yog‘ go‘sht daftar qalam o‘chirg‘ich shippak ko‘ylak ro‘mol sotib oldik.
3. Yaxshini yomon dema olishing bo‘lsa ham
   Yomonni yaxshi dema tanishing bo‘lsa ham.
4. G‘oliblar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlanadi
A) hakamlar e’tirofi;
B) eng ko‘p o‘qilgan qisqa hikoya;
D) eng ko‘p ovoz yig‘gan qisqa hikoya.

7.19. Namuna asosida sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotiga oid reklama matni yarating. Nuqtali vergulning qo‘llanishini kuzating va matningizda undan foydalaning.

Yangi hayotga bugun qadam qo‘ying!

Sog‘lom tana – baxtli hayot kaliti!
Sport tashqi ko‘rinishingizni ham, ichki dunyongizni ham o‘zgartiradi.

Bizning suzish maktabimizda sizga quyidagi imkoniyatlar taqdim etiladi:
– zamonaviy suzish havzalari;
– professional murabbiylar;
– shaxsiy dasturlar va sog‘lom muhit.

Manzil: *Toshkent shahri Amir Temur ko‘chasi 45-uy.*
Narxlar: kattalar uchun 30 ming so‘m, bolalar uchun 20 ming so‘m.

Hoziroq joy band qiling! +998 90 000-00-00 www.soglomhayot.uz

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1. Genetik kasalliklar haqida nimalarni bilasiz? Sog‘lom turmush tarzi ularning oldini olishga yordam berishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.
2. Agar siz sog‘lom hayot targ‘ibotchisi bo‘lsangiz, odamlarga qanday uchta tavsiya berardingiz?

7.20. Qr kod orqali intervyuni diqqat bilan tinglang va topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning.

Suhbatdoshlar:

Barno Odilova – Sog‘liqni saqlash vazirligi Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi direktori;

Risolat Madiyeva – “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiri.

“Inson o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni his qilib yashashi kerak” 5

7.21. Berilgan so‘zlarga mos izohlarni topib, yozing. Diqqat, bitta so‘zning izohi berilmagan! Taxmin qiling va lug‘atdan tekshiring.

genetika | nomedikamentoz | gipertoniya | qandli diabet

1	qon bosimining ko‘tarilishi
2	turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan dorisiz davolash usuli
3	qondagi shakar miqdorining yuqoriligi bilan kechadigan surunkali kasallik
4	* * *

7.22. Audiomatn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Mutaxassisning fikricha, inson sog‘lig‘i ko‘proq nimaga bog‘liq?

A) tibbiy xizmat sifatiga
B) turmush tarzi va odatlarga
D) genetik omillarga
E) ekologik sharoitga

2. Mutaxassisning ta’kidlashicha, genetik kasalliklar kechroq qo‘zg‘alishining sababi nima?

A) tibbiyot sifatining oshgani
B) genlarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi
D) yosh kattalashgani sari immunitet ortib borishi
E) sog‘lom turmush tarzi tufayli xavfning kamayishi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3. Intervyudan qanday umumiy xulosa chiqarish mumkin?

A) Tibbiyot barcha kasalliklarning asosiy yechimidir.
B) Inson salomatligining yarmi sifatli tibbiy xizmatga bog‘liq.
D) Insonning hayot tarzi uning sog‘lig‘ini belgilaydi.
E) Kasalliklar asosan ekologik sabablar tufayli yuzaga keladi.

4. Ma’lumotlarning qaysilari fikr, qaysilari fakt ekanini aniqlang.

T/r	Matndan olingan ma’lumotlar	Fikr/Fakt
1	Inson sog‘lom turmush tarziga amal qilsa, 100–120 yoshgacha yashashi mumkin.	* * *
2	Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti salomatlik omillarini 4 guruhga bo‘ladi.	* * *
3	Odam salomatligining atigi 10–12 foizi tibbiy xizmatlarga bog‘liq.	* * *
4	Inson sog‘lom bo‘lishi uchun to‘g‘ri ovqatlanishi, jismoniy faollik zarur.	* * *
5	Genetik kasalliklar sog‘lom turmush tarzi tufayli kechroq namoyon bo‘lishi mumkin.	* * *
6	Fastfud va shakarli mahsulotlarni cheklash – sog‘liq uchun foydali.	* * *


7.23. Uy vazifasi sifatida tayyorlagan sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotiga oid reklama matningizni o‘qib bering. U tinglagan audiomatningiz mavzusiga qay darajada aloqadorligini izohlang.

7.24. Namuna asosida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi plakat tayyorlab, o‘qituvchingizga taqdim eting.



RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

7.25. Quyidagi diagrammani tavsiflab yozing. Matningizda nuqtali verguldan foydalaning.



Yuz.uz

7.26. Diagramma asosida yozgan matningizni o‘qib bering.

7.27. Bilasizki, mantiqiy urg‘u gapda e’tibor qaratilayotgan asosiy jihatni ko‘rsatadi. Gaplarni turli ohanglarda o‘qib ko‘ring hamda mantiqiy urg‘uni aniqlang. Javobingizni izohlang.

Namuna:
Men *sen bilan kelaman.* **(“kim? – men”)**
Men ***sen bilan*** *kelaman.* **(“kim bilan? – aynan sen bilan”)**

1. Biz shu masalani hal qilishimiz kerak.
2. Nigora sport bilan shug‘ullanadi.
3. Umid mashg‘ulotga ertalab keldi.
Umid ertalab mashg‘ulotga keldi.
4. Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to‘xtatadi.
5. O‘zbek polvonlari 2015-yili Livanning Bayrut shahrida bo‘lib o‘tgan musobaqada 14 ta medal olgan.

7.28. “Sog‘lom hayot” bobida o‘rgangan ma’lumotlaringizni ro‘yxat shaklida yozing.

7.29. O‘rgangan ma’lumotlaringiz asosida “Sog‘lom hayot sirlari” mavzusida ijodiy matn yozing. Matningizni ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilish uchun qayta tahrirlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



VIII BOB.
MAQSAD VA HARAKAT

Hozirgacha qanday yutuqlarga erishgansiz? Ularning sababi nima?

RAYYONANING QUVONCH YOSHLARI

Andijonlik 10-sinf o‘quvchisi Rayyona Ibrohimova Germaniyada o‘tkazilgan Butunjahon nemis tili olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritdi. Bu yutuq ortida adabiyotga bo‘lgan muhabbat, bobosining orzusi, mag‘lubiyat achchig‘i va maqsad sari tinimsiz harakatlar yotibdi. Bu – o‘z yo‘lini izlagan iqtidorli qizning hikoyasi.

Rayyona adabiyotga bobosining orzusi tufayli kirib keldi. U she’rlar yozar, Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olishni niyat qilardi. Bu yo‘lda u musiqaga ham qiziqdi, “Yosh kitobxon” kabi nufuzli tanlovlarda o‘zini sinab ko‘rdi. Ammo viloyat bosqichidagi mag‘lubiyat unga o‘z maqsadlariga boshqacha nazar bilan qarashga turtki bo‘ldi. Bobosining vafotidan so‘ng uning orzusini ro‘yobga chiqarish istagi yanada kuchaydi, ammo endi bu istak yangi yo‘nalish izlayotgan edi.

Shundan so‘ng onasi uni xorijiy tillarni o‘rganishga yo‘naltirdi. “Bunda ham Zulfiya qizi bo‘lasan, hatto taqdirlanishing mumkin. Xalqaro maydonlarga chiqish imkoniyatlaring ham ko‘payadi”, – dedi onasi uni ruhlantirib.

Maktab darslaridan tashqari 8-sinfdan Toshkent Gyote institutining respublikamizdagi yagona filiali, ya’ni Andijon shahrida joylashgan “Berlin Zentrum” o‘quv markazida tahsil olishni boshladi. Birinchi marta erishgan katta muvaffaqiyati – 5 oy o‘tar-o‘tmas Germaniyaga 3 haftalik yo‘llanma yutib olgani bo‘ldi, bu 2022-yilning mart–aprel oylarida edi. Germaniyaga birinchi safar esa o‘sha yilning avgust oylariga to‘g‘ri keldi. Shundan keyin unda nemis tiliga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi.

Onasining maslahati bilan u xorijiy tillarni, xususan, nemis tilini chuqur o‘rganishga kirishdi. Qisqa vaqt ichida katta muvaffaqiyatga erishib, Germaniyaga sayohat yo‘llan-

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

masini qo‘lga kiritdi. So‘ng respublika fan olimpiadasida g‘olib bo‘lib, Butunjahon nemis tili olimpiadasining milliy saralash bosqichiga yo‘llanma oldi. O‘zbekistonlik o‘quvchilar 12 yildan beri bu musobaqada medal ololmagani uning mas’uliyatini yanada oshirdi.

Rayyona har doim ustozlari bilan ishladi, ota-onasining qo‘llab-quvvatlashlari bilan olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rdi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, olg‘a borishi kerakligini anglab yetdi. 12 yil davomida yurtdoshlariga g‘oliblik nasib qilmagan olimpiadada birinchi medalni O‘zbekistonga olib kelishni maqsad qilgan edi. Final bosqichida nemis tilini qay darajada bilishi, insoniyligi, o‘zligini anglashi, o‘zi va o‘zgalarni hurmat qilishi, ijtimoiy odob kabi xususiyatlari 2 ta og‘zaki va 1 ta yozma imtihonda baholandi. Rayyona Ibrohimova B1 yo‘nalishida 1-o‘ringa munosib topildi.

Rayyonaning fikricha, g‘alabasida uning o‘zbekona tarbiyasi va Vataniga mehri katta o‘rin tutgan. U bir topshiriqni eslaydi: “Turli shakldagi legolardan o‘zimiz uchun qadrli va bizni eslatadigan narsa yasashimiz kerak edi”. Rayyona bu vazifada Mustaqillik maydonini, bayrog‘imizdagi oy va yulduzni, mehmondo‘stlik ramzi – so‘rida o‘tirgan odamlarni va hatto qoraqalpoq xalqi timsoli sifatida o‘tovni ham tasvirlaganini aytadi.

“Faqat bu topshiriq emas, bir hafta davomidagi yurish-turishimiz, muomalamiz ham baholandi. Mening o‘z tariximni, Vatanimni sevishim ana shunday vaziyatlarda qo‘l keldi”, – deydi u. Bu misol g‘oliblik faqat til bilish darajasi bilan emas, balki shaxsiyat, dunyoqarash va o‘z madaniyatini chuqur his qilish bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Har bir muvaffaqiyat ortida mehribon ota-ona va matonatli ustozlar turadi. Rayyona ham o‘z yutug‘ida maktabdagi va til markazidagi ustozlarining hissasini, eng muhimi, unga doim ishonch bildirgan va mag‘lubiyatlarida ham dalda bo‘lgan ota-onasining qo‘llab-quvvatlashini alohida ta’kidlaydi.

O‘z tajribasidan kelib chiqib, Rayyona muvaffaqiyat formulasini shunday ifodalaydi: “Niyat – harakat – intizom – natija”. Uning fikricha, bir maqsadga butun vujudi bilan intilish, harakatdan to‘xtamaslik va atrofdagilarning mayda gaplariga e’tibor bermaslik, oxir-oqibat, albatta o‘z samarasini beradi.

“Hurriyat” gazetasidan

1. Rayyonaning g‘alabasiga nimalar sabab bo‘ldi?
2. Qaysi voqea Rayyonaning nemis tiliga muhabbatini oshirdi?
3. Ayting-chi, maqsadlarini amalga oshirishida unga nimalar yordam berdi?
4. Sizningcha, muvaffaqiyat formulasi nima? Siz uni qanday ifodalagan bo‘lardingiz?

8.1. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Rayyona maqsadlari yo‘lida harakat yo‘nalishini o‘zgartirishiga nima sabab bo‘ldi?

A) kitobxonlik tanlovida mag‘lub bo‘lishi
B) onasining nemis tiliga qiziqtirishi

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

D) bobosining orzusini amalga oshirish istagi
E) Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lishi

2. Butunjahon fan olimpiadasiga tayyorgarlik Rayyonaning mas’uliyatini oshirdi. Chunki …

A) u Germaniyaga yo‘llanma oldi
B) u ona yurtini dunyoga tanitmoqchi edi
D) unga ota-onasi katta ishonch bildirdi
E) uning raqiblari bir-biridan kuchli edi

3. Rayyonaning ta’kidlashicha, xalqaro olimpiadada qatnashuvchilarning qaysi jihatlari sinovdan o‘tkazildi? Bir nechta javobni tanlashingiz mumkin.

A) o‘zlikni anglash
B) maqsadga intilish
D) o‘zi va o‘zgalarni hurmat qilish
E) til bilish
F) ota-onani hurmat qilish
G) insoniylik
H) ijtimoiy odob

4. Matnning asosiy g‘oyasi qaysi?

A) Nemis tilini o‘rganish qiyin, ammo “Berlin Zentrum” o‘quv markazi yordam beradi.
B) Aniq maqsad, tinimsiz mehnat, ota-ona va ustozlar qo‘llashi – muvaffaqiyat kaliti.
D) Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olish xalqaro olimpiadada g‘alaba qozonishdan ko‘ra osonroq.
E) Inson “maqsad – harakat – natija – intizom” formulasiga amal qilib yashasa, yuqori natijalarga erishishi kafolatlanadi.

5. Quyidagi birliklar nima uchun qo‘shtirnoqqa olingan? Ularni moslashtiring.

1. “Berlin Zentrum” 2. “Niyat – harakat – intizom – natija” 3. “Yosh kitobxon”

a) tashkilot nomi
b) xalqaro nom
d) maxsus shior
e) o‘zganing nutqi
f) loyiha nomi
g) turli mukofotlar nomi

8.2. Matndan vergul va tirening qo‘llanishiga oid misollar toping va izohlang.

8.3. Eng asosiy maqsadingizni aniqlang. Muvaffaqiyat formulangizni tuzing va izohlab yozing. Tavsiya: turli chizmalardan foydalanishingiz mumkin.

Namuna:
Muvaffaqiyat men uchun tasodif emas, balki ongli tanlov va izchil harakat natijasidir...
Shu bois mening muvaffaqiyat formulam quyidagicha: ...



RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

8.4. Muvaffaqiyat formulangizni partadoshingizniki bilan solishtiring. O‘zaro fikr almashing.

8.5. Ayting-chi, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri va nima uchun?

1. Do‘stlaringiz bilan ulashing, yaqinlaringiz bilan ulashing, guruhdagilar bilan ulashing, tanishlar bilan ulashing.
2. Do‘stlaringizga ulashing, yaqinlaringizga ulashing, guruhdagilarga ulashing, tanishlarga ulashing.

Nutq shtamplari – eskirgan, bo‘yoqdorligini yo‘qotgan so‘z, ibora va jumlalar. Masalan, matnda *bugunlik kunda, maqsadga muvofiq, shuni ta’kidlash o‘rinliki, shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, sir emaski, tizimli ishlar, ob-havo noqulay kelgani sababli* kabi qolip iboralarni ishlatish uning ta’sirchanligini pasaytiradi, originalligiga zarar yetkazadi.

Kalka tarjimalar, tilni yaxshi bilmaslik va uquvsizlik oqibatida yuzaga kelgan qolip ifodalar ham bor: *to‘lovni amalga oshirdi, zarbani amalga oshirdi, qattiq qo‘nishni amalga oshirdi, bo‘lib hisoblanadi, katta rol o‘ynaydi, muhim rol bajaradi, vaksina qabul qildi.*

Nutq shtampining yanglish qo‘llanishiga bir misol:

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi. ✗

Yuqoridagi gapda *bo‘lib hisoblanadi* iborasi ortiqcha, *hisoblanadi* so‘zini qoldirish ham tahrir nuqtayi nazaridan ma’qullanmaydi. Jumlaning lo‘nda va to‘g‘ri shakli:

Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. ✓

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. ✓

Jumladagi *jamiyatning asosiy bo‘g‘ini* ifodasini ham bemalol nutq shtampi deyish mumkin. Chunki qo‘llanaverib ohorini butkul yo‘qotgan.

8.6. Nutq shtamplarini aniqlang va gaplarni tahrirlab yozing.

Namuna: ***Bugungi kunda*** *yoshlar tarbiyasi dolzarb masala* ***hisoblanadi****.* → *Yoshlar tarbiyasi jamiyat uchun muhim masaladir.*

1. Shuni alohida ta’kidlash joizki, kitob mutolaasi inson tafakkurini kengaytiradi.
2. Bemor dorini qabul qildi.
3. Samolyot favqulodda qattiq qo‘nishni amalga oshirdi.
4. U sport mashg‘ulotidan keyin dush qabul qildi.
5. Mazkur masala dolzarb bo‘lib hisoblanadi.
6. O‘z navbatida aytish mumkinki, mazkur tadbir muvaffaqiyatli o‘tdi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

3 MAQSAD VA HARAKAT

8.7. Ayting-chi, oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizga erishish yo‘lida qanday qiyinchiliklarga duch kelgansiz? Ularni yengib o‘tishda nimalarga e’tibor qaratgansiz? Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Maqsadlarim	Qiyinchiliklar	Yechimlar	Natijasi
* * *	* * *	* * *	* * *

8.8. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatini hayot tarzingizga bog‘lab izohlang.

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o‘zingdin istagil.

8.9. Maqsad sari intilish, halol mehnat orqali yutuqqa erishishga oid hikmatli gaplardan topib, yondaftarchangizga yozing.

“Imkoniyatni boshqalar emas, insonning o‘zi yaratishi kerak” degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

INSONNING IMKONIYATI UNING IRODASIDADIR



Men o‘z yo‘lini ilm, izlanish va mehnat orqali topgan insonman. Ba’zilar uchun hayotning eng katta quvonchi ko‘rishdir, men esa dunyoni qalb ko‘zim bilan ko‘raman. Chunki yurak nuri bilan ko‘rilgani ko‘z bilan ko‘rilgan manzaradan-da yorqinroqdir.

Mening bolalik davrim orzularga boy, nihoyatda sermazmun kechgan. Chunki o‘sha paytlari onam bizga ko‘plab qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga molik asarlar, ibratli rivoyatlarni o‘qib, mazmunini tushuntirib berar edilar. Shu tufayli menda bolaligimdan kitob mutolaasiga o‘zgacha qiziqish paydo bo‘lgan. Yetti yoshga kirganimda onam meni Toshkent shahridagi ko‘zi ojiz bolalar maktabiga o‘qishga olib borganlar. Maktabga borishni intiqlik bilan kutgan bo‘lsam-da, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor shaxslar uchun mo‘ljallangan bo‘rtma-nuqtali Brayl yozuvini o‘rganishni boshlaganimda meni o‘zgacha hayajon, qo‘rquv hissi chulg‘ab olgan. Bu jarayonda ota-onam va ustozlarim bergan ma’naviy rag‘bat sabab barcha fanlarni katta qiziqish bilan o‘zlashtirib, iqtidorli o‘quvchilar safidan o‘rin olganman. Ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishim nihoyatda kuchli bo‘lgani bois kelajakda tilshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borib, fan va ta’lim so-

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

hasi taraqqiyotiga hissa qo‘shishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘yganman. Shu tufayli ezgu maqsadlarim sari olg‘a intilgan holda o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan respublika fan olimpiadasi 1-o‘rin sovrindori sifatida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetiga imtiyozli qabul qilindim.

Talabalik davrimda ustozlarimning bergan maslahatlari, ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlariga tayangan holda iqtidorli yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan ilmiy anjuman va tanlovlarda faol qatnashib, sovrinli o‘rinlarga sazovor bo‘ldim. Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, “Kamolot” stipendiyasi bilan taqdirlandim. Bakalavriat bosqichini imtiyozli diplom bilan tamomlab, Davlat stipendiyasi sohibi sifatida magistratura bosqichiga imtiyoz asosida qabul qilindim.

Qat’iy intizom va maqsadli harakatim tufayli “O‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldim. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida talabalarga tilshunoslik fanlaridan saboq berish bilan birga Inklyuziv ta’lim ilmiy-amaliy laboratoriyasi rahbari sifatida yoshlar bilan ishlab kelmoqdaman.

Men saboq berayotgan yoshlarning orzularida, irodasida, ezgu niyatlarida o‘zimni ko‘raman. Har bir talabamga imkoniyatni boshqalar emas, insonning o‘zi yaratishi kerakligi g‘oyasini singdiraman. Ushbu ezgu g‘oya asosida bugungi kunga qadar ko‘zi ojiz shaxslar uchun tilshunoslik fanlariga oid audiokitoblar tayyorlashga, sun’iy idrok texnologiyasi asosida o‘zbek tilidagi elektron matnni ovozli xabarga aylantiruvchi nutq sintezatorining dastlabki versiyasini foydalanuvchilarga taqdim etishga muvaffaq bo‘ldik. Hammualliflikda tayyorlangan elektron lug‘at dasturlarimiz keng jamoatchilik o‘rtasida ommalashdi. “Google Play” platformasidan o‘rin olgan “Bolalar assotsiativ lug‘ati” va “Lingvokulturologiya terminlarining izohli audiolug‘ati” mobil ilovalari shular jumlasidandir.

Shu kungacha olib borgan ilmiy izlanishlarim natijasida “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi”, “O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati iftixori” ko‘krak nishonlari, “Alisher Navoiy” ordeni, “Shuhrat” medaliga sazovor bo‘ldim, “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” I Respublika tanlovida “Ta’lim sohasidagi eng samarali loyiha” nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdim. “Ixtirochi ayol – 2022” tanlovida ham 1-o‘rin sovrindori bo‘ldim.

Mening ilmiy faoliyat yo‘lim yoritilgan biografiyam “O‘zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasining 2023-yilgi to‘plami, www.taniqliolimlar.uz platformasi va “Eng yaxshi ilmiy izlanuvchilar yuztaligi” almanaxining 2024-yilgi to‘plamiga kiritildi.

Bir qator shogirdlarim xalqaro va respublika konferensiyalari, fan olimpiadalari, ilmiy ishlar, startap loyihasi tanlovlarida faol qatnashib, g‘olib bo‘lib kelmoqda.

Turfa mukofot-u yutuqlarim menga inson o‘z hayotida qanday sinovlarga duch kelmasin, yuragida orzu va fidoyilik bo‘lsa, u albatta maqsadga erishishini isbotladi. Hayo-

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

tim davomida bir narsani angladim: insonning imkoniyati uning irodasidadir. Agar inson o‘ziga ishonsa, u faqat ko‘zi emas, balki qalbi bilan ham ko‘radi, yuragi bilan yo‘l topadi. Yoshlar, sizlardan shuni istayman: orzu qilishdan qo‘rqmang. Har bir qadam sizni yangi cho‘qqiga olib chiqadi, har bir sinov sizni yanada kuchliroq bo‘lishga undaydi. O‘zingizga ishonchni yo‘qotmang va yodingizda tuting: umid nuri ko‘zlarda emas, qalblardadir.

Munavvara Qurbonova,
filologiya fanlari doktori, professor

8.10. Jadvaldagi so‘z va birikmalar ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib taxmin qiling va yozing. Lug‘at yordamida keyingi ustunni ham to‘ldiring.

So‘z/Birikma	Taxminim	Lug‘atda
Brayl yozuvi	* * *	* * *
inklyuziv ta’lim	* * *	* * *
dissertatsiya	* * *	* * *
pragmatika	* * *	* * *
lingvokulturologiya	* * *	* * *
nominatsiya	* * *	* * *

1. Muallifning kitobxonlikka qiziqishiga nima sabab bo‘lgan?
2. Muallif o‘z oldiga qanday maqsad qo‘ygandi?
3. *“Hayotim davomida bir narsani angladim: insonning imkoniyati uning irodasidadir”.* Ushbu fikrga munosabat bildiring.
4. Ushbu matn kimlar uchun mo‘ljallangan? Javobingizni asoslang.

8.11. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan fikr va faktga 4 tadan misol topib, yozing.

2. Matndan muallifning “Insonning imkoniyati uning irodasidir” degan g‘oyasini asoslovchi ikkita dalilni topib, yozing.

3. Muallifning ilmiy va innovatsion faoliyati natijalaridan 3 tasini topib, yozing.

4. Matn mazmunini yanada yaxshiroq anglashga qaratilgan 3 ta savol tuzing.

8.12. Matndan muallifning obrazli ifodalarini aniqlab, namunadagidek yozing. Diqqat: matnda bunday ifodalar soni 4 tadan ortiq.

Men dunyoni qalb ko‘zim bilan ko‘raman. / Men hayotni ichki hislarim orqali anglayman.

8.13. Davriy nashrlardan obrazli fikr ifodasiga oid 5 ta misol topib, yozing. Obrazlilikni ta’minlagan til birliklarini izohlang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

8.14. Gaplardagi tinish belgilarining qo‘llanish sababini izohlang.

1. Qat’iy intizom va maqsadli harakatim tufayli “O‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldim.

2. “Google Play” platformasidan o‘rin olgan “Bolalar assotsiativ lug‘ati” va “Lingvokulturologiya terminlarining izohli audiolug‘ati” mobil ilovalari shular jumlasidandir.

3. Shu kungacha olib borgan ilmiy izlanishlarim natijasida “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi”, “O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati iftixori” ko‘krak nishonlari, “Alisher Navoiy” ordeni, “Shuhrat” medallariga sazovor bo‘ldim.

4. “Ixtirochi ayol – 2022” tanlovida ham 1-o‘rin sovrindori bo‘ldim.

5. Yoshlar, sizlardan shuni istayman: orzu qilishdan qo‘rqmang.

8.15. Gaplar juftidan tinish belgisi to‘g‘ri qo‘llanganini aniqlab, yozing.

1. Misrda ro‘y bergan mana bu voqea esa, hammasidan oshib tushadi. / Misrda ro‘y bergan mana bu voqea esa hammasidan oshib tushadi.

2. Aslida, bu masalaga chuqur yondashish kerak edi. / Aslida bu masalaga chuqur yondashish kerak edi.

3. Axir bu oddiy narsa-ku / Axir, bu oddiy narsa-ku!

4. Shu bois, yetti o‘lchab, bir kesish kerak. / Shu bois yetti o‘lchab, bir kesish kerak.

5. Sherigim so‘radi: “Shu yo‘ldan to‘g‘ri ketaversak shaharga chiqamizmi?” / Sherigim so‘radi: “Shu yo‘ldan to‘g‘ri ketaversak, shaharga chiqamizmi?”

8.16. “Ichki yo‘lko‘rsatkich bilan suhbat” matnini to‘ldirib yozing. Diqqat: bunda shaxs o‘zining ichki ovozi (navigatori) bilan xayoliy suhbat quradi.

– ...?

– Men insonning ichki yo‘lko‘rsatkich tizimiman. Kimdir meni “motivatsiya”, kimdir “vijdon”, yana birov “qalb ovozi” deydi.

– Ko‘pchilik maqsad qo‘yadi, lekin boshlashga qiynaladi. Nima uchun?

– Chunki … .

– Maqsad qo‘yayotganda ... ?

– Avvalo, o‘ziga savol berishi kerak: “Men bunga nima uchun intilyapman?” “Nega aynan shu yo‘l?” Sabab aniqlansa, yo‘l ham aniq ko‘rinadi.

– Harakat vaqtida ba’zida charchash, shubha yoki qo‘rquv paydo bo‘ladi. ... ?



RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Men odamlarga shunday deyman: “To‘xtab nafas rostla, lekin ortga qaytma”.
– Ba’zan odamlar seni eshitmay qoladi. Qachon shunday bo‘ladi?
– ...
– Maqsad sari intilayotgan yoshlarga eng avval kerak bo‘ladigan narsa nima?
– ...
– Xatolar-chi? Ular odamni maqsad yo‘lidan qaytaradimi?
– …
– ... ?
– Birinchisi – aniqlik: maqsad tushunarli bo‘lishi kerak.
– Ikkinchisi – qat’iyat: irodali bo‘lish, maqsad sari intilish.
– Uchinchisi – ishonch: odam o‘ziga ishonsa, yo‘li ham unga ishonadi.
– Suhbat uchun rahmat, ichki yo‘lko‘rsatkichim. Maslahatlaring juda foydali bo‘ldi.
– …

8.17. To‘ldirgan matningizni sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

8.18. “Ichki yo‘lko‘rsatkich bilan suhbat” matningizni iqtiboslar bilan boyitib, qayta yozing.

Sun’iy intellekt til taraqqiyotiga qanday hissa qo‘sha oladi?

TEXNOLOGIYA VA ONA TILIMGA MUHABBAT YO‘LI



Men, Muhammadsaid Mamasaidov, yigirma uch yoshli dasturchi va tilshunos-texnologman. Dasturchi oilasida o‘sganim uchun bolaligimdan kompyuter texnologiyalari bilan oshno bo‘ldim. Bu muhit kelajakdagi kasbimni tanlashimda muhim rol o‘ynadi.

Garchi rus tilida ta’lim olgan bo‘lsam-da, yuragimning bir burchida ona tilimizga bo‘lgan mehr hamisha yashirinib yotardi. Inha universitetida o‘qish davomida bu mehr yanada kuchaydi va ko‘plab innovatsion loyihalarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

Universitet davrida o‘zbek tili bazasi (UZWORDNET) loyihasida ishtirok etish menga katta tajriba berdi va bu loyiha davomida o‘zbek tilining naqadar boy va go‘zal ekanini chuqurroq his qildim. O‘shanda o‘zbek tilini faqat so‘zlashuv darajasida bilardim. Lekin loyihaga kirishar ekanman, tilimizga maftun bo‘la


RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

boshladim. Chunki o‘zbek tilini raqamlashtirish jarayonida uning o‘ziga xos nozik jihatlari, chuqur ma’noga ega birikmalar va iboralarini o‘rganish meni o‘ziga jalb etdi.

“Tahrirchi” loyihasi mening eng muhim qarorlarimdan biri bo‘ldi. O‘zbek tilidagi matnlarni qayta ishlash uchun maxsus dasturlar yaratish g‘oyasi tug‘ilganda bu ishning murakkabligini tushunardim. Matnlar imlosini tekshirish va xatolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan mavjud dasturlarni agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lgan turkiy tillar, xususan, o‘zbek tiliga nisbatan qo‘llab bo‘lmasdi. Shuning uchun “Tahrirchi” loyihasini o‘zbek tilining agglyutinativ tabiatini hisobga olgan holda ishlab chiqdik.

Loyihani tayyorlash uchun jamoa shakllantirdik va dastlabki variantini guruhimizning shaxsiy mablag‘lari hisobidan tayyorladik. Model ustida taxminan olti oy davomida ishladik, klaviaturaning o‘zi uchun uch oy vaqt sarfladik. Bu mehnatimiz o‘z samarasini berdi: “mGovAward – 2022” tanlovida g‘olib bo‘lib, 50 ming AQSH dollari miqdoridagi grant mablag‘ini yutib oldik.

Keyinchalik “President Tech Award – 2023” tanlovining “Sun’iy intellekt texnologiyalari” yo‘nalishida faxrli 1-o‘rinni egallab, 100 ming AQSH dollari miqdoridagi grantni qo‘lga kiritdik. Bu mablag‘lar loyihaning yanada rivojlanishiga xizmat qildi.



“Tahrirchi”ni takomillashtirish jarayonida tilshunos ekspertlarni jalb qildik va ular bilan birgalikda transliteratsiya ustida ish olib bordik. Dasturimizni “Microsoft Word”ga integratsiya qilishga erishganimiz ham katta yutuq bo‘ldi. Biroq loyihaning monetizatsiyasi bilan bog‘liq muammolarga duch kelganimiz uchun e’tiborimizni yangi yo‘nalishga qaratishga qaror qildik.

Shunday qilib, “Tilmoch” platformasi dunyoga keldi. Bu platforma sun’iy idrok asosida yaratilgan bo‘lib, matnlarni o‘zbek tiliga “Google” va “Yandex Translate”dan ko‘ra sifatliroq tarjima qiladi. Buning uchun o‘zbek tilida nashr qilingan juda katta hajmdagi ma’lumotlarni raqamlashtirib, platformaga joyladik. Tarjima tarixidagi barcha manbalar, ya’ni o‘zbek tiliga o‘girilgan deyarli barcha asarlar kiritildi.

“Tilmoch” platformasi bugun ko‘plab soha vakillari uchun ishonchli vositaga aylandi. Tibbiyot va texnika yo‘nalishidagi talabalar, jurnalistlar, tarjimonlar, muharrirlar platformadan samarali foydalanmoqdalar. Biz matnlarni sayqallash funksiyasi orqali tarjima sifatini yanada oshirishga erishdik.

Bizning kelgusi missiyamiz – “Tilmoch” orqali turkiy tillarni birlashtirish, ularning rivojiga hissa qo‘shish. Zero har qanday millatning kuchi uning tilidadir. Biz yaratayotgan texnologiyalar ana shu boylikni asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi. “Tilmoch” platformasi orqali biz nafaqat tillarni birlashtirmoqdamiz, balki madaniyatlarni ham yaqinlashtirmoqdamiz.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5 MAQSAD VA HARAKAT

Bugun men va mening jamoam o‘z oldimizga qo‘ygan maqsad – milliy tilimizni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish orqali uning kelajagini ta’minlash. Chunki til shunchaki muloqot vositasi emas, u millatning qalbi, uning ma’naviy boyligi va kelajagining kafolatidir.

Muhammadsaid Mamasaidov

8.19. Jadvaldagi so‘z va iboralar ma’nosini matn mazmunidan kelib chiqib taxmin qiling va yozing. So‘ng lug‘at yordamida keyingi ustunni ham to‘ldiring. Taxminlaringiz lug‘atdagi ma’noga qanchalik yaqin ekanini va matnning qaysi qismi so‘zning ma’nosini topishga yordam berganini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

So‘z/Ibora	Taxminim	Lug‘atda
transliteratsiya	ko‘chirib o‘tkazish yoki o‘girish	biror alifbo asosida yozilgan matnlar yoki alohida so‘zlarni boshqa bir alifbo vositalari bilan harfma-harf almashtirish
agglyutinativ til	* * *	* * *
model	* * *	* * *
monetizatsiya	* * *	* * *
platforma	* * *	* * *
missiya	* * *	* * *

1. Muhammadsaidning kasb tanlashidagi eng muhim omil qaysi?
2. Uning o‘z tiliga mehr qo‘yishi qachondan boshlangan?
3. Matnda qanday loyiha va platformalar haqida so‘z boradi? Ularning o‘ziga xosligi nimada?
4. Agar siz ham texnologiya va ijtimoiy soha (til, adabiyot, tarix)larga qiziqsangiz, bu ikki yo‘nalishni birlashtiruvchi qanday loyihani amalga oshirgan bo‘lardingiz?

8.20. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. “Tahrirchi”ning yaratilishiga nima sabab bo‘ldi?

A) o‘zbek tilining boyligini namoyish etish uchun yangi kompyuter dasturini yaratish istagi

B) “Microsoft Word”ga integratsiya qilishga mo‘ljallangan xorijiy dasturlar bilan raqobatlashish

D) mavjud dasturlarning o‘zbekcha matnlardagi imlo xatolarini to‘liq bartaraf eta olmasligi

E) UZWORDNET loyihasidan olingan grant mablag‘larini yangi loyihaga yo‘naltirish zarurati

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2. *“Tahrirchi” loyihasini o‘zbek tilining agglyutinativ tabiatini hisobga olgan holda ishlab chiqdik”.* Muallif ushbu fikr orqali nimaga ishora qilgan?

A) loyiha jamoaviy ishlab chiqilganiga
B) turkiy tillarni ketma-ket raqamlashtirganiga
D) dastur tili agglyutinativ tilga xoslanmaganiga
E) tillarni dasturlash qiyinchilik tug‘dirmaganiga

3. “Tilmoch” loyihasi tashkil qilinishining asosiy sababi nima?

A) “Google” va “Yandex Translate” tarjimalari sifatli emasligi
B) “Tahrirchi” loyihasida muammolarning vujudga kelgani
D) tarixiy manbalarni tarjima qilish imkoni bo‘lmagani
E) “Tahrirchi” loyihasini takomillashtirish boshlangani

4. Quyidagi ma’lumotlarni xronologik tartibda joylashtiring.

1	“Tilmoch” platformasi orqali turkiy tillarni birlashtirish missiyasini belgilash
2	UZWORDNET loyihasida qatnashish va ona tiliga maftun bo‘la boshlash
3	“Tahrirchi” loyihasini yaratish uchun o‘zbek adabiy tilining agglyutinativ tabiatini chuqur o‘rganish
4	rus tilida ta’lim olishiga qaramay, yuragida ona tiliga mehrning yashirinib yotishi

5. Dasturlar va ularning imkoniyatlarini moslashtirib yozing.

1. “Tahrirchi” 2. “Tilmoch”

a) Matndagi xatoliklarni aniqlaydi.
b) Matnni iboralar bilan boyitadi.
d) Boshqa tillardan tarjima qiladi.
e) Katta hajmli matnlarni sayqallaydi.
f) Barcha turkiy tillarni birlashtiradi.
g) Topilgan xatolarni tuzatadi.

8.21. Jumlalarni davom ettirib yozing.

1. *“Tilmoch” platformasi o‘zbek tiliga tarjimada “Google” va “Yandex Translate”dan ko‘ra sifatliroq ishlaydi. Bunday ustunlikka erishishning asosiy sababi …*
2. *“Tahrirchi” loyihasi to‘liq yakunlanmasdan turib asosiy e’tiborni “Tilmoch” platformasini yaratishga qaratishining asosiy sababi …*
3. *Matnlar imlosini tekshirib, xatolarni bartaraf etadigan mavjud dasturlarni o‘zbek tiliga qo‘llab bo‘lmasdi, chunki …*

8.22. QR kod orqali sifatli intervyu olish haqidagi maqolani o‘qing. O‘rganganlaringiz asosida intervyu olishni istagan kishingiz bilan xayoliy suhbat matnini tayyorlang. Intervyuga mos iqtiboslardan ham foydalaning. Taqdimotga tayyorlaning.

6

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

8.23. Tayyorlagan intervyungizni taqdim eting. Taqdimot qiziqarli chiqishi uchun sinfdoshlaringizdan birini qahramoningiz roliga taklif qiling va matningiz bilan tanishtiring. Boshqalarning intervyusini ham kuzatib boring va quyidagi mezonlar bo‘yicha baholang.



Intervyu topshirig‘ini baholash mezoni

T/r	Mezonlar	Tavsiflar	Ball
1	Mavzuga moslik	Intervyuda maqoladagi tavsiyalarga rioya qilingan, savollar maqsadli berilgan.	3
2	Qahramon tanlovi	Intervyu uchun aytadigan gapi bor, u haqdagi ma’lumot boshqalarga qiziq bo‘lgan odam tanlangan.	2
3	Savollar tartibi va sifati	Savollar mantiqan ketma-ket va suhbatdoshni gapirtira olishga qaratilgan.	3
4	Javoblarning ishonarliligi	Javoblar mantiqiy, hayotiy va qahramon obraziga mos.	3
5	Iqtiboslardan foydalanish	Intervyuga mos iqtiboslar tanlangan.	2
6	Taqdimot jarayoni va ijro	Nutq ravon, aniq, auditoriyaga mos, obraz ochilgan.	3
7	Qiziqarlilik darajasi	Suhbat qiziqarli, auditoriyani jalb qiladi.	2
8	Vaqtga rioya qilish	Belgilangan vaqt me’yorida taqdim etilgan.	2
		Umumiy ball	**20**

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

8.24. Matnlarni o‘qing va farqlarni aniqlang. Qaysi matn sizga ma’qul bo‘ldi? Nima uchun?

1-muallif	2-muallif
Selfstudy o‘rganishning eng samarali usuli. Lekin ko‘pchilikda yoki intizom, yoki motivatsiya kamlik qilgani uchun darslarda konspekt qilish va ma’ruza eshitish, nari borsa, berilgan uyga vazifani (o‘zi uchunmas, baho uchun) bajarishdan nariga o‘tilmaydi. Ilm talabida ekansiz, shaxsiy rejani mustaqil tuzing: unda kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yarim yillik, bir yillik va besh yillik maqsadlaringiz aks etsin. Bu maqsadlar shunchaki balandparvoz, havoyi gaplardan (4 yilda 4 ta tilni o‘rganaman, mashina olaman va hokazo kabi) iborat bo‘lmasin. Bir kunda necha bet kitob o‘qish, haftasiga necha soat vaqtni til o‘rganishga, qanchasini boshqa skillarni rivojlantirishga, qanchasini jamoat ishlarida qatnashish, qanchasi portfolio shakllantirish, qanchasini entertainment uchun, qanchasini meditation, qanchasini sport uchun va hokazo sarflash kabi unchalik jiddiy tuyulmaydigan, lekin izchillik natijasida muhim yutuqlarga zamin yaratuvchi vazifalarni belgilab oling. Stipendiyadan stipendiyagacha yoki sessiyadan sessiyagacha survival rejimida o‘qisangiz, bu o‘qish emas. Bu shunchaki vaqt o‘tkazish xolos. Odatda professor-o‘qituvchilar ma’ruzani boshlashdan avval mavzu/kursga doir adabiyotlar ro‘yxatini ilova qiladi. Shu adabiyotlarni shaxsan topib, o‘rganib chiqishga erinmang. Ma’ruzalarda nutq orasida qaysidir adabiyot eslab o‘tilsa, ularni ham e’tibordan chetda qoldirmang. Ularning hammasini bo‘lmasa ham, kamida yarmini o‘qib chiqsangiz, shundagina universitetga behuda kelib-ketmayotgan bo‘lasiz.	Mustaqil o‘rganish – ta’lim olishning eng samarali usuli. Lekin ko‘pchilikda yoki intizom, yoki ishtiyoq kamlik qilgani uchun darslarda konspekt qilish va ma’ruza eshitish, nari borsa, berilgan uyga vazifani (o‘zi uchunmas, baho uchun) bajarishdan nariga o‘tilmaydi. Ilm talabida ekansiz, shaxsiy rejani mustaqil tuzing: unda kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yarim yillik, bir yillik va besh yillik maqsadlaringiz aks etsin. Bu maqsadlar shunchaki balandparvoz, havoyi gaplardan (4 yilda 4 ta tilni o‘rganaman, mashina olaman va hokazo kabi) iborat bo‘lmasin. Bir kunda necha bet kitob o‘qish, haftasiga necha soat vaqtni til o‘rganishga, qanchasini boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga, qanchasini jamoat ishlarida qatnashish, qanchasini portfolio shakllantirish, qanchasini hordiq chiqarish, qanchasini fikrni jamlash, qanchasini sport va hokazo uchun sarflash kabi unchalik jiddiy tuyulmaydigan, lekin izchillik natijasida muhim yutuqlarga zamin yaratuvchi vazifalarni belgilab oling. Stipendiyadan stipendiyagacha yoki sessiyadan sessiyagacha “jon saqlash” rejimida o‘qisangiz, bu o‘qish emas. Bu shunchaki vaqt o‘tkazish xolos. Odatda professor-o‘qituvchilar ma’ruzani boshlashdan oldin mavzu/kursga doir adabiyotlar ro‘yxatini beradi. Shu adabiyotlarni shaxsan topib, o‘rganib chiqishga erinmang. Ma’ruzalarda nutq orasida qaysidir adabiyotlar eslab o‘tilsa, ularni ham e’tibordan chetda qoldirmang. Hammasini bo‘lmasa ham, kamida yarmini o‘qib chiqsangizgina, universitetga behuda kelib-ketmayotgan bo‘lasiz.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Yuqoridagilar kaminaning talaba uka-singillarimiz uchun layfhaklari edi. Yana kimdadir shu kabi maslahatlar bo‘lsa, izohlarda qoldiring, shoyad kimlar uchundir manfaatli bo‘lsa. *the_mutarjim*	Yuqoridagilar kaminaning talaba uka-singillarimiz uchun amaliy tavsiyalari edi. Yana kimdadir shu kabi maslahatlar bo‘lsa, izohlarda qoldiring, shoyad kimgadir foydasi tegsa. *Orif Tolib*

8.25. Matnni o‘qing. Intervyu jarayonida o‘zingiz va sinfdoshlaringiz nutqida muallif ta’kidlagan holatlar uchragan bo‘lsa, yechim sifatida takliflaringizni yozing.

Nutqqa olib kiriladigan har bir so‘z va ibora “ishlashi”, muayyan ma’noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so‘z yoki ibora nutqning mazmuniy qurilishi uchun bir “g‘ishtcha” bo‘lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuk, demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda “parazit so‘zlar” deb ataladigan bunday birliklar ko‘proq og‘zaki nutqda kuzatiladi. Aytmoqchi bo‘lingan fikrni yetarli darajada aniq tasavvur qilmaslik, fikrlar o‘rtasidagi tizimli munosabat idrokining yetishmasligi, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni qanday bo‘lmasin “yopish”, tegishli uyg‘un ifodani o‘ylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta’minlash ehtiyoji bilan bog‘liq holatda *eee, himm* kabi tovush “oqim”lari, *xo‘o‘o‘sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi lug‘atlarda aniq ma’nosi mavjud so‘z va iboralar ayni ma’nosidan begona tarzda qo‘llanadi. Bunday qo‘llashlar bora-bora nutq tuzuvchida o‘ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, *kimdir, haligi, demak*, yana boshqa birov *bildingizmi* so‘zini og‘zaki nutqida parazit so‘z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so‘zlar u yoki bu notiq so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos ko‘rsatkichi bo‘lib qoladi (hatto bu “ko‘rsatkich” shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, “shu-shu” domla, “xo‘sh-xo‘sh” usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan ma’lumotni qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg‘itadi, nutq maqsadiga erishishni qiyinlashtiradi.

Nizomiddin Mahmudov

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘quv nashri

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna, Saydaliyeva Nasiba Farhodovna,
Madvaliyev Orifjon Tolibovich, Tolliboyev Jamshid Jamol o‘g‘li

Ona tili
11-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

Muharrir	*X. Ibrohimov*
Musahhih	*N. Sotvoldiyeva*
Texnik muharrir	*A. Karimov*
Badiiy muharrir	*D. Jalilov*
Rassom	*S. Farmonov*
Sahifalovchi-dizayner	*A. Aqilov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016-yilda berilgan.
Bosishga 2026-yil iyunda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 15,54. Nashriyot-hisob tabog‘i 9,1.
Adadi 00 nusxa. Buyurtma № ...

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI